ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2025

1^{1}-son
(Yanvar-Fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
M. Tairova	4	Bo'lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida kasbiy faoliyatga tayyorlashning omillari va tamoyillari
M. Hamrayeva	9	O'quv matnlari ta'lim vositasining birligi sifatida
M. Raxmatova	12	Rivojlanish markazlar integratsiyasini ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish
M. Kodirova	17	Umumta'lim maktablarida xalq og'zaki ijodi darslarini qiziqarli tashkil etishning innovatsion usullari
F. Burxonova, M. Ikromaliyeva	20	O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida ona timsoli
Z. Tohirova, M. Xolmanova	23	Nostandart testlar asosida talabalarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirish: ispring dasturi misolida
TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI		
F. Daminova	27	Oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanini o'qitish jarayonida talabada kognitiv kompetentsiyalarni rivojlantirish
X. Hamroyeva	30	Assotsiativ tafakkur asosida nutqiy muloqotni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish
H. Rajabova	33	Realistik qissalarda nutqiy detallarning badiiy maqsadi, vazifasi va ahamiyati (Xoliyor Safarovning "Eng qayg'uli quvonch" qissasi misolida)
E. Fayzullayeva, Sh. Mirzayeva	43	Matritsa rangi va unga oid misollar yechimini izohlash
N. Kamolova	49	Liro-epik tasvirda epik klishe va badiiy-tasvir vositalarining o'rni
Z. Abdunazarova	53	Mikrobiologiya va virusologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning kreativligini rivojlantirish
Z. To'raev, E. Fayzullayeva	56	Determinantlar – xossalari va ularni hisoblash
Z. Uzaqova	62	O'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Texnologiya fani misolida)
M. Kadirova	67	Adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodini o'qitishning ahamiyati va zamonaviy yondashuvlari
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI		
I. Ro'ziboyeva	71	Talabalarda "motion design" – "motion graphics" dizaynerlik malaka va ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarbligi
A. Qo'shbaqov	74	Oliy ta'lim muassaslarida fanlarni o'qitishda smart texnologiyalarning imkoniyatlari va undan foydalanish
E. Xayriyev	77	Talabalarning mediakompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida
M. Abdullayeva, G. Ergasheva, M. Muradova	81	Biologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarda global kompetensiyani shakllantirish (Interaktiv metodlardan foydalanish misolida)

R. Eshimov, E. Xayriyev	86	Elektron ta’lim muhitida kompyuter imitatsion modellar va ularning ta’lim tizimidagi o‘rni
		MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
A. Qosimova	89	Sharq uyg‘onish davri olimlarining qarashlarida ta’lim-tarbiyaning o‘rni va ahamiyati
M. Alikulova	93	Talabalarda oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini shakllantirishning amaliy ahamiyati
		MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
M. Namozova	98	Oliy ta’limda professor-o‘qituvchilarining malaka oshirish texnologiyasini takomillashtirish
		JISMONIY TABIYA VA SPORT
U. Rahmonov	102	Jismoniy tarbiya fanining boshqa fanlar bilan integraciyasini ta’minlashning dolzarbligi
B. Xolmaxmatov	105	Turli ampuladagi 13-15 yoshli futbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari dinamikasi “yarim himoyachilar misolida”
F. Homidjonova, S. Tog‘ayeva	110	Stol tennisini o‘qitish nazariyasi va amaliyoti
F. Homidjonova, N. Boyqobilova	112	Dzyuda va uni o‘qitish metodikasi asoslari
B. Xolmaxmatov, G. Panjiyeva	114	Yengil atletika bilan shug‘ullanuvchi xotin-qizlarning sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishda to‘g‘ri ovqatlanish ratsionining ahamiyati
		MAKTABGACHA TA’LIM
Z. Alimova	118	Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni shakllantirish
D. Rahmonova	123	Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning amaliy ahamiyati
D. Mansurova	127	Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarning ijodkorligini oshirishda interfaol metodlarning ahamiyati
		METHODS OF EDUCATION AND UPBRINGING
A. Qo‘shbaqov	130	Analysis of computer simulation models in education on legal approach to learning process
G. Oltiboyeva	135	The historical influence on the development of the uzbek language

Madinabonu TAIROVA,
Andijon davlat pedagogika institute p.f.f.d.,(PhD)., dotsent

BO'LAJAK TARBIYACHILARNI FASILITATOR SIFATIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING OMILLARI VA TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash, ularning pedagogik bilimlarni egallashi bilan birga, innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Pedagog fasilitator ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchilarni faol ishtishi, ular orasida hamkorlikni shakllantiruvchi shaxs sifatlari, shuningdek, bu rolga tayyorlanishi zamonaviy ta'limda yuqori samaradorlikka erishishning muhim shartlari hamda fasilitator sifatida kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari, tamoyillari keltirilgan.

Tayanch so'zlar. Bo'lajak tarbiyachi, fasilitator tarbiyachi, interaktiv omillar, tamoyillar, fikrlash, ijodkorlik, individual rivojlanish, reflektivlik, innovatsionlik, shaxsga yo'naltirilganlik, hamkorlik va hamjihatlik tamoyili.

Подготовка будущих педагогов в данной статье включает в себя не только приобретение педагогических знаний, но и отработку навыков использования инновационных методов и технологий. Представлено активное участие учащихся в образовательном процессе педагогического фасилитатора, качества личности, формирующие взаимодействие между ними, а также подготовка к этой роли, важные условия достижения высокой эффективности в современном образовании, а также факторы и принципы подготовки к профессиональной деятельности в качестве фасилитатора.

Ключевые слова. Будущий педагог, педагог-фасилитатор, интерактивные факторы, принципы, мышление, креативность, индивидуальное развитие, рефлексивность, новаторство, личностная направленность, принцип сотрудничества и солидарности.

The training of future educators in this article includes not only the acquisition of pedagogical knowledge, but also the development of skills in the use of innovative methods and technologies. The active participation of pupils in the educational process of the pedagogical facilitator, the qualities of a person forming cooperation among them, as well as the preparation for this role, important conditions for achieving high efficiency in modern education , as well as factors and principles of preparation for professional activity as a facilitator are presented.

Key words. Future educator, facilitator educator, interactive factors, principles, thinking, creativity, individual development, reflectivity, innovation, personality orientation, principle of cooperation and solidarity.

Bo'lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida tayyorlash, ularning pedagogik bilimlarni egallashi bilan birga, innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Pedagog fasilitator nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchilarni faol ishtirok etishga undaydigan, ular orasida hamkorlikni shakllantiruvchi shaxsdir. Shu bois, bo'lajak tarbiyachilarning bu rolga tayyorlanishi zamonaviy ta'limda yuqori samaradorlikka erishishning muhim sharti hisoblanadi. Quyida fasilitator sifatida kasbiy faoliyatga tayyorlash tamoyillari keltirilgan:

1. Innovatsionlik tamoyilida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion texnologiyalar va

metodlardan foydalanishga o‘rgatish. Bu tamoyil tarbiyalanuvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodkorlik muhitini shakllantirishga qaratilgan.

2. Shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyilida har bir tarbiyalanuvchining shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga asoslangan moslashtirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish. Bu tamoyil individual rivojlanishga xizmat qiladi.

3. Reflektivlik tamoyilida tarbiyachilarning o‘z faoliyatini doimiy tahlil qilish va takomillashtirish uchun zarur metodik ko‘nikmalarni rivojlantirish.

4. Hamkorlik va hamjihatlik tamoyilida tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar orasida faol muloqot va hamkorlikni ta’minlashga asoslanadi. Bu tamoyil ta’lim jarayonida o‘zaro ishonch va hamjihatlik muhitini yaratadi.

Fasilitatsiya ta’limi zamonaviy tadqiqotchilar orasida katta qiziqish uyg‘otmoqda. R.S.Dimuxametova, Ye.Y.Borisenko, L.N.Kulikova, Ye.G. Vrublevskaya va L.N.Timonina kabi olimlar bu yondashuvni ta’lim samaradorligini oshirish bilan bog‘laydilar. Ularning fikricha, kasbiy pedagogik jarayonning muvaffaqiyati tarbiyachilarning shaxsiy fazilatlari va maxsus aloqa uslubini rivojlantirish orqali ta’minlanadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida tayyorlash pedagogik jarayonning interfaol va innovatsion tamoyillar asosida tashkil etilishini talab qiladi. Ushbu yondashuv nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki tarbiyachilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ham ta’minlaydi. Fasilitatsiya tamoyillari orqali o‘qitish jarayonida faol ishtirok va hamkorlik muhitini yaratish bo‘lajak mutaxassislarning yuqori darajada shakllanishiga xizmat qiladi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida tayyorlash jarayonida pedagogning shaxsiy fazilatlari, maxsus aloqa uslublari va kommunikativ kompetensiyalari muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonida interaktivlikni oshiradi, talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlaydi. Fasilitatsiya ta’limining asosiy omillari va prinsiplari:

R.S.Dimuxametovaning tadqiqotlarida ta’lim jarayonida fasilitatsiya yondashuvini qo‘llashning samaradorligini o‘rgangan. U pedagogning shaxsiy fazilatlari va maxsus aloqa uslublarini rivojlantirish orqali ta’lim sifatini oshirish mumkinligini ta’kidlagan. Fasilitasiyaviy prinsipni asoslab, u mustaqillik va shaxsni shakllantirishni ta’limning tarkibiy qismi sifatida belgilaydi. Uning yondashuviga ko‘ra, fasilitatsiya talaba va o‘quv materiali o‘rtasida vositachilik qiladi.

Ye.Y.Borisenkoning fasilitatsiya ta’limida pedagogning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish muhimligini qayd etadi. U pedagogning shaxsiy fazilatlari va samarali muloqotni ta’minlaydigan uslublarini takomillashtirishni fasilitatsiya samaradorligini oshirish omili sifatida ko‘radi.

L.N.Kulikovaning ta’lim jarayonida fasilitatsiya yondashuvini qo‘llash orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ta’lim samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. U ta’lim jarayonida talabaning faol ishtirokini ta’minlashni asosiy tamoyil sifatida belgilaydi.

Ye.G.Vrublevskaya va L.N.Timoninaning ushbu olimlar fasilitatsiya ta’limida pedagogning shaxsiy fazilatlari va maxsus aloqa uslublarini rivojlantirish orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish mumkinligini ta’kidlaydilar. Ularning fikriga ko‘ra, pedagog va talaba o‘rtasida “fasilitasiyaviy aloqa” ta’limning muvaffaqiyatli tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Talablar, yo‘nalishi	Pedagog fasilitatorning tarkibiy elementlar
– Nazariy tayyorgarlik – Amaliy tayyorgarlik – Shaxsiy sifatlar va kompetensiyalar – Texnologik kompetensiyalar – Pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash – Kasbiy rivojlanish va o‘qitish usullari	– Pedagogikaning zamonaviy paradigmalari bo‘yicha bilimga ega bo‘lish. – Ta’lim psixologiyasi va bolalar rivojlanishini o‘rganish. – Innovatsion va interaktiv ta’lim usullarini bilish. – Ta’lim jarayonini tashkil qilish va boshqarish. – Kreativ yondashuvlarni ishlab chiqish. – Bolalarning individual qobiliyatlarini hisobga olish. – Kommunikativ qobiliyatlar. – Ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. – O‘zini o‘zi rivojlantirish va bolalar bilan ishlashda empatiya ko‘rsatish. – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish. – Interaktiv platformalarda bolalar uchun resurs yaratish. – Elektron ta’lim materiallarini ishlab chiqish. – Ta’limda loyihalash texnologiyalarini qo‘llash. – Bolalar ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish. – Konstruktiv va innovatsion metodlarni ishlab chiqish. – Uzluksiz ta’lim va malaka oshirish. – Jahon tajribalarini o‘rganish va qo‘llash. – Refleksiya orqali faoliyatni takomillashtirish.

1-rasm. Bo‘lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida kasbiy tayyorlashga qo‘yilgan talablar.

Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlashda maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartlariga asoslangan talablarga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu talablar pedagog faoliyatining sifat darajasini belgilovchi samarali amaliyot ko‘rsatkichlariga asoslanadi. Faoliyat ko‘rsatkichlari pedagogning malaka darajasiga bog‘liq ravishda aniqlanadi: ikkinchi toifadagi pedagog, birinchi toifadagi pedagog va oliy toifadagi pedagog.

Kasbiy standartda quyidagi oltita maqsadli soha keltirilgan:

Ta’limiy muhitni rivojlantirishda bolalarning rivojlanishi uchun xavfsiz va qulay ta’lim muhitini tashkil etish.

O‘quv jarayonini rejalashtirishda ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish.

Bolalarni o‘qitish va tarbiyalashda bolalarning o‘quv va tarbiyaviy jarayonida faol ishtirokini ta’minlash.

Bolalar rivojlanishining darajalarida bolalarning rivojlanish darajasini baholash va yutuqlarini monitoring qilish.

Sherikchilik va hamkorlikni rivojlantirishda ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish.

Kasbiy rivojlanishda o‘z kasbiy mahoratini oshirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish.

Bo‘lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida kasbiy faoliyatga tayyorlashga qo‘yilgan talablar ularning nafaqat pedagogik jarayonni sifatli tashkil qilish, balki kasbiy kompetensiyalarni doimiy takomillashtirishlariga yo‘naltirilgan. Ushbu talablarning ijrosi bo‘lajak tarbiyachilarning bolalar rivojlanishini boshqarish, samarali kommunikatsiyani tashkil etish va ta’lim jarayonini ijodiy yondashuv asosida olib borishga tayyorligini oshiradi.

K.Rojers tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik fasilitator konsepsiyasi shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning muhim nazariy asoslaridan biri sifatida qaraladi. Bu konsepsiya

o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va shaxsning tajribasiga tayanish tamoyillari orqali ta’lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan. Rojersning yondashuviga ko‘ra, tarbiyachi-fasilitator shaxsni ta’lim jarayonida faqat bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Rojers konsepsiyasining asosiy tamoyillari:

O‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirish orqali har bir shaxs o‘z salohiyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Shaxsiy tajribaga tayanishda ta’lim jarayoni shaxsning tajribasiga asoslangan individual yondashuvga tayanishi lozim.

Tanlash erkinligida o‘quv jarayonida shaxsning ehtiyoj va qiziqishlariga mos ravishda tanlash imkoniyatlari yaratilishi zarur.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda shaxsning ijodiy salohiyatini oshirish va o‘zini aks ettirishga rag‘batlantirish.

Hurmat va qabul qilishida ta’lim jarayonida shaxsni hurmat qilish va uning fikrlari hamda his-tuyg‘ularini qadrlash. Rojers ta’lim jarayonini insonparvarlikka asoslangan hamkorlik sifatida tasavvur qilib, tarbiyachi va o‘quvchilar o‘rtasidagi ochiq muloqotni rag‘batlantiradi. Bu yondashuv o‘quvchilarni o‘z ta’lim jarayonining faol subyektlari sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Fasilitatsiyaning gumanistik xususiyatlarini yoritishda O.N.Shaxmatova va boshqa tadqiqotchilar Rojers konsepsiyasi asosida fasilitatorni o‘zaro pedagogik hamkorlik subyekt-subyekt munosabatlari sifatida tavsiflaydilar. Ushbu yondashuvda tarbiyachining quyidagi fazilatlari muhim ahamiyat kasb etadi:

Jalb etuvchi munosabatni, voqelikni ijobiy qabul qilish.

Assertivlik munosabatni, o‘z qobiliyatlariga ijobiy munosabat.

Bag‘rikenglik munosabatni, boshqalarning xatti-harakatlari va fikrlarini hurmat qilish deya baholaydi.

B.G.Ananev, N.D.Levitov, Ye.G.Vrublevskaya va boshqa olimlar fasilitatsiyaning ta’lim subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikda alohida rol o‘ynashini ta’kidlaydilar. Ushbu yondashuv muloqot va hamkorlik orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishni maqsad qiladi.

R.S.Dimuxametovaning tadqiqotlari fasilitatsiyaning andragogik va akmeologik yondashuvlar asosida tarbiyachilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishdagi o‘rnini yoritadi. U sinergetik yondashuvlar yordamida fasilitatsion jarayonni chuqur tadqiq etgan va pedagogik jarayonni rivojlantirishga qaratilgan nazariy asoslarni ishlab chiqqan.

K.Rojers konsepsiyasi va boshqa tadqiqotchilarning fikrlari asosida fasilitatsiya ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan va gumanistik yondashuvning muhimligini ta’kidlaydi. Fasilitatorning asosiy vazifasi tarbiyachilarning salohiyatini rivojlantirish, ijodiy va mustaqil fikrlashga undash va rivojlantiruvchi muhit yaratishdir. Ushbu yondashuv zamonaviy ta’limda yuqori sifat va samaradorlikka erishishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqotchi T.B.Zagorula pedagogik fasilitasiya konsepsiyasini ishlab chiqib, ta’lim jarayonida talabalar uchun innovatsion madaniyatni shakllantirish va pedagogik faoliyatda uzluksizlikni ta’minlashning muhim jihatlarini yoritgan. Ushbu konsepsiya ta’lim jarayonida talabalarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, shuningdek, shaxsiy rivojlanishlarini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan.

Quyida T.B.Zagorula konsepsiyasining asosiy jihatlari keltirilgan:

1. Pedagogik fasilitasiya konsepsiyasida talabalarning bilim olish jarayonini qo‘llab-quvvatlash, ularning o‘z-o‘zini rivojlantirishga hissa qo‘shish va ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishga qaratilgan.

2. Innovatsion madaniyat konsepsiyasida talabalar uchun yangi bilimlarni egallash, ulardan foydalangan holda o‘zgaruvchan muhitga moslashish va ijodiy amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirish.

3. Pedagogik va andragogik model uzluksizligiga oid konsepsiyasida yosh va katta yoshdagi talabalar ta’lim ehtiyojlariga moslashgan o‘quv jarayonlarini tashkil etish kabi masalalar berilgan.

Zagorulaning tadqiqotlariga ko‘ra, talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish uchun o‘quv muhitini tashkil etish, shaxsiy yondashuvni rivojlantirish va innovatsion o‘qitish usullarini keng qo‘llash zarur. Ushbu yondashuv zamonaviy ta’lim jarayonida talabalar shaxsining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi va ularni mustaqil shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Zagorulaning konsepsiyasida shaxsni aktuallashtirishga oid ikkita asosiy model taklif etiladi:

1. Innovatsion madaniyat tashuvchilarining shaxsini aniqlash modeli.

2. Innovatsion madaniyat tashuvchisi sifatida talabalar shaxsini aktuallashtirish modeli.

Ushbu yondashuv orqali talabalar o‘z salohiyatini rivojlantirish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini mustahkamlashga qaratilgan.

Fasilitatorlik sifatining guruhi uchun ahamiyati shundan iboratki, fasilitator sifatida faoliyat yurituvchi shaxs guruh a’zolari uchun muammolarni aniqlash, qaror qabul qilish va guruh faoliyatini samarali tashkil etishda vositachi sifatida xizmat qiladi. Bu jarayon o‘zaro muloqot va hamkorlikni rag‘batlantiradi, ta’lim samaradorligini oshiradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Albert Einstein Relativity: The Special and the General Theory. // Henry Holt and Company, 1916.

2. DinMuxametova R.S., Borisenko Ye.Y., Kulikova L.N., Vrublevskaya Ye.G., Timonina L.N. Transformations of tetrahydropyrido thieno ones in the presence of alkynes bearing electron-withdrawing substituents. // Russian Chemical Bulletin, 2012.

3. Rojers K. (Carl Rogers, 1902–1987) Shaxsga yo‘naltirilgan terapiya. Psixoterapiya amaliyoti nashriyoti, 1951.

4. Зеер Э.Ф. Концепция профессионального развития человека в системе непрерывного образования // Педагогическое образование в России. № 3. М.:- 2012.- 45-49 с.

Muhayyo HAMRAYEVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

O‘QUV MATNLARI TA’LIM VOSITASINING BIRLIGI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada o‘quv matnlar — bu belgilangan maqsadga erishish uchun ma’lumot yoki bilimlarni tashkil etuvchi va o‘quv jarayonida foydalaniladigan materiallar ekanligi va o‘quv matnlarining asosiy vazifalari o‘quvchilarni ma’lumot bilan ta’minlash, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishdan iboratligi keltirib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar. O‘quv matnlari, ko‘nikma, malaka, jarayon, matn,o‘qish, tushunish, tahlil qilish.

В данной статье указано, что учебные тексты представляют собой материалы, которые систематизируют информацию или знания и используются в образовательном процессе для достижения поставленной цели, а основными задачами учебных текстов являются предоставление обучающимся

Ключевые слова. Учебные тексты, умение, компетентность, процесс, текст, чтение, понимание, анализ.

This article states that educational texts are materials that organize information or knowledge and are used in the educational process to achieve a set goal, and the main tasks of educational texts are to provide students with information, to develop skills and competencies. it is mentioned that it consists of development.

Key words. Educational texts, skill, competence, process, text, reading, understanding, analysis.

O‘quv matnlari ta’lim jarayonida muhim vosita bo‘lib, ular o‘quvchilar uchun bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda asosiy manba hisoblanadi. O‘quv matnlari o‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirishida, til ko‘nikmalarini rivojlantirishda, fikrlashni o‘stirishda va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. O‘quv matnlari ta’lim vositasining birligi sifatida muhim ahamiyatga ega. O‘quv matnlari o‘quv jarayonini tashkil etuvchi asosiy elementlardan biri hisoblanadi va ular ta’lim sohalarida turli maqsadlarni amalga oshirishda foydalaniladi.

1. O‘quv matnlari va ularning xususiyatlari:

1.1. Bilim manbai.

O‘quv matnlari o‘quvchilarga aniq va tizimli bilimlar beradigan asosiy manbadir. Bu matnlar o‘z ichiga fan yoki predmetga oid nazariy bilimlarni oladi va ularni o‘quvchilarga yetkazadi.

– Tushuntirish: matnlar ko‘pincha murakkab tushunchalarni oddiy va tushunarli uslubda bayon qiladi.

– Misollar: o‘quv matnlari odatda nazariyani amaliyot bilan bog‘lash uchun misollarni o‘z ichiga oladi.

1.2. O‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘quv matnlari o‘quvchilarning o‘qish, tushunish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonda o‘quvchilar matnlarni tahlil qilish, asosiy g‘oyani ajratib olish, muhim ma’lumotlarni topish va umumiy xulosalar chiqarish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.

– O‘qish strategiyalari: matnlarni o‘qish jarayonida o‘quvchilar bir qator strategiyalarni qo‘llashadi (masalan, xotima o‘qish, ajralib turuvchi fikrlarni aniqlash).

– Tahlil qobiliyati: matnlarni o‘qish va tushunish orqali o‘quvchilar ma’lumotlarni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

1.3. Til o‘rgatish.

O‘quv matnlari til o‘rgatishda asosiy rol o‘ynaydi. Matnlarni o‘qish orqali o‘quvchilar yangi so‘z boyligini o‘zlashtiradilar, grammatik qoidalarni o‘rganadilar va tilning turli uslublarini tushunadilar.

– So‘z boyligi: har xil mavzularni o‘z ichiga olgan o‘quv matnlari o‘quvchilarni yangi so‘zlar bilan tanishtiradi.

– Til uslubi: matnlarda turli xil uslubdagi til ishlatiladi (ilmiy, badiiy, rasmiy va boshqalar), bu esa o‘quvchilarga turli uslublarni ajratib olish va ishlatish ko‘nikmasini beradi.

2. O‘quv matnlarining ta’limdagi o‘rni

2.1. Bilimni mustahkamlash

O‘quv matnlari o‘rganilgan materiallarni mustahkamlash va chuqurlashtirishda muhim vositadir. O‘quvchilar matnlarni takroran o‘qish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

– Nazorat va tekshirish: o‘qilgan matnlar asosida savol-javoblar, testlar va topshiriqlar tashkil etiladi, bu esa bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

2.2. Mavzularni kengaytirish

O‘quv matnlari yordamida o‘quvchilar mavzularni kengroq kontekstda o‘rganishi va tushunishi mumkin. Bu esa ularning dunyoqarashi va qiziqish doirasini kengaytiradi.

– Kross-madaniy o‘rganish: turli madaniyatlar va tarixiy davrlarga oid matnlar o‘quvchilarga kengroq dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

2.3. Ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish

O‘quv matnlari o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga rag‘batlantiradi. Matnlarda berilgan vaziyatlar va muammolar o‘quvchilardan innovatsion yechimlar topishni talab qiladi.

– Muammolarni yechish: o‘quvchilar matnlarda uchraydigan muammolarni tahlil qilib, ijodiy yondashuvlar bilan ularni yechishga harakat qilishadi.

3.3. Instruktiv matnlar

Instruktiv matnlar o‘quvchilarga qandaydir faoliyatni yoki jarayonni qanday amalga oshirish kerakligini ko‘rsatadi. Bu turdagi matnlar qo‘llanmalar, yo‘riqnomalar va ko‘rsatmalardan iborat bo‘lishi mumkin.

– Amaliy ko‘nikmalar: bu matnlar orqali o‘quvchilar amaliy ko‘nikmalarni o‘rganadi va rivojlantiradi.

3.4. Hujjatli matnlar

Hujjatli matnlar tarixiy, ijtimoiy yoki huquqiy hujjatlardan iborat bo‘lib, o‘quvchilarga aniq faktlarni va voqealarni o‘rgatadi.

– Tarixiy bilim: hujjatli matnlar tarixiy voqealarni o‘rganishga va o‘quvchilarga real faktlar asosida bilim berishga yordam beradi.

4. O‘quv matnlarini o‘qitish strategiyalari

4.1. Matn tahlili

O‘quvchilar bilan birga matnni tahlil qilish, uning asosiy g‘oyasini ajratish va muhim nuqtalarni aniqlash muhimdir. Bu jarayon o‘quvchilarning fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4.2. Matnlarni qayta hikoya qilish

Matnlarni qayta hikoya qilish orqali o‘quvchilar matn mazmunini qayta yodga soladi va tushunganligini mustahkamlaydi. Bu, shuningdek, til ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4.3. Savol-javob usuli

O‘quvchilarga matn bo‘yicha savollar berish orqali ularning matnni tushunganligini aniqlash va matn mazmunini yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatini yaratish mumkin.

4.4. Matnni dramatizatsiya qilish

Matn mazmunini sahnalashtirish yoki rol o‘ynash orqali o‘quvchilar matnni chuqurroq his qiladi va tushunadi. Bu usul, ayniqsa, badiiy matnlar uchun samaralidir.

4.5. Muammolarni yechish bo‘yicha mashqlar

Matndagi muammolarni aniqlash va ularga yechim topish bo‘yicha mashqlar o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

5. O‘quv matnlarini tanlash mezonlari

5.1. O‘quvchilar darajasiga moslik

Matnlarning mazmuni va murakkabligi o‘quvchilarning bilim darajasiga mos bo‘lishi kerak. Bu ularning matnni tushunishini va qiziqish bilan o‘rganadi.

5.2. Mavzuning dolzarbligi

Matnlar zamonaviy muammolar va masalalar bilan bog‘liq bo‘lishi, o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otishi kerak. Dolzarb mavzular o‘quvchilarning matn bilan bog‘liq ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

5.3. Til va uslubning aniqligi

Matnlar tushunarli va aniq tilda yozilgan bo‘lishi kerak, shunda o‘quvchilar matnni tushunishda qiyinchilikka duch kelmaydi. Til va uslubning aniqligi o‘quvchilarning materialni yaxshiroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

5.4. Ko‘p madaniy qamrov

Matnlar turli madaniy va ijtimoiy qamrovni o‘z ichiga olishi kerak. Bu o‘quvchilarga turli madaniyat va hayotiy tajribalar bilan tanishishga imkon beradi, shu bilan birga ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

6. O‘quv matnlarining didaktik vazifalari

6.1. Axborot berish

O‘quv matnlari o‘quvchilarga yangi ma’lumot va bilimlar berish uchun xizmat qiladi. Bu matnlar ilmiy, texnologik, tarixiy yoki badiiy ma’lumotlarni yetkazadi.

6.2. Motivatsiya yaratish

Yaxshi tanlangan matnlar o‘quvchilarni o‘rganishga, tahlil qilishga va muammolarni hal qilishga rag‘batlantiradi. Matnlarning qiziqarli va dolzarb bo‘lishi o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi.

6.3. Muammolarni hal qilish ko‘nikmasini shakllantirish

Matnlar o‘quvchilarni murakkab vaziyatlar va muammolarni tahlil qilish va hal qilishga o‘rgatadi. Bu esa ularning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

6.4. Tarbiya va dunyoqarashni kengaytirish

Matnlar orqali o‘quvchilar faqat bilim emas, balki axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni ham o‘rganadilar. Bu ularga to‘g‘ri dunyoqarash va hayotiy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi.

6.5. Til ko‘nikmalarini rivojlantirish

Matnlar o‘quvchilarga tilni boyitish, yangi so‘z va iboralarni o‘rganish, grammatik qoidalarni qo‘llash kabi til ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

O‘quv matnlari ta’lim jarayonida beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarni bilim bilan boyitishdan tashqari, ularni o‘ylash, tahlil qilish va ijodiy yondashishga o‘rgatadi. Matnlarni to‘g‘ri tanlash va ularni o‘qitish strategiyalarini to‘g‘ri qo‘llash o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov, T. Sh. Pedagogika – T.: O‘zbekiston, 2010.

2. Abdug‘afforov, X. Y. O‘zbekiston ta’lim tizimida nutq pedagogikasi – T.: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2018.

3. Abdullayev A. A. O‘zbek tilining grammatikasi – T.: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 2015.

Maftuna RAXMATOVA,
Qarshi davlat unversiteti, tayanch doktarant

RIVOJLANISH MARKAZLAR INTEGRATSIYASINI TA’MINLASH ORQALI TARBIYALANUVCHILARNING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqola mazmunida bugun zamon talabiga ko‘ra, jamiyatlarning tez o‘zgarishiga moslashish, ilmiy-texnik taraqqiyotga hissa qo‘shish va global muammolarni yengish kutilmoqda. Hozirgi kunda bilimlarni xulq-atvor namunalariga kiritish ta’lim dasturlarining asosiy maqsadini tashkil etadi, shuning uchun bolalarning maktabgacha yoshdan boshlab rivojlanishini hisobga olgan holda maktabgacha yoshdan bolalarga sifatli ta’lim berish, davlat standarti hamda Ilk qadam davlat o‘quv dasturi asosida sifatli ta’lim – tarbiya berish mazmuni haqida fikr-mulohazalar berilgan.

Tayanch so‘zlar. Rivojlanish markazlari, ta’lim, tarbiya, kompetensiya, san’at, fan va tabiat, til va nutq, syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish, qurish, konstruksiyalash va matematika.

В содержании статьи предполагается адаптироваться к быстрым изменениям общества, внести вклад в научно-техническое развитие и преодолеть глобальные проблемы. В настоящее время интеграция знаний в модели поведения является основной целью образовательных программ, поэтому качественное образование детей с дошкольного возраста с учетом развития детей с дошкольного возраста на основе государственного стандарта и государственной учебной программы “Первый шаг” Приводятся мнения о содержании образования.

Ключевые слова. Центры развития, образование, обучение, компетентность, искусство, наука и природа, язык и речь, ролевые игры и адаптация, конструирование, конструирование и математика.

In the content of the article, it is expected to adapt to the rapid changes of societies, to contribute to scientific and technical development and to overcome global problems. Nowadays, the integration of knowledge into behavioral patterns is the main goal of educational programs, therefore, quality education for children from preschool age, taking into account the development of children from preschool age, based on the state standard and the state curriculum “First Step” Opinions are given about the content of education.

Key words. Development centers, education, training, competence, art, science and nature, language and speech, construction and construction, role-playing games and adaptation, construction, construction and mathematics

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim davlat siyosatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda uzluksiz ta’lim tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu tizim bolalarni erta yoshdan boshlab tarbiyalashdan tortib, ularning kelajakdagi professional rivojlanishigacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, yosh avlodga ko‘rsatilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlik mamlakat kelajagi uchun investitsiyadir. Ularning jismoniy va ma’naviy rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, bugungi kunda bolalarga maktabgacha ta’limdan boshlab jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimi bolalarning intellektual, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratish vazifasini bajaradi. Shu sababli bu tizimni modernizatsiya qilish va yangi peda-

gogik yondashuvlarni joriy etish davlat siyosatining muhim qismi sifatida e'tirof etiladi. Maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimi bolalar uchun o'quv jarayoniga qiziqishni uyg'otadi, ularni shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lishlariga ko'maklashadi. Bundan tashqari, bolalarning individual qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularni har tomonlama rivojlantirish maqsadi ham amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimi bolalarni bilim olishga tayyorlash, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va jamiyatga moslashishlariga ko'maklashishning muhim bosqichi hisoblanadi. Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, ularni jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan rivojlantirishdan iboratdir. Bolalar bu bosqichda hayotning asosiy qoidalari va qadriyatlari bilan tanishadi, shuningdek, ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydilar. Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarga mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat va atrof-muhitni o'rganishga qiziqish uyg'otishga yo'naltirilgan dasturlar asosida ta'lim beriladi.

O'rganib chiqilgan adabiyotlar tahliliga ko'ra - rivojlanish markazlari, ta'lim jarayonlari va uslublarini yangilash orqali ta'lim sifatini oshirishda katta rol o'ynaydi. Bu markazlar bolalarga eng yangi va samarali o'qish-uslublari, ta'lim texnologiyalari va interaktiv ta'lim vositalarini taqdim etish uchun ideal muhitni yaratadi.Rivojlanish markazlari ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajaradi. Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlaydilar, bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan bolaning tashabbusini rag'batlantiradi.

Bolalar o'quv jarayoniga chindan ham ishtiyoq bildirganlaridagina, juda yaxshi rivojlanadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish muhitining to'g'ri tashkil etilishi, maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga qo'yiladigan davlat talablari va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini hisobga olgan holda, bolalarni izlanishga, tashabbuskorlik va ijodkorlikni namoyon etishga undashi kerak. Guruh maydonidagi mavzuni rivojlantiruvchi muhit, rivojlanish markazlari (burchaklar, zonalar) bilan ifodalanadi, masalan: san'at markazi, fan va tabiat markazi, til va nutq markazi, syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi, qurish, konstruksiyalash va matematika markazi. Markazlardagi faoliyatlarda bolalarni yosh xususiyatlarini, shuningdek, o'g'il va qiz bolalarning qiziqishlarini inobatga oladi. Rivojlanish markazlarida ishlash maktabgacha ta'limning an'anaviy sinflarini takomillashtiradi yoki o'zgartiradi, bolaga shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosi bo'lmish, markazni tanlash huquqi beriladi. Pedagogning vazifasi, bolalarning manfaatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, maqsadlarni aniqlash va markazlarda ishlashni tashkil etish bilan belgilanadi. Mavzuni rivojlantirish muhitini yaratishda quyidagilar ta'minlanadi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun materiallari, guruh xonasining o'quv salohiyati, jihoz va uskunalar.

2. Bolalarning motorli faolligi, bolalar va kattalarning muloqot qilish va birgalikda faoliyat yuritish imkoniyati, ularning yolg'iz qolish imkoniyati.

3. Inklyuziv ta'limni, shuningdek milliy-madaniy, iqlim va boshqa sharoitlarni hisobga olgan holda, turli xil ta'lim dasturlarini qo'llash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik qulayligi va hissiy farovonligi. Har bir bola faoliyat turini, qo'llanmalarni, o'yin sheriklarini tanlash imkoniyatiga ega, bu esa, har bir bolaning moyilligi, qiziqishi, faoliyat darajasini hisobga olgan holda, uning o'ziga xosligini samarali rivojlantirishga imkon beradi.

Markazda ishni tayyorlash - tematik rejalashtirishga ko'ra, turli yoshdagi guruhlarda oy va hafta mavzulari ajratib olinadi. Tarbiyachi oy mavzusini hisobga olgan holda,

guruhlarni o‘ylab topadi va tashkillashtiradi. Guruh xonasining devorlari, zinapoyalar — bularning barchasi bolalarga hafta, oy mavzusini eslatib turadi. Ushbu mavzuga ko‘ra, har bir guruh xonasida markazlar tayyorlanadi. Mavzuni hisobga olgan holda, har bir markazni tayyorlash uchun qisqacha reja tuziladi,u quyidagilarni aks ettiradi:

1. Markazning maqsadlari
2. Zarur jihozlar
3. Bolalarning mo‘ljallangan faoliyati
4. Nimaga e’tibor berilishi kerak.

Har bir markaz haftaning boshida ishga tayyorlanadi. Ish davomida tarbiyachi markaz bolalarda qanchalik qiziqish uyg‘ota olganligini, unga kirish imkoniyati va xavfsizligini hamda unda qo‘llanmalar yetarli yoki yetarli emasligini kuzatib boradi. Ehtiyoj bo‘lsa, tarbiyachi qo‘llanmalarni to‘ldiradi yoki ularga o‘zgartirish kiritadi. Shuningdek, tarbiyachi guruhning barcha bolalari ushbu markazdan o‘tgan-o‘tmaganligini,vazifalarni bajarish kimga oson bo‘lganligi yoki kimga qiyinchilik tug‘dirganligini kuzatib,tahlil qilib borishi kerak.

Har bir markaz o‘z nomiga va maqsadiga ega, turli xil faoliyat turlari va turli xil materiallarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, har bir markaz maktabgacha yoshdagi bolalar uchun intellektual,ruhiy, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta’minlash imkoniyatini beradi. Markazdagi vazifa bola uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Shunday maqsadlar va vazifalar belgilanishi kerakki, ularni ushbu guruh bolalari hal qila olishlari lozim, bu har bir bola uchun muvaffaqiyatni kafolatlaydi. Pedagog birinchi navbatda bolaga markazni tanlashda yordam beradi, uni beg‘araz yo‘naltiradi. So‘ngra bola erkin tanlovga o‘tadi. Bolalar tomonidan markazlarning tanlanishi, bolalarda o‘z-o‘zini boshqarish va mas’uliyatni rivojlantirishga yordam

beradi. Erkin tanlov markaz ichida ham saqlanib qolinadi. Markazlar doirasida bolalar tanlagan materiallaridan foydalanishlari mumkin. Haftaning oxirida tarbiyachi bolalarning faoliyatini, bolalar nimalarni o‘rganganligini tahlil qiladi va shu bilan birga, markazlar qanchalik samarali va qiziqarli tayyorlanganligi, belgilangan maqsadlarga erishilgan yoki aksincha erishilmaganligi to‘g‘risida xulosa chiqaradi. Shundan so‘ng keyingi haftaga tayyorgarlik ko‘riladi.

“Til va nutq” markazi nutqni o‘zlashtirish – kattalar va bolalar bir-biri bilan gaplashganda va bir-birini tinglaganda sodir bo‘ladigan ikki tomonlama almashinuv. Pedagogning eng katta vazifalaridan biri kamroq so‘zlash va bolani ko‘proq gapirishga undash sanaladi. Pedagoglar kun davomida ahamiyatli voqealar haqida hikoya qilib berish orqali bolalarga tinglash va gapirishni o‘rganishda yordam berishi mumkin. O‘zaro munosabatlarning mazkur barcha ko‘rinishlari bolalarning so‘z boyligini oshiradi, shunday qilib, ular o‘qishni boshlaganida matnni tushunishi oson bo‘ladi. So‘zlarni bilish (so‘z boyligi miqdori) va o‘qish mahorati o‘rtasida yaqin bog‘liqlik bor. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining zimmasiga barcha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning nutq qobiliyatini rivojlantirish va to‘g‘rilash maqsadida standart va integratsiyalashgan umumiy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun guruhda rivojlantiruvchi o‘qish muhitini tashkillash vazifasi yuklatilgan. “Til va nutq” rivojlantirish markazida mashg‘ulotlar individual va 2–3 ta tarbiyalanuvchidan iborat kichik guruhlarda o‘tkaziladi. Shuningdek, u bolalarning mustaqil faoliyati markazlaridan biriga aylanadi, bu yerda ko‘rgazmali materiallarni o‘rganish va o‘ynash ular uchun yoqimli va qiziqarli bo‘ladi.

Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi - matematik raqamlar va miqdorlar, operatsiyalar va algebraik fikrlash, obyektlarning geometriyasi va ma’lumotlarga

asoslangan matematik muammolarni hal qilish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu jarayonlar faol bo‘lishga imkon beradigan darajada aniq modelga asoslanadi. U materiallar bilan boyitib, barcha his-tuyg‘ularga taalluqli, kundalik hayot bilan bog‘liq holda olib borilishi kerak, bolalar matematik dunyoqarashini shakllantirishlari, asosiy matematik bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun. Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi muhim ahamiyatga ega.

“San’at markazi” bolalarga quvonch, hayajon va qoniqish hislarini beradi. U turli xil vazifalarni amalga oshiradi, lekin, avvalambor, ijodga bo‘lgan qobiliyatni milliy, madaniy, tarixiy qadriyatlarga hurmat, tasavvur, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, kreativlikni kengaytiradi va mustahkamlaydi. “San’at markazi” maqsad va vazifalari ko‘rish va ijodiy layoqatni amalga oshirishni rag‘batlantiradi; ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi; verbal va noverbal muloqot; intellektual qobiliyatni rivojlantiradi; yirik va mayda motorikani rivojlantiradi; taktil sezgisini boyitadi; yangi materiallar bilan tanishishda qoniqish imkonini beradi; milliy madaniyat va ijodga bo‘lgan hurmatni shakllantiradi.

“Ilm-fan va tabiat” markazi. Bolalar tug‘ilganlaridan tadqiqotchi kabi atrof-muhit haqidagi ma’lumotlarni faol to‘playdilar. Ular dunyoni kuzatish va tajriba orqali tushunishga harakat qiladilar. Bolalarning tabiiy qiziquvchanligi bilish va tushunish faoliyatiga aylanadi. Ilm-fan ikkinchi tabiatga ega bo‘lib, bir vaqtning o‘zida natija va jarayon sifatida harakat qiladi. Natijada, ilm-fan — bu jismoniy va tabiat dunyosi haqidagi bilimlarning uyushgan tizimidir. Jarayon sifatida ilm-fan — bu tadqiqot, kuzatish va tajriba hisoblanadi. Yosh bolalar tadqiqot jarayonida ishtirok etishlari juda muhim, chunki tegishli ko‘nikmalar dasturning boshqa barcha bo‘limlariga o‘tkaziladi va bu hayotda ular uchun foydali bo‘ladi. Bu ko‘nikmalarga kuzatish, taqqoslash, tavsiflash, bashorat qilish (prognoz qilish), yaratish, tasniflash va o‘lchash kiradi.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi bolalarda haqiqiy hayot sahnalarini namoyish etish istagini kuchaytiradi. Bu ularga atrofda sodir bo‘layotgan voqealarni yaxshiroq tushunishga va ularning ushbu dunyodagi rollarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Jamoada munosabatlar madaniyati shakllanadi, kattalar va turli kasblar ishiga hurmat yuzaga keladi, shu bilan birga, asosiy ijtimoiy vakolatlar ham shakllanadi. Syujetli-rolli o‘yinlar jarayonida bola qiziqarli rolni bajarishga harakat qiladi, o‘ylab topilgan vaziyatda harakat qilish uchun xotira va tasavvur shakllaridan foydalanadi. O‘qituvchilar ushbu markazda bolalarni o‘qitish uchun rekvizitlarni tanlaydilar, biroq bunday rekvizitlarni tanlash bolalar namoyish etgan qiziqishlarga ko‘proq asoslanadi. Erta bolalikdan boshlab bolalar eshitgan ovozlari va ular ko‘rgan harakatlarga taqlid qiladilar. “hazil asosida tashkil etilgan” harakatlardan zavqlanib, bolalar yangi vaziyatlarga harakat va ovoz bilan munosabat bildirishadi va o‘ynashadi. Ushbu o‘yin qo‘llab-quvvatlansa, u sahnalashtirish, ya’ni san’at turi va voqelikni o‘zlashtirish usuliga aylanadi.

Sh.Sodiqova “Maktabgacha pedagogika” nomli darslikda Bolani biror narsaga o‘rgatishgina emas, unda o‘z kuchiga ishonchni orttirish, o‘z g‘oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda “Men konsepsiyasi”ni shakllantirish ham muhim ekanligi haqida yoritilgan. M. Imomov. “Maktabgacha ta’limni boshqarishning me’yoriy asoslari” o‘quv qo‘llanmada keltirilgan mavzular mazmuni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari bolalarning psixologik xususiyatlariga asoslangan holda ta’lim-tarbiya jarayonini belgilab berishi yoritilgan bo‘lsada mazkur tadqiqot mavzusining ilmiy ahamiyatini ochishda foydalanish mumkin. O‘quv qo‘llanmada keltirilgan barcha mavzular bir-biriga mazmunan uzviy yoritilgan.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan,

jismonan sog‘lom, aqlan yetuk va ma’naviy barkamol qilib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Mana shu vazifalarni amalga oshirish maqsadida bir qator olim va tajribali amaliyotchilar ishtirokida 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari ishlab chiqildi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari bolalarning psixologik xususiyatlariga asoslangan holda ta’lim-tarbiya jarayonini belgilab beradi. Bugungi maktab o‘quvchisidan aniq bilimlargina emas, balki fikrlash ko‘nikmasi, kattalar va tengdosh o‘rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bola maktabga qadam qo‘yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashish ko‘nikmasi, voqea-hodisalarni mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi.

Bolani biror narsaga o‘rgatishgina emas, unda o‘z kuchiga ishonchni orttirish, o‘z g‘oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda “Men konsepsiyasi”ni shakllantirish ham muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta’lim tashkilotida yoki uyda maktab ta’limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo‘lishiga yordam beradi.

Bolaning maktabga tayyorgarligi undagi idrok, kuzatish, xotira, tafakkurning rivojlanishi, vaqt va fazoviy tushunchalar olami, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashri.

3. Babayeva D.R. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi”. Toshkent – 2018.

4. Imomov M.P. Maktabgacha ta’limni boshqarishning me’yoriy asoslari. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2024.

5. Imomov M, M.Raxmatova,Yu.Abdullayeva “Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi” T., 2023 O‘quv qo‘llanma. Fan va texnologiyalar.

6. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – T., 2018.

7. https://galitravel.ru;

8. https://uzbekistan.learningpassport.unicef.org/

Mashhura KODIROVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, ‘‘O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi’’ kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d.(PhD)

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI DARSLARINI QIZIQARLI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION USULLARI

Annotatsiya

Maqolada umumta’lim maktablarida folklorni o‘rganishning ahamiyati va uning ta’lim jarayonidagi ilmiy asoslari tahlil etilgan. Muallif folklor darslarini samarali tashkil etish uchun interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, ijodiy yondashuv va tadqiqot usullaridan foydalanish zarurligi asoslab bergan. Shuningdek, folklor ta’limining milliy madaniyatni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazishdagi o‘rni yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Ijodiy yondashuv, folklor ta’limining milliy madaniyati, xalq og‘zaki ijodi, asar, og‘zaki ijod, madaniy-hunarmandchilik an’analar.

В статье анализируется значение изучения фольклора в общеобразовательных школах и его научное обоснование в образовательном процессе. Автор обосновал необходимость использования интерактивных методов, информационных технологий, творческого подхода и методов исследования для эффективной организации уроков фольклора. Также освещается роль фольклорного воспитания в сохранении и передаче национальной культуры будущим поколениям.

Ключевые слова. Творческий подход, национальная культура фольклорного воспитания, устное народное творчество, творчество, устное творчество, культурно-ремесленные традиции.

The article analyzes the importance of studying folklore in secondary schools and its scientific foundations in the educational process. The author substantiated the need to use interactive methods, information technology, creative approach and research methods for the effective organization of folklore lessons. The role of folklore education in preserving and communicating national culture to future generations is also covered.

Keywords. Creative approach, national culture of folklore education, folk oral creativity, works, oral creativity, cultural and craft traditions.

Xalq og‘zaki ijodi qadimiy davrlardan boshlab avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan madaniy boylikdir. U xalqning turmush tarzi, tarixiy jarayonlar va axloqiy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Og‘zaki ijod orqali xalq o‘zining orzu-umidlari, qo‘rquvlari va hayot haqidagi qarashlarini ifoda etgan. Xalq og‘zaki ijodi har bir millatning madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘zida xalqning tarixiy tajribasi, hayot tarzi, urf-odatlari va axloqiy qadriyatlarini aks ettiradi. Umumta’lim maktablarida xalq og‘zaki ijodini o‘rganish nafaqat o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini boyitadi, balki ularning nutq madaniyati va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xalq og‘zaki ijodi turli janrlardan iborat bo‘lib, ular xalq tafakkuri va estetik didining mahsuli hisoblanadi. Ushbu janrlarning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi uzoq

tarixiy jarayon natijasida vujudga kelgan. Ular orasida ertaklar, dostonlar, maqollar, matallar, topishmoqlar, xalq qo‘shiqlari, afsona va rivoyatlar alohida o‘rin tutadi. Ushbu janrlarni maktab darsliklariga kiritish o‘quvchilarga milliy madaniyat va an’analarni o‘rgatish, ularning til boyligini oshirish hamda mustaqil fikrlashga o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ertaklar – odatda fantastik, afsonaviy yoki real voqealarga asoslangan bo‘lib, tarbiyaviy ahamiyatga ega;

Dostonlar – tarixiy va epik qahramonlik hikoyalari bo‘lib, xalq qahramonlarini madh etadi;

Maqollar va matallar – qisqa, mazmunli iboralar orqali xalq donoligini ifodalaydi;

Topishmoqlar – mantiqiy fikrlash va til boyligini oshirishga xizmat qiladi;

Afsonalar va rivoyatlar – tabiat, tarixiy shaxslar va hodisalar haqida yaratilgan xalq hikoyalari;

Xalq qo‘shiqlari – xalqning quvonch va qayg‘usini aks ettiruvchi musiqiy ijod namunalaridir.

Umumta’lim maktablarida folklorni o‘rganish nafaqat o‘quvchilarning adabiy-estetik didini shakllantiradi, balki ularning madaniy va axloqiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Folklor darslarini zamonaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi va milliy madaniyatni kelgusi avlodlarga yetkazish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Xalq og‘zaki ijodining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi o‘quvchilarning ona Vataniga bo‘lgan mehrini oshirish, ularning muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va ularni ijodiy fikrlashga undash uchun muhim vosita hisoblanadi. Ertaklar bolalarning tasavvurini kengaytirib, ularga yaxshilik va yomonlikni ajrata olishga yordam bersa, maqollar va topishmoqlar – o‘quvchilarning nutq boyligini oshiradi, ularga hayotiy tajriba va donishmandlikni o‘rgatadi. Doston va afsonalar tarixiy voqealarni anglash va milliy g‘ururni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xalq qo‘shiqlari esa madaniy merosni saqlash va musiqiy didni shakllantirishga asos bo‘ladi. Umumta’lim maktablarida xalq og‘zaki ijodini ilmiy asosda o‘qitish o‘quvchilarga nafaqat adabiy-estetik zavq bag‘ishlaydi, balki ularga xalq donishmandligi va madaniyatini chuqur anglash imkoniyatini ham beradi. Bu jarayonda quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslanish maqsadga muvofiq:

Kognitiv rivojlanish – og‘zaki ijod asarlarini tahlil qilish orqali o‘quvchilarning tafakkur doirasini kengaytirish.

Madaniy-hunarmandchilik an’analari bilan bog‘liqlik – xalq og‘zaki ijodi va xalq amaliy san’atining o‘zaro aloqadorligi.

Nutq madaniyati va ifodaviy tafakkur – ertak, maqol va dostonlarni o‘rganish orqali o‘quvchilarning til boyligini oshirish.

Xalq og‘zaki ijodini zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etishda interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Interfaol metodlar:

Rolli o‘yinlar – o‘quvchilar xalq ertaklari, dostonlari yoki afsonalaridan sahnalar tayyorlaydi va ijro etadi. Bu metod ular uchun jonli taassurot hosil qiladi.

Guruhli muhokamalar – maqol va matallarning ma’nosi, ularning hayotiy ahamiyati muhokama qilinadi.

2. Axborot texnologiyalaridan foydalanish:

Audiovizual materiallar – ertak va dostonlarning audio kitoblarini tinglash yoki multfilmlarini ko‘rish orqali bolalar yanada qiziqish uyg‘otadi.

Raqamli platformalar – xalq og‘zaki ijodiga oid interaktiv testlar va viktorinalar orqali ta’lim berish.

3. Tadqiqot va izlanish metodlari:

O‘quvchilar tadqiqoti – o‘quvchilar oilalaridagi, mahallalaridagi qadimiy ertak va afsonalarni o‘rganib, sinf oldida taqdimot qilishadi.

Folklor ekspeditsiyalari – mahalliy kattalar, qariyalar bilan suhbat o‘tkazish orqali jonli folklor namunalarini yig‘ish.

4. Ijodiy metodlar:

Folklor asosida hikoya yozish – o‘quvchilarga ertak yoki doston yozdirish orqali ularning ijodkorligi rivojlantiriladi.

Rasm va qo‘g‘irchoq teatri – ertak qahramonlarining tasvirini chizish yoki ularni qo‘g‘irchoq teatri orqali jonlantirish.

5. O‘yinli metodlar:

Topishmoq va maqol tanlovlari – o‘quvchilar jamoalarda bellashib, xalq topishmoqlari va maqollarini aniqlaydi yoki ularni turli vaziyatlarga moslashtirib tushuntiradi.

Juftlik o‘yini – bir o‘quvchi maqolning bir qismini aytadi, boshqa o‘quvchi uni to‘ldiradi.

Umumta’lim maktablarida folklor janrlarini turli innovatsion, kreativ yondashuvlar asosida o‘rganish va uni ta’lim jarayoniga tatbiq etish o‘quvchilarning milliy o‘zligini mustahkamlash, estetik va axloqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish va xalq og‘zaki ijodining ilmiy-metodik asoslarini yanada chuqur o‘rganish kelajak avlodning madaniy va intellektual salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og‘zaki ijodini umumta’lim maktablarida o‘rganish o‘quvchilarning milliy o‘zligini anglashiga, ularning madaniy va axloqiy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, bu darslar o‘quvchilarning nutqiy, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday ekan, xalq og‘zaki ijodini o‘qitish metodlarini yanada takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands. https://staff.tiiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf

2. Kadirova M.N. Improvement Of Students’ Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410

3. Kadirova M.H. "The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan, https://inlibrary.uz/index.php/crjps/article/view/17610

4. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. - T., 2009.

5. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. - T.: O‘qituvchi, 1990.

6. Mirzayeva S. O‘zbek realistik adabiyotida folklor an’analari. Folklorshunoslikdan o‘quv-uslubiy qo‘llanma.-T.: Istiqlol, 2005.

Feruza BURXONOVA,
TDPU “O‘zbek tili va adabiyoti” fakulteti dekani
Marjona IKROMALIYEVA,
TDPU “O‘zbek tili va adabiyoti” fakulteti talabasi

O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” ASARIDA ONA TIMSOLI

Annotatsiya

Maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridagi ona timsoli tahlil qilingan. Shuningdek, muallif asardagi ona obrazi misli ko‘rilmagan samimiyat va haqiqat bilan tasvirlab bergan.

Tayanch so‘zlar. Ona timsoli, badiiy estetik zavq, doston, real hayot, yurakni o‘yga toldiruvchi, mutolaa qilish, hikoya.

В статье анализируется образ матери в произведении Уткира Хашимова “дела мира”. Также автор с небывалой искренностью и правдивостью изобразил образ матери в произведении.

Ключевые слова. Материнское воплощение, художественное эстетическое наслаждение, эпос, реальная жизнь, наполняющая сердце мыслью, чтение, рассказ.

The article analyzes the mother figure in the work of the acute Hoshimov “the affairs of the world”. Also, the author described the image of the mother in the work with unprecedented sincerity and truth.

Key words. The embodiment of the mother, artistic aesthetic pleasure, epic, real life, heart-absorbing, reading, story.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asari nafaqat inson hayotining murakkab haqiqatlarini, balki ona mehri va fidoiyligini chuqur tasvirlaydigan asarlardan biridir. Adib o‘ziga xos hayotiy uslubda insoniy taqdirlar, oilaviy munosabatlar va onalikning buyukligiga chuqur nigoh tashlaydi. Ushbu asar bizga onalarimizning har bir nafasini qadrlashni, ularning hayotimizdagi beqiyos o‘rni haqida teran tafakkur qilishga undaydi. Bu asarda ona timsoli hayotning oily ne’mati, insoniyatning eng buyuk mehr-muhabbati mujassam bo‘lgan qal’adek ta’rif berilgan. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asari nafaqat ona mehrini madh etuvchi hikoya, balki, hayotning achchiq haqiqatlariga ko‘z ochtiruvchi badiiy haqiqatdir.

Yozuvchi bizni ona qalbining tubsiz chuqurliklariga nazar tashlashga, uning dard-u hasratini his qilishga undaydi. Asar qahramoni bo‘lmish ona – umrining eng og‘ir sinovlarini yurak bag‘riga yutib, hayotning g‘am-g‘ussalariga qaramay, farzandi uchun tiriklik umidini saqlab qolgan muqaddas siymo. Uning dardini ko‘rib, yuragimiz eziladi, ammo aynan shu dard ichida ham cheksiz mehr-muhabbat va fidoiylik yotibdi. O‘tkir Hoshimovning tasvirlari sodda, ammo yurakni o‘yga toldiruvchi darajada ta’sirchan ekanligini mutolaa qilish mobaynida tushunib yetamiz. Asar bizga taqdir shafqatsiz bo‘lsa ham ona mehri har qanday g‘am-g‘ussani yengib o‘tishga qodir ekanini ko‘rsatadi. U bizni chuqur mushohadaga undaydi: biz onamizga mehr ko‘rsatishga

ulgurdikmi? Kun kelib, bizni shunday savollar qurshab olmasligi uchun ona qadrini hozir, shu lahzada anglashimiz lozim. “Dunyoning ishlari” – bu oddiy hayotiy hikoya emas, balki, yuraklarga yetib boruvchi mungli nola. U o‘quvchiga badiiy estetik zavq hadya etish bilan birga, onalar mehrining cheksizligini yurak titrog‘i bilan his qilishga majburlaydi. “Dunyoning ishlari” asaridagi “Xiyonat” hikoyasini olaylik. Bu hikoyada ona farzandini faqat halollikka, insonlarga yaxshilik qilishga, yomonliklardan qaytishga undaydi. Hayotimiz davomida ko‘plab insonlar bilan yuzlashamiz. Ularning qaysilaridir yaqin do‘stimiz, yana qaysidiri sevgan insonimiz. Ammo oradan vaqtlar o‘tgani sayin, har bir insondan xiyonat ta’mini totishimiz mumkin ekan. Hikoyada esa onalar farzand uchun eng yaqin zot sifatida tasvirlanib, undan hech qachon xiyonat ko‘rmaslik ta’kidlangan. Adib ushbu hikoyaning so‘nggida: “Onang-chi, onang hech qachon xiyonat qildimi senga?! “– degan ta’sirli so‘zlari bilan o‘quvchini chuqur mulohaza qilishga chorlaydi. Guvohi bo‘lganimizdek, bu asar qalblarning tub-tubidan o‘rin olgan nodir asarlar sirasidandir. Buni o‘qib hajv yo‘nalishida sermahsul ijod qilgan adib Said Ahmad: “Dunyoning ishlari” qissasini qissa emas, doston deb atashni istardim. U dostondek o‘qiladi. Uni o‘qib turib, o‘z onalarimizni o‘ylab ketamiz” – deya ta’rif bergan. Aslida ham bu asar shunday emasmi?.

Yoki bo‘lmasam, “Oq oydin kechalar” hikoyasini olsak, bu hikoyadagi ona har bir insonni qadrlaydigan, uning uchun qayg‘uradigan timsoldir. Voqealar davomida uning tanigan va tanimagan insonlarga birdek mehribonlik qilishi bunga dalil. Ayniqsa, osmonda uchgan yulduzga qarab, bir bechoraning joni uzildi deya hayotda umuman bilmagan insoniga joni achishi undagi insoniy fazilatning yana bir ko‘rinishidir. Bunda ijodkor o‘zbek onasining umumiy xarakter xususiyatlarini bir ona obrazida jamlagan. Bu asarni o‘qigan har bir inson ko‘ziga yosh undiradi. Qaysidir hikoyalari inson yuziga tabassum yugurtirsa, yana qaysilaridir bizni o‘yga botiradi.

“Iltijo” – qissaning eng so‘nggi hikoyasi. Adib ushbu asarda o‘z hayotidagi muhim voqeani yodga oladi. Oxirgi parchada yozuvchi onasi hayotligida qancha asar yozgan bo‘lsa ham onasiga atab bir asarini bag‘ishlamaganligiga afsuslanadi. Ushbu parchadagi eng ta’sirli jumla: “Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o‘g‘lim“ – degan so‘zlari bo‘ladi. “Dunyoning ishlari“ asarida ona mehrining ilohiy qudrati yurakni larzaga keltiruvchi pafos bilan tasvirlanib, insoniy taqdirlarning achchiq haqiqatlari, hayotning shafqatsiz burilishlari, onalik sadoqatining mangu charog‘bondek so‘nmas va porloq ekanligi badiiy estetik zavq bag‘ishlovchi betakror obraz orqali ifodalangan. Ona -– hayot sinovlari qarshisida egilmas tog‘, umrning har bir burilishida farzandini qanoti ostida asragan mukarram siymodir. Ona yuragi – beg‘ubor daryo singari, u bolasi uchun hech qanday mukofot kutmasdan mehr ulashadi. Hoshimov o‘z asarida onalar taqdirini shunchaki tasvirlabgina qolmay, ularning yurak iztiroblarini, ko‘z yoshlarini, ichki dardini o‘quvchi qalbiga singdirib bera olgan. Uning qahramonlari real hayotdan olingan, ularning har bir so‘zi va harakati bizga tanish va yaqin.

Asardagi ona obrazi misli ko‘rilmagan samimiyat va haqiqat bilan tasvirlangan. U fidoiylik, sadoqat va beg‘ubor sevgi timsoli. Asarning har bir sahifasi ona mehrining cheksizligini lekin ba’zan bu mehrning qadriga yetmaydigan farzandlarning borligini yurakni ezuvchi tasvirlar orqali ifodalaydi. Dunyo ishlarining barchasi o‘tkinchi, lekin ona mehri – mangu! O‘tkir Hoshimov esa mana shu mehrni so‘z bilan abadiylashtirgan buyuk yozuvchilardan biridir! U shunchaki yozuvchi emas, balki hayotning nozik sir – asrorlarini anglab yetgan donishmand insondir. Asarning eng ta’sirli jihati shundaki,u o‘quvchini yurakdan o‘rtaydi, o‘z onasi haqida chuqurroq o‘ylashga majbur qiladi, unga

mehr berishga undaydi. Biroq ba’zan insonlar hayotning g‘am-tashvishlariga berilib, onalar mehri qanchalik ulug‘ligini unutib qo‘yishadi. Asar ana shu kechikkan anglash ustida qurilgan – biz ba’zan sevgan insonlarimiz yonimizda bo‘lganida ularning qadriga yetmaymiz, faqat yo‘qotganimizda esa ularning naqadar bebaho ekanini tushunamiz.

Xulosa qilib aytganda, “Dunyoning ishlari” asari bizga onalik mehrining beqiyosligini, uning fidoiyligini va sabrning cheksizligini yana bir bor his qildiradi. Ammo asarning pafosli ruhda aks etgan achchiq haqiqat shuni ko‘rsatadiki, ona-inson hayotining eng muqaddas hodisasi bo‘lib, uning borligi baxt, yo‘qligi esa bitmas-tuganmas armondir. Qisqa qilib aytganda, ona berilgan ne’matlarning eng afazalidir. Uning duosi farzand uchun eng katta baxt, himoya va najotdir. O‘tkir Hoshimov ona qalbidagi cheksiz muhabbatni tasvirlar ekan, inson qanchalik ulg‘aymasin ona mehri va duosidan ayrilmasligi lozimligini eslatadi. Hayot o‘tkinchi, vaqt esa shafqatsiz. Onaning mehri esa mangu, qalbidagi nur so‘nmas. Ushbu asar har bir kishini chuqur o‘yga toldirib,ona qadrini vaqtida anglashga, unga mehr-e’tibor ko‘rsatishga undaydi. Zero, onaning roziligi bu dunyodagi eng ulug‘ saodatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Said A. Ijod va jasorat. / Hoshimov O‘. Tanlangan asarlar.1-jild. Toshkent: Sharq, 2009.-B. 10

2. Hoshimov O‘. Tanlangan asarlar. 2-jild.- T oshkent: SHarq, 2009. – B.5.3. Atajonova A. O‘tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari qissasida ayol va zamon qiyofasi /Central Asian Academic journal of scientific research, 2022.

4. Karimov. I.A. Vatan va xalq mangu qoladi. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.- B. 136

5. Hoshimov O‘. Yarim asr daftari.- Toshkent, 2004.

Zahrooy TOHIROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti
Marjona XOLMANOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 4-bosqich talabasi

NOSTANDART TESTLAR ASOSIDA TALABALARDA KOGNITIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: ISPRING DASTURI MISOLIDA

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak matematika o‘qituvchilarida kognitiv kompetensiyani rivojlantirish ispring dasturidagi nostandart testlar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, misollar asosida har bir test savoling qanday kompetensiyani rivojlantirishi tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Pedagogik texnologiyalar, kognitiv kompetensiya, standart test, nostandart testlar, Ispring, matematika, tanqidiy fikrlash, kompleks.

В данной статье раскрываются подходы к развитию когнитивной компетентности у будущих учителей математики на основе нестандартных тестов, разработанных в программе İspiring. На примерах рассмотрено, какие именно когнитивные компетенции формируются при выполнении каждого задания.

Ключевые слова. педагогические технологии, когнитивная компетентность, стандартные тесты, нестандартные тесты, İspiring, математика, критическое мышление, комплексный подход.

This article explores methods for developing cognitive competence in future mathematics teachers through non-standard tests designed in the İspiring program. Based on specific examples, the article analyzes which cognitive competencies are formed by each task.

Key words. Pedagogical technologies, cognitive competence, standard tests, non-standard tests, İspiring, mathematics, critical thinking, complex approach.

Zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanish bosqichida pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni keng qo‘llash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aniq fanlar, xususan matematika fanini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlash, balki kreativ va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu jarayonda nostandart testlardan foydalanish texnologiyasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u an’anaviy baholash shakllaridan sifat jihatdan farqlanadi va talabalarning ijodiy fikrlash hamda amaliy bilimlarni integratsiyalash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgandir.

Nostandart testlarning asosiy mohiyati, avvalo, talabalarni faqat bilimlarni qayta eslash yoki oddiy tanlash orqali emas, balki chuqur tahlil qilishga, ijodiy va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish bilan bog‘liq. Ushbu testlarning asosiy vazifasi talabalarning fikrlash doirasini kengaytirish, nazariy bilimlarni amaliy hayot bilan bog‘lash hamda kompleks muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Nostandart testlar orqali o‘quvchilarda mavjud bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, muammoli

vaziyatlarda mustaqil yechimlarni topish va qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Nostandart testlarning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Muammoni nostandart shaklda qo‘yish orqali talabalarni ijodiy va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish;

Savollar orqali talabalarda ijodiy faoliyatga intilishning shakllanishi;

Savollarning real hayot bilan bog‘lanishi va fanlararo integratsiyani talab etishi;

Nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarga tatbiq qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari.

Nostandart testlardan foydalanish texnologiyasining samaradorligi ko‘p jihatdan testlarning tuzilishi, qo‘llanilish uslubiyati va pedagogik-psixologik asoslariga bog‘liqdir. Ushbu texnologiyani amaliyotga joriy qilish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Nostandart testlarni ishlab chiqish uchun metodik asoslarni belgilash. Bunda fan modulining mazmuni, pedagogik va psixologik tamoyillar hisobga olinishi zarur.

2. Har bir fan moduli uchun nostandart test savollarini tuzish. Savollar talabalarning ijodiy va analitik fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi shart.

3. Pedagog va talabalar uchun maxsus trening va seminarlarni tashkil qilish orqali nostandart testlardan foydalanishga tayyorgarlik ko‘rish.


4. Nostandart testlar orqali talabalarning bilimlarini baholash mezonlarini ishlab chiqish. Baholash talabalar bilish va ijodiy faoliyatini kompleks tahlil qilish asosida amalga oshirilishi lozim.

Ushbu texnologiyani qo‘llash orqali talabalar an’anaviy testlardan farqli ravishda bilimlarni chuqurroq anglashga, mustaqil yechimlarni izlashga va fikrlarini asoslashga o‘rganadilar. Nostandart testlardan foydalanish orqali talabalar bilimlarni shunchaki o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki amaliyot bilan integratsiya qilish orqali o‘zlarining ijodiy va analitik kompetensiyalarini ham rivojlantiradilar. Shuningdek, talabalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish va qaror qabul qilish ko‘nikmalari ham shakllanadi.

Nostandart testlardan foydalanishda pedagogik qiyinchiliklar ham yuzaga kelishi mumkinligini alohida ta’kidlash zarur. Bu qiyinchiliklar, odatda, talabalar tomonidan nostandart fikrlash usulini qiyinchilik bilan o‘zlashtirishdan kelib chiqadi. Bunday holatlarda, qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun topshiriqlar bosqichma-bosqich murakkablashib borishi va talabalar sekin-asta ijodiy yechimlarga ko‘nikishlari kerak.

Quyida talabalarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirishni Ispring dasturida tuzilgan nostandart testlar asosida ko‘rib chiqamiz:

Test 1:



To‘g‘ri javob: x- 3 ga karrali son bo‘lishi kerak

Tahlil: Bu savol orqali talabadan algebraik ifodani tahlil qilish, natural sonlar xossasini tushunish va x ni topishda mantiqiy fikrlash talab qilinadi. Bu – analitik fikrlash kompetensiyasini rivojlantiradi.

Test 2:

Quyida ketma-ketlik keltirilgan
3-3=0
3-2=1
3-1=2
3-0=3
Bu ketma-ketlikda keyingi qator qanday bo'lishi kerak?

Bu test quyidagi javoblarni to‘g‘ri deb qabul qiladi:
3-(-1)=4
3+1=4

Tahlil: Bu savol ketma-ketlikdagi qonuniyatni aniqlash orqali tanqidiy va mantiqiy fikrlashni faollashtiradi.

Test 3:


Quyida uzunlikka sakrash bo‘yicha musobaqa natijalari berilgan:
O‘rtacha uzunlikka sakrash:
A jamoa 3,6 m
B jamoa 4,8 m
Har bir jamoadagi o‘quvchilar soni teng. Musobaqa haqidagi qaysi tasdiqlar noto‘g‘ri?

- [ ] **a)** B jamoadagi har bir o‘quvchi A jamoadagi har qaysi o‘quvchidan uzoqroq sakragan
- [ ] **b)** A jamoasidan sakrab chiqqan har bir o‘quvchidan keyin B jamoasidan uzoqroq sakragan o‘quvchi bo‘lgan
- [ ] **c)**B jamoa A jamoagaga nisbatan uzoqroqqa sakrashgan.
- [ ] **d)**A jamoaning ba’zi o‘quvchilari B jamoaning ba’zi o‘quvchilaridan uzoqroqqa sakrashgan

Tahlil: Grafik, sonli ma’lumotlar asosida xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu – qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmasiga xizmat qiladi.

Test 4:

Ushbu kombinatsiyada x ning qiymatini toping.



Bu test 24 degan javobni to‘g‘ri deb qabul qiladi.

Tahlil:Ushbu test kognitiv kompetensiyaning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va murakkab muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Buni quyidagi asoslarda ko‘rish mumkin:

1. Munosabatlarni aniqlash qobiliyati:Talaba yuqoridan pastga qarab raqamlar orasidagi bog‘liqlikni topishi kerak. Masalan, har bir kvadrat quyidagi qatorlarda


joylashgan ikkita sonning yig‘indisidan hosil bo‘lganligini aniqlaydi. Bu mantiqiy bog‘liqlikni aniqlash orqali talaba strukturani tushunish va o‘rganilgan bilimni yangi vaziyatda qo‘llash kabi kognitiv jihatlarini ishga soladi.

2. Muammoli vaziyatni yechish:Bu test noan’anaviy ko‘rinishga ega bo‘lib, oddiy arifmetikadan ko‘ra ko‘proq mantiqiy tahlil va fikrlash bosqichlarini talab qiladi. Talaba birdaniga natijani emas, bosqichma-bosqich yechimni aniqlashi lozim.

3. Tanqidiy fikrlash:Talaba bir nechta yechim variantlarini o‘ylab ko‘radi, noto‘g‘ri yo‘llarni chiqarib tashlaydi va eng asosli, mantiqiy javobni topadi. Bu esa tanqidiy fikrlashni shakllantiradi.

Bu test talabaning analitik va tanqidiy fikrlash, mantiqiy bog‘lanishlarni tushunish va murakkab vaziyatni hal qilish kompetensiyalari faol rivojlanadi. Bu esa kognitiv kompetensiyaning asosi hisoblanadi.

Test 5:



Kognitiv kompetensiya: Talaba yoki o‘quvchi o‘nli kasrlar bilan amallarni bajarish bo‘yicha nazariy bilimlarini real misollar orqali mustahkamlaydi, misollarni tahlil qilib, qaysi amal birinchi bajarilishi kerakligini aniqlaydi

Matematik kompetensiya: O‘quvchi berilgan ifodalarni tahlil qilib, to‘g‘ri ketma-ketlikda amallarni bajarishni o‘rganadi.Matematik vositalardan foydalanish: Kalkulyatorsiz yechish orqali hisoblash malakalari rivojlanadi.O‘nli kasrlar bo‘yicha malaka: O‘nli kasrlar bilan ishlash ko‘nikmalari (ayirish, ko‘paytirish, qo‘shish) mustahkamlanadi.

Axborotni qayta ishlash kompetensiyasi: O‘quvchi berilgan misollarni va natijalarni moslashtirish orqali o‘zaro bog‘liqlikni aniqlaydi. Misollarni qismlarga ajratib, har bir amaldan keyingi natijani bosqichma-bosqich hisoblaydi.

Ushbu test matematik fikrlashni chuqurlashtirish, analitik yondashuvni rivojlantirish, va kognitiv kompetensiyalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘rta maktab va kasb-hunar kolleji bosqichida matematika fanini o‘zlashtirish darajasini oshirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sultonov X.Yu. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan, 2021. – 208 b.

2. Karimov A.A. Matematika o‘qitish metodikasi va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 196 b.

3. Tursunov B.N. Zamonaviy baholash metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2021. – 212 b.

4. Rahimova G.X. Pedagogik psixologiya asoslari. – T.: Universitet, 2019. – 182 b.

5. Ibragimov M.I., Saidaxmedova M.X. Pedagogik diagnostika va baholash metodlari. – T.: Sharq, 2020. – 224 b.

Fayoza DAMINOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BIOLOGIYA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABADA KOGNITIV KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada kognitiv kompetentsiya tushunchasining mohiyati, oliy ta’lim jarayonida talabalarning kognitiv kompetentsiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlari, zarur omillari va ahamiyatli jihatlari ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Shakllanish va rivojlanish, talabalar, kognitiv kompetensiya, kompetensiya, idrok.

В статье раскрывается сущность понятия когнитивной компетенции, педагогические условия, необходимые факторы и значимые аспекты развития когнитивных компетенций студентов в процессе высшего образования.

Ключевые слова. Становление и развитие, учащиеся, познавательная компетентность, компетентность, восприятие.

The article reveals the essence of the concept of cognitive competence, pedagogical prerequisites, necessary factors and essential aspects of the development of cognitive competencies of students in the process of higher education.

Key word. Formation and development, students, cognitive competence, competence, perception.

Yuqori raqobat, ishlab chiqarishda yuqori texnologiyalardan foydalanish zarurati mustaqil fikrlaydigan, tahlil qila oladigan, muvaffaqiyatli tanlov qila oladigan, tez o‘zgaruvchan yashash sharoitlariga moslashuvchan mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqardi. Zamonaviy yoshlarni mustaqil maqsadlarni belgilashga, shaxsiy va kasbiy vazifalarni mustaqil ravishda belgilash va hal qilishga, tanqidiy qarorlar qabul qilishga, samarali shaxslararo muloqotga, juda katta miqdordagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish va qayta ishlashga, o‘ta noaniq vaziyatlarda ishlashga tayyorlash zarur. Aynan shu narsa ta’lim paradigmalarining o‘zgarishini va bilim paradigmasidan kompetentsiyaga asoslangan paradigmaga faol o‘tishni belgilaydi. Ushbu yondashuv ta’lim sohasi oldiga aynan shu talablarga asoslangan o‘quv faoliyatini tashkil etish vazifasini qo‘yadi. Shu sababli, hozirgi bosqichda ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatining rolini oshirish, shaxsning kasbiy rivojlanish tizimini uning ehtiyojlari, motivlari, qobiliyatlariga muvofiq yangilashdir. Xususan, Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Individual ta’lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta’lim dasturlarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish” kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish bilan bir qatorda, ularda turli kompetensiyalarni rivojlantirish vazifasini qo‘ymoqda.

Shu sababli talabalarning kognitiv kompetentsiyalarini rivojlantirish muammosi hozirgi kunda alohida ahamiyatga ega.

Kognitiv kompetentsiya shaxsiy kompetentsiyasining asosiy turlaridan biridir, shuning uchun zamonaviy sharoitda har bir mutaxassis uni o‘zlashtirishi kerak. Bu boshqa kompetentsiya turlarining tarkibiy qismi, uzluksiz ta’limning shaxsiy asosi sifatida qaralishi mumkin.

Zamonaviy ta’lim sharoitida ta’limning eng muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishdir. Hozirgi kunda ta’limning maqsadi faqat bilim olish va to‘plash jarayoni emas, balki faoliyatni o‘zlashtirish, ya’ni, bilimlardan amaliy foydalanish ko‘nikmalarini amalga oshirishdir. Kompetensiya turli vaziyatlarda bilim va ko‘nikma elementlarini qo‘llashni qobiliyatini ifodalaydi. Bu yondashuv nafaqat ta’limning amaliy, kasbiy yo‘nalishini mustahkamlaydi, balki bo‘lajak mutaxassisning rivojlanish darajasiga nisbatan yuqori talablarni qo‘yadi. Bo‘lajak mutaxassislarning intellektual va kognitiv rivojlanishi hozirgi kunda oliy ta’limning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Buning sababi shundaki, birinchidan, iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri intellektual mahsulot, mulkchilikning asosiy shakli esa intellektual va kognitiv komponent hisoblanadi. Aynan shaxsning aql-zakovati va bilimi, uning malakasi ishlab chiqarish va ilm-fan rivojini, davlatning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rnini ko‘p jihatdan belgilaydi. Ikkinchidan, intellektual ijodkorlik va kognitiv mahsuldorlik jamiyat taraqqiyotidagi regressiv yo‘nalishlarga qarshi turadigan ijtimoiy mexanizm sifatida harakat qiladi: intellektual va ijodiy rivojlangan odamlar qanchalik kam bo‘lsa, jamiyatdagi buzg‘unchilik tendensiyalari shunchalik namoyon bo‘ladi. Uchinchidan, aqliy mehnat insonning shaxsiy erkinligi va shaxsiy taqdirining o‘zini o‘zi ta’minlash kafolatidir. Inson sodir bo‘layotgan voqealarni tahlil qilish va baholashda o‘z aql-zakovatidan qanchalik ko‘p foydalansa, uni tashqaridan manipulyatsiya qilish imkoni shunchalik kam bo‘ladi. Ilmiy terminologiyaga “kognitiv kompetentsiyalar” tushunchasining kiritilishi ularning xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarini tizimlashtirishga, ularni oliy ta’lim tizimida shakllantirish va rivojlantirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqishga va ta’lim dasturlarini loyihalashda talabalarning intellektual rivojlanishiga e’tiborni o‘zgartirishga imkon beradi. Kognitiv kompetensiyalar – bu ma’lum bir maqsadga erishish uchun, odatda, muammo yoki vazifalarni hal qilish uchun ma’lumotni qayta ishlash bilan bog‘liq kognitiv faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladigan kompetensiyalar. Ular idrok, xotira, fikrlash va tasavvurning kognitiv jarayonlarini, shuningdek, axborotni qayta ishlash va tushunish, muammo va vazifalarni hal qilish, yechim natijalarini uzatish jarayonlarini amalga oshirish imkoniyatini tavsiflashi kerak. Kognitiv kompetentsiyalar idrok etish, fikrlash, shuningdek, ma’lumotlarni qayta ishlash va tushunish jarayonlarini, muammolar va vazifalarni hal qilish jarayonlarini, qaror natijalarini uzatish jarayonlarini amalga oshirish imkoniyatini tavsiflaydi. Kognitiv kompetentsiyalar deganda biz quyidagi xatti - harakatlarning zarur standartlariga rioya qilish imkoniyatini tushunamiz: 1) axborotni idrok etish va saqlash; 2) maqsadni belgilash va unga erishish yo‘llarini rejalashtirish; 3) muammolar va ularni hal qilishda ma’lumotlarni tushunish va qayta ishlash; 4) qabul qilingan qaror natijalarini uzatish. Kognitiv kompetentsiyalar strukturasi, tavsifi:

Axborotni idrok etish va saqlash:

1. Idrok qila oladi. 2.Vaziyatning turli jihatlarini yodda tutadi, biridan boshqasiga erkin o‘tadi. 3. Idrok qilingan yaxlitlikni qismlarga ajratadi. 4. Yaxlitlikning qismlarini taqqoslaydi. 5. Qabul qilingan axborotni takrorlay oladi va uni boshqa shaklga aylantira oladi. 6. Qabul qilingan axborotni tasniflaydi, tizimlashtiradi, umumlashtiradi. 7.

Ma’lumotni yodlash va saqlash strategiyalariga ega.

Umumiy va kasbiy bilimlar: xotira, matnlar bilan ishlash ko‘nikmasi; ravon og‘zaki va yozma nutq; kognitiv operatsiyalarni (ma’lumotni qayta ishlash) tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, mavhumlashtirish, konkretlashtirish, umumlashtirish, tizimlashtirish va tasniflash.

Maqsadni belgilash va unga erishish yo‘llarini rejalashtirish:

1. Qarama-qarshiliklarni birlashtirib, dolzarb muammo haqida aniq tasavvur hosil qila oladi. 2. Muammoning asosiy belgilarini ajratib ko‘rsata oladi. 3. Kattalashtirilgan yechim sxemalarini ko‘radi. 4. Natijaga erishish variantlarini biladi va ishlab chiqadi va ularni “ongda” taqdim eta oladi. 5. Muammoni hal qilish uchun mavjud resurslarni real baholay oladi. 6. Maqsadga erishish uchun aniq taqdim etilgan texnologiya doirasida o‘z xatti-harakatlarini rejalashtiradi. Umumiy va kasbiy bilimlar; amaliy tajriba; gipotezalarni yaratish va sinab ko‘rish qobiliyati; kognitiv operatsiyalarni tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, mavhumlashtirish, konkretlashtirish, umumlashtirish, tizimlashtirish va tasniflash.

Muammolar va ularni hal qilishda ma’lumotlarni tushunish va qayta ishlash:

1. Mavjud bilimlarga asoslanib tushunchalar va tasvirlarning assotsiatsiyalangan komplekslarini yaratadi. 2. Modellarni yaratadi, modellarning tarkibiy qismlari o‘rtasida sabab-oqibat va funksional aloqalarni shakllantiradi. 3. Farazlarni ilgari suradi va sinovdan o‘tkazadi. 4. Tanish bo‘lgan yechim variantlarini taqdim etadi. 5. Tayyor yechimlardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qiladi, shablonlardan qochishga tayyorligini ko‘rsatadi. 6. Og‘zaki va yozma ma’lumotlarga asoslanib xulosalar chiqaradi. 7. Olingan natijalarni tekshirish strategiyalariga ega. Umumiy va kasbiy bilimlar; matnlar bilan ishlash ko‘nikmalari, og‘zaki va yozma shakllarda taqdim etilgan ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmalari; fikrlash madaniyati; kognitiv operatsiyalarni tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, mavhumlashtirish, konkretlashtirish, umumlashtirish, tizimlashtirish va tasniflash.

Qaror natijalarini uzatish:

1. Og‘zaki va yozma nutqni mantiqiy, asosli va aniq qura oladi. 2. Javobni puxta tayyorlaydi va uzatadi, to‘g‘riligiga ishonch hosil qiladi. 3. Qaror natijasining qiymatini turli pozitsiyalarda baholaydi. 4. Natijani oldindan taxmin qila oladi. 5. Bashorat qilingan xatti-harakatlarni namoyish etadi. Umumiy va kasbiy bilimlar, og‘zaki va yozma shakllarda taqdim etilgan ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmalari; ravon og‘zaki va yozma nutq, fikrlash madaniyati va kognitiv operatsiyalarni tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, mavhumlashtirish, konkretlashtirish, umumlashtirish, tizimlashtirish va tasniflash. Ushbu kognitiv kompetentsiyalar strukturasini malakali kasbiy faoliyatni sifatli bajarish uchun zarur bo‘lgan standart, etalon sifatida hamda oliy ta’lim tizimida kompetentsiyalar va xulq-atvor ko‘rsatkichlari to‘plami sifatida ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”.

2. Гуленкова М.А. Тестовые задания для проверки знаний учащихся по ботанике. - М.: ТЦ “Сфера” – 1999.

3. Биология: Справ. Материалы. Учеб. Пособие для учащихся / Д.И. Трайтак, Н.И. Клинковская, В.А.Карьенов, С.И. Балуев; Под ред. Д.И.Трайтака. – М.: Просвещение, 1983.

4. Сухова Т.С. Тесты по биологии.6-11 кл.: Учебно-метод. пособие.-М.: Дрофа,2000.

Xolida HAMROYEVA,
Qarshi davlat universiteti, tayanch doktorant

ASSOTSIATIV TAFAKKUR ASOSIDA NUTQIY MULOQOTNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada assotsiatsiya va uning mazmun mohiyati, turlari, tafakkur, tafakkurning mazmun-mohiyati, turlari va xususiyatlari assotsiatsiya va tafakkurning bog‘liqlik jihatlari assotsiativ tafakkur asosida nutqiy muloqotni rivojlantirish to‘g‘risida fikr va mulohazalar berilgan.

Tayanch so‘zlar. Assotsiatsiya, tafakkur, sezgi, idrok, xotirani rivojlantirish, obrazlar va tasavvurlar.

В данной статье изложены мысли и мнения об ассоциации, ее сущности, видах, мышлении, сущности мышления, видах и особенностях ассоциации и связанных с ней аспектах мышления, о развитии речевого общения на основе ассоциативного мышления.

Ключевые слова. Развитие ассоциации, мышления, ощущения, восприятия, памяти, образов и представлений.

In this article, thoughts and opinions are given about association, its essence, types, thinking, the essence of thinking, types and characteristics of association and related aspects of thinking, on the development of speech communication based on associative thinking.

Key words. Development of associations, thinking, sensation, perception, memory, images and representations.

Assotsiatsiya (lotincha associo – birlashish, qo‘shish) – umumiy maqsadga erishish uchun tuzilgan uyushma, ittifoq. Assotsiatsiya (psixologiyada) – muayyan sharoitda psixologik hosilalar orasida paydo bo‘ladigan aloqa. Assotsiatsiya inson ongidagi avvalgi turmush tajribalari bilan belgilanadigan tasavvurlar bog‘lanishi, shu bog‘lanishlar tufayli ongda paydo bo‘lgan muayyan tasavvurlar o‘xshashlik, yondoshlik va qarama-qarshilik belgilariga ko‘ra, shunga bog‘liq bo‘lgan boshqa tasavvurlarni hosil qiladi. Assotsiatsiya o‘tmish tajribasi asosida paydo bo‘lib, narsa va voqealarning obyektiv aloqalarini aks ettiradi. Bir ruhiy jarayonning namoyon bo‘lishi. Assotsiatsiya tufayli ikkinchi (avvalgisi bilan bog‘liq bo‘lgan) ruhiy jarayonni vujudga keltiradi. Asosan uch xil assotsiatsiya mavjud:

– Qarama-qarshilik assotsiatsiyasi – avval idrok qilingan qarama-qarshi sifatlarga ega bo‘lgan narsa va hodisalarning birortasini takror idrok qilish yoki tasavvur qilish munosabati bilan boshqalari obrazlarining ixtiyorsiz ravishda ongda gavdalanishidan iborat qonuniyat. Masalan, “urush” so‘zi idrok qilinsa, beixtiyor “tinchlik” eslanadi.

– Yondoshlik assotsiatsiyasi – avval bir vaqtda yoki ketma-ket idrok qilingan narsa va hodisalarning birontasini qayta idrok qilish yoki tasavvur munosabati bilan ixtiyorsiz ravishda ongda boshqalarining ham obrazlari gavdalanishidan iborat qonuniyat. Masalan, “vokzal” so‘zi idrok yokil tasavvur qilinsa, temir yo‘l, vagon, yo‘lovchilar ham esga tushadi.

– O‘xshashlik assotsiatsiyasi – bir-biriga o‘xshash belgilarga ega bo‘lgan narsa va birortasini idrok yoki tasavvur qilish munosabati bilan ongda boshqalarining ham

obrazlari ixtiyorsiz ravishda tiklanishidan iborat qonuniyat. Masalan, Hasan va Husanning biri idrok qilinsa, ixtiyorsiz ravishda ikkinchisi eslanadi. Inson psixik hayotida assotsiatsiyalarning ahamiyati katta: bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, xotirani rivojlantirish assotsiatsiyalarga asoslanadi. Assotsiatsiyalarning fiziologik asoslari bosh miya yarim sharlari qobig‘ida hosil bo‘ladigan muvaqqat nerv bog‘lanishlaridir.

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. Tafakkur – bu o‘z tuzilishi va turlariga ega bo‘lgan o‘ziga xos faoliyat. Tafakkurning turlarga bo‘linishi shakli, xususiyati, ochib berilganlik, yangililik va voqelikka moslik darajasiga ko‘ra amalga oshiriladiInson atrof-olam (narsa, hodisalar, insonlarni) va o‘zini turli xil faoliyatlarni bajarish va bu obyektlarga ta’sir ko‘rsatgan holda ma’lum bir ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga molik maqsadlarga erishish uchun o‘rganadi. Sezgi, idrok va tasavvurlar ixtiyorsiz diqqat va ko‘rgazma-obrazli xotira bilan hamkorlikda insonga aniq bir obyektlar va ularning bevosita o‘rganiladigan xossalari haqida ma’lumot beradilar. Psixik aks ettirishning bu shakllari inson tomonidan obyektiv reallikni bilishning hissiyotli asoslaridir. Lekin alohida jismlar va real olam hodisalarini bilish istalgan amaliy vazifani hal etishda yuzaga keladigan uch ahamiyatga ega bo‘lgan savolga javob topish uchun yetarli emas. Bu savollar: “yuzaga kelgan vaziyatda nimani, qay tarzda bajarish mumkin, va bu harakat natijasida nima hosil bo‘ladi?”dan iborat.

Bu savollarga javob izlashda bizlarga tafakkur yordam beradi. Avvalambor, tafakkur yuksak darajadagi bilish psixik jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonning mohiyati inson tomonidan voqelikning faol ijodiy aks ettirish va o‘zgartirishdan iborat. Tafakkur bevosita idrokda anglanmaydiganlarni ochib beradi; u olamni ahamiyatli aloqalar va munosabatlarda, uning turli xildagi vositalarida aks ettiradi. Tafakkurning asosiy vazifasi real bog‘liqliklarga asoslangan zarur aloqalarni vaqt va fazodagi tasodifiy mos kelishlardan ajratgan holda aniqlashdan iborat. Tafakkur jarayonida tasodifiydan zaruratga, ayrimlikdan umumiylikka o‘tish sodir bo‘ladi.

Shunday qilib, tafakkurni voqelikning umumlashtirilgan va vositalangan aks ettirish sifatida ta’riflash mumkin. Bundan tafakkurning muhim belgilaridan biri umumlashtirishdan iboratligi kelib chiqadi. Voqelikni umumlashtirgan holda aks ettirish birgina odam va zamondoshlarining emas, balki, o‘tmish avlodlarining ham tajribasini qayta ishlab chiqish natijasidir. Bu tajriba til yordamida og‘zaki va yozma nutqda ifodalangan. Shuning uchun tafakkur ko‘plab odamlar bilimlarini umumlashtiradi.

Tafakkur jarayonida inson amaliy faoliyat, obrazlar va tasavvurlar, modellar, chizmalar, belgilar, til kabi jismli va ijtimoiy olamning ahamiyatli aloqa va munosabatlariga kirib borish maqsadida insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan turli xildagi vositalardan foydalanadi.

Tafakkurning ikkinchi muhim belgisi voqelikni analizatorga bevosita ta’sir ko‘rsatmay, ko‘pchilik hollarda asboblar ko‘magida olingan qo‘shimcha belgilar yordamida anglanadiganlarni tushunish va namoyon qilish imkonini yaratuvchi vositali tarzda aks ettirishdir. Hodisalarning qonuniyatlari, ichki aloqalari bizning ongimizda hodisalarning tashqi belgilarida vositali tarzda namoyon bo‘lishi bilan inson ichki, barqaror o‘zaro aloqalarning belgilarini aniqlab oladi.

Tafakkurning o‘ziga xos xususiyati bilish yoki amaliy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan u yoki bu vazifani bajarish bilan bog‘liqligidan iborat. Tafakkur muammoli vaziyatdan, tafakkurning maqsadi bo‘lgan savolga javobdan boshlanadi.

Tafakkur muammosini ko‘rib chiqqan A.A.Smirnov tafakkur va aqliy jarayonlarning assotsiativ tarzda kechishini tafovutlash zaruriyati haqida ogohlantirgan edi. Gap shundaki, aqliy faoliyatda biz assotsiatsiyalardan keng foydalanamiz, chunki ular tafakkur masalalarini yechishda ahamiyatli yordam ko‘rsatadi. Aqliy jarayonlarning assotsiativ kechishida holat o‘zgacha bo‘ladi. Muhim tafovut shundan iboratki, bu vaziyatda o‘z oldimizga hech qanday maqsad qo‘ymaymiz, chunki hech qanday vazifani bajarmaymiz. Bunda bir jarayon ikkinchisi bilan almashadi, chunki ular bir-biri bilan assotsiativ tarzda bog‘langan bo‘ladi. Tafakkur jarayonlarining assotsiativ tarzda kechishi ko‘p hollarda inson toliqqan bo‘lib, hordiq olishni xohlayotganida kuzatiladi. Uyquga ketishdan oldin xayolingizdan ketma-ket turli xildagi o‘ylar o‘tishini kuzatgansiz. Mana shu o‘ylar ma’lum assotsiatsiyalarga kiradi.

Tafakkurning alohida muhim o‘ziga xos xususiyati – bu uning nutq bilan uzluksiz aloqasi. Tafakkur va nutqning bunday aloqasi, avvalambor, fikrlarning, hatto nutq tovush shakliga ega bo‘lmagan holat, masalan: kar-soqov odamlarda ham nutq shakliga mujassamlashtirilishida o‘z ifodasini topadi. Biz doimo so‘zlar orqali fikr yuritamiz. Qisqartirilganlik, muxtasarlik, ixchamlilik xususiyatiga ega bo‘lgan yashirin, tovushsiz, ichki nutq insonning tafakkur mexanizmi bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda ma’lum fikr so‘zlar bilan ifoda etilganida tafakkur jarayoni amalga oshiriladi. Fikrni so‘z bilan ifoda etish – ifodalash motivi (nutqiy maqsad), ichki nutq, fikrni tashqi tomondan nutqiy ifodalash kabi bosqichlaridan iborat bo‘lgan murakkab jarayon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent., 2010.

2. Ivanov F.I, Zufarova M.E. Umumiy psixologiya.T., 2018.

3. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017.

4. A.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.Usmanova, I.Haydarov. Umumiy psixologiya. T. 2018.

5. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”: – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

Hulkar RAJABOVA,
ToshDO‘TAU mustaqil izlanuvchisi

REALISTIK QISSALARDA NUTQIY DETALLARNING BADIIY MAQSADI, VAZIFASI VA AHAMIYATI (Xoliyor Safarovning “Eng qayg‘uli quvonch” qissasi misolida)

Annotatsiya

Maqolada yozuvchi Xoliyor Safarov qissalarida nutqiy detallardan o‘rinli foydalangan. Xususan, adibning “Nomus va hayot”da Murod qassob nutqidagi “masalan”, “Eng qayg‘uli quvonch” qissasida Quvonch nutqidagi “Ay-e”, Tursunali nutqidagi “Nimasi, nimasini” kabi nutqiy detallar borki, ular asarning mazmunini boyitib, qahramonlar xarakterlarini chuqurroq ochib berishga xizmat qilgan. Ushbu detallar voqealarning tabiiyligini oshirgan.

Tayanch so‘zlar. Badiiy maqsad, nutqiy detal, kinoya, yozuvchi, asar, mohiyat.

В статье показано, что писатель Холиёр Сафаров умело использовал речевые детали в своих рассказах. В частности, имеются такие речевые детали, как “например” в речи Мурада-мясника в произведении писателя “Честь и жизнь”, “Ай-э” в речи Кувонча в рассказе “Самая грустная радость”, “Что, что” в речи Турсунали, которые обогащают содержание произведения и способствуют более глубокому раскрытию характеров героев. Эти детали придавали событиям еще большую естественность.

Ключевые слова. Художественная цель, речевая деталь, ирония, писатель, произведение, суть.

The article shows that the writer Khaliyor Safarov used rhetorical details appropriately in his stories. In particular, there are rhetorical details such as “for example” in Murod Kassob’s speech in the writer’s “Honor and Life”, “Ay-e” in Kuvonch’s speech in the story “The Saddest Joy”, and “What, what” in Tursunali’s speech, which enriched the content of the work and served to reveal the characters of the characters more deeply. These details increased the naturalness of the events.

Key words. Artistic purpose, rhetorical detail, irony, writer, work, essence.

Nutqiy detal – bu qahramonlarning nutqi, fikrlashi yoki o‘zaro muloqoti orqali hikoyaga chuqurlik beruvchi badiiy vosita bo‘lsa, qissada nutqiy detal qahramon xarakterini ochib beradi. Qahramonlarning gapirish uslubi, so‘z tanlovi va ifoda shakli ularning fe’l-atvori, hayotiy tajribasi va ruhiy holatini aks ettiradi.

Chunki realistik adabiyotda yozuvchi hayot haqiqatini aniq va tabiiy aks ettirishga intiladi. Shundan qahramonning nutqi, so‘zlash uslubi va til ohangi uning ichki dunyosi, hissiy holati va xarakterini chuqur yoritishga imkoniyat yaratadi. Shu jihatidan nutqiy detallarning asosiy vazifasi qo‘yidagilardan iboratdir:

1. Nutqiy detal qahramon xarakterini ochib berishi lozim.

Qahramonning gapirish uslubi uning dunyoqarashi, ijtimoiy mavqei va madaniyatini namoyon qilishi kerak. Masalan, sodda va lo‘nda gapiradigan qahramon bilan murakkab va falsafiy fikr yuritadigan qahramon orasidagi farq ularning shaxsiyati haqida tasavvur beradi.

2. Nutqiy detallar ichki kechinmalarni ifodalash zarur.

Bunda qahramonning hissiy holati uning nutqi orqali bilinadi. Hayajonlangan inson shoshib yoki qisqa gaplar bilan so‘zlasa, xafa bo‘lgan qahramon esa sust va hissiz gapiradi.

3. Nutqiy detallar munosabatlarni aks ettiradi.

Bu o‘rinda esa qahramonning boshqa qahramonlar bilan qanday muloqot qilishi uning munosabatlarini ochib beradi. Hurmat, sevgi, nafrat yoki ishonchsizlik kabi hislar nutq orqali namoyon bo‘lishini inobatga olish kerak.

4. Nutqiy detallar ayniqsa qissada atmosfera yaratishi muhim.

Dialog va nutqiy tafsilotlar asarning umumiy ruhiy muhitini shakllantiradi. Shuning uchun ham ziddiyatli vaziyatlarda keskin, shiddatli nutq ishlatilsa, sokin va fojiali sahnalarda sust, bo‘g‘iq nutq qo‘llanadi.

5. Realistik tasvirni kuchaytirishga ham nutqiy detallar kerak bo‘ladi.

Qahramonlarning nutq uslubi hayotga yaqin bo‘lsa, qissa yanada tabiiy va ishonarli chiqadi. Nutqiy detallardai dialekt, jargon yoki metaforalardan foydalanish qahramonning hayotiyligini oshiradi. Shunday qilib, realistik qissalarda nutqiy detallar nafaqat qahramon ruhiyatini ochib berish, balki asarning umumiy ta’sirchanligini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Darvoqe, Xoliyor Safarov qissalarida nutqiy detallardan o‘rinli foydalangan. Xususan, adibning “Nomus va hayot”da Murod qassob nutqidagi “masalan”, “Eng qayg‘uli quvonch” qissasida Quvonch nutqidagi “Ay-e”, Tursunali nutqidagi “Nimasi, nimasini” kabi nutqiy detallar borki, ular asarning mazmunini boyitib, qahramonlar xarakterlarini chuqurroq ochib berishga xizmat qilgan. Ushbu detallar voqealarning tabiiyligini oshirgan.

Xoliyor Safarov qissalaridagi detallar milliy va mintaqaviy o‘ziga xoslikni aks ettirdi. Adibning qashqadaryolik ekanligi hisobga olinganda, bu uning qissalaridagi qahramonlari nutqiga ham ta’sir qilgan. Shuning uchun ham “masalan”, “ay-e”, “Nimasi, nimasini” nutqiy detallari vohaga hos dialekt va sheva asosida tarkib topgan. Bu esa adibning vohaga xos nutqiy detallarni ishlatish orqali qahramonlarni yanada hayotiy va tabiiy ko‘rsatishda qo‘l kelgan.

Bundan tashqari yozuvchi “masalan”, “ay-e”, “Nimasi, nimasini” nutqiy detallar orqali qissalarida realistik tasvirni kuchaytira olgan.

Misol: “Ay-e qo‘ysang-chi, bir kamim endi yoshim o‘ttizdan oshganda lo‘killab maktabga borishim qoluvdi”

Qahramon xarakterini ochib berishda vohalik qahramonning o‘ziga xosligi, temperamentini ifodalash uchun uning nutqida viloyatga xos iboralar ishlatgan.

Misol: “Gulnor qo‘lidagi qatiqdan bo‘shagan, zardob sizib, rangi uniqib ketgan xaltalarini yerga qo‘yarkan, yonboshlab televizor ko‘rayotgan erining yoniga cho‘kkaladi(rangi uniqib ketgan – rangi o‘zgargan, oqarib yoki xiralashgan, erining yoniga cho‘kkaladi – bu matnda sadoqat va mehrni ifodalab erining yoniga borib o‘tirishi ma’noda ishlatilgan).

Xoliyor Safarov qissalarida nutqiy detallar orqali asarning milliy va hududiy ruhini saqlashga harakat qiladi. Adib qashqadaryolik yozuvchi sifatida mahalliy lahja va nutqiy detallar orqali asar voqealarining qayerda kechayotganini yanada aniqroq ifodalaydi.

Misol: “O‘g‘iloy, ha, o‘kkag‘arding qizi O‘g‘iloy-a…– derdi u qir ustida chalqancha bo‘lib, qo‘llarini boshi ostiga qo‘ygancha ko‘kka qarab yotarkan.”[1]

Nutqning jonliligi va tabiiyligini oshirishda qahramonlarning so‘zlash uslubi kitobiy

[1] Safarov, Xoliyor. Nomus va hayot: qissa va hikoyalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. -152 b.

emas, og‘zaki tilga yaqin bo‘lgani uchun ham adib qissalari ishonarli va kitobxonga yaqindir.

Misol: “Ay-e, ko‘p vaysama, bo – og‘rindi Quvonch. So‘ngra nos otdi.”

Quyida Xoliyor Safarovning “Eng qayg‘uli quvonch” qissasida qo‘llangan “ay-e” nutqiy detalining matndagi o‘rniga ko‘ra badiiy maqsadi, vazifasi tadqiq qilindi.

1-jadval

“Ay-e” nutqiy detalining “Eng qayg‘uli quvonch” qissasi matnidagi o‘rniga ko‘ra turi, realistik vazifasi hamda badiiy maqsadi

T/R	Misol	“Ay-e” nutqiy detalining turi	Realistik vazifasi	Badiiy maqsadi
	– Ay-e, nimasiga o‘ylanasan? Ertaga hujjatlaringni zamdirektorning qo‘liga berib kelamiz. Aytamiz, domla hozir pul yo‘q, ozroq biror nima ishlab kelaylik, nimasini nima qilamiz, deymiz. Qolgan nimalarini o‘zi to‘g‘rilaydi. Menga qara, o‘zi kollejda bola yetishmaydi.	So‘roq va hayratni ifodalaydi.	So‘zlovchi suhbatdoshining xavotirini tushunmayapti va uni behudaga o‘ylayapsan, deb ishontirmoqchi. Gapning mazmunini kuchaytirish	Ishonch uyg‘otish
	– Ay-e, kollej ham bir gap bo‘lar... Hujjatlaringni ishonchli odamga berib kelgan bo‘lsanglar, boraveringlar. Hozir hujjat bilan pul o‘qiydigan zamon bo‘lsa... Juda qo‘ymasa, pul yuborasizlar, o‘zim borib, og‘zini yopib kelaman.	Ishonch va xotirjamlikni anglatadi. Hissiy ifodalash (ajablanish, ranjish)	So‘zlovchi kollejga kirish muammo emasligiga va hammasi yaxshi bo‘lishiga ishonadi. Qahramonning ruhiy holatini ochish	Dialogni tabiiy qilish; Ishonch uyg‘otish
	“Ay-e, o‘zi kollejga borib o‘tirish shart emas ekan-ku”	Diqqatni jalb qilish	Muhim fikrni ta’kidlash	Muhokama jiddiyligini oshirish
	“Ay-e… Ikki oy nima qilib kelaylik...”	Pauza yaratish va fikrlash	Nutqni tabiiy qilish	O‘ylangan nutqni ifodalash
	“Ay-e, bolam, qo‘y. O‘zimizning qishloqdagi kollejga topshiraver.”	Xalqona nutq va soddalik	Qahramon xarakterini ochish	Hayotiylik berish
	“Ay-e, nimasiga o‘ylanasan?”	So‘roq va hayratni ifodalaydi. Tasdiqlash yoki rad etish	So‘zlovchi suhbatdoshining xavotirini tushunmayapti va uni behudaga o‘ylayapsan, deb ishontirmoqchi. Gapning mazmunini kuchaytirish	Ishonch uyg‘otish
	“Ay-e, kollej ham bir gap bo‘lar...”	Umid, ishonch	Kollejda o‘qishga ishonch bildirish, umidvor bo‘lish. Qahramonning ruhiy holatini ochish	Kollejda o‘qish imkoniyati haqida o‘ylash, umid qilish. Dialogga tabiiylik berish
	“Ay-e, o‘zi kollejga borib o‘tirish shart emas ekan-ku...”	Ishonchsizlik, ikkilanish	Kollejda o‘qish zarurligiga shubha qilish, ikkilanish muhim fikrni ajratish.	Kollejda o‘qish kerakligiga shubha qilish. O‘ylash va mulohaza qilish, yangi tushunchani shakllantirish

	“Ay-e… Ikki oy nima qilib kelaylik...”	O‘ychanlik, rejalashtirish Ishontirish va tasalli berish	Ikki oylik vaqtni qanday o‘tkazish haqida o‘ylash. Qahramon xarakterini ochish.	Keyingi ikki oy uchun rejalar tuzishga urinish.
	“Ay-e, hammasining iloji bor”	Tasalli berish	Tinchlantirish, umid uyg‘otish	Qahramonni yupatish
	“Ay-e, bir akaning ozroq ishi bor ekan”	Ish bilan bandlikni bildirish	Holatni tasvirlash	Vaziyatni tushuntirish
	“Ay-e, otang nima deydi?..”	Hayrat yoki xavotir ifodalash	Shubha yoki tashvish ifodalash	Munosabatni bildirish
	“Ay-e, qolgani bir gap bo‘lar”	Umidsizlik yoki qabul qilish	Reallikni tushunish	Ko‘nikish yoki rozi bo‘lish
	“Ay-e, hal bo‘lmaydigan ish bormi? Pul qo‘lning kiri.”	Qiyin holatdan chiqish yo‘lini toppish	Umid uyg‘otish	Fikrni tasdiqlash
	“Ay-e, birinchi kursning ikkinchi yarim yilligini qaytadan o‘zlashtirasan”	Qaror qabul qilish	Yangi yo‘nalish ko‘rsatish	Fikr bildirish
	– Ay-e, hammasining iloji bor, – jilmaydi. Tursunali. – bitta voqea aytib beraymi?	Ishonch, qat’iyat	Muammolarni hal qilishga ishonch bildirish | tinchlantirish, umid uyg‘otish	Muammolarni yengish mumkinligiga ishonch hosil qilish. Qahramonni yupatish
	– Ay-e, bir akaning ozroq ishi bor ekan. Hojatxona bilan vannasiga kafel teryapman.	Taklif, ish haqida ma’lumot Ish bilan bandlikni bildirish	Aniq ish taklif qilish. Holatni tasvirlash	Ishning tafsilotlarini aytib berish. Vaziyatni tushuntirish
	– Ay-e, otang nima deydi?..	xavotir va qo‘rquvni ifodalaydi.	So‘zlovchi otasining munosabatidan xavotirda va salbiy reaksiya kutish ehtimoli bor. Shubha yoki tashvish ifodalash	Munosabatni bildirish
	– Ay-e, qolgani bir gap bo‘lar. Joylashadi-da. choydan quy.	ishonch va umidsizlikni, beparvolikni ifodalaydi.	So‘zlovchi qolgan muammolar osonlikcha hal bo‘lishiga va hammasi yaxshi bo‘lishiga ishonadi.	Ko‘nikish yoki rozi bo‘lish “Choydan quy” iborasi esa suhbatni boshqa yo‘nalishga burish, vaziyatni yengillashtirishga urinish sifatida ishlatilgan.
	– Ay-e, nimasini o‘ylaysan. Kollejda nimalar o‘tib bo‘ldi. Ikkalamiz baribir qolib ketdik.	Taqdirga tan berish va afsuslanishni ifodalaydi. Tushuntirish	So‘zlovchi kollejdagi o‘qishdagi muvaffaqiyatsizlikni qabul qilgan va endi bu haqda o‘ylashni befoyda deb hisoblaydi. Holatni tushuntirishga harakat qlish	Tushuncha berish

	“Ay-e, hal bo‘lmaydigan ish bormi? Pul qo‘lning kiri	Qiyin holatdan chiqish yo‘lini topish	Umid uyg‘otish	Fikrni tasdiqlash
	– Ay-e, birinchi kursning ikkinchi yarim yilligini qaytadan o‘zlashtirasan, dedi. O‘zlashtirib bo‘ladimi?	Xavotir, shubha	O‘qishdagi qiyinchiliklar haqida gapirish, o‘zlashtira olishga shubha qilish	O‘qishni davom ettirishga qiynalayotganini, o‘quv dasturini o‘zlashtira olishga shubha qilayotganini ifodalaydi.
	– Ay-e, yo‘q bo‘lib ketmaydimi?	Xavotir, qo‘rquv	Yo‘qotishdan qo‘rqish, xavotirlanish	Biror narsani yo‘qotishdan xavotirdaligini bildiradi.
	– Ay-e, ishning ham uncha mazasi yo‘q, – derdi Salim ham. – Erta chiqyapmiz. Shunga…	Zerikish, norozilik	Ishdan qoniqmaslik, zerikish	Ishdan zavq olmayotganini, ish sharoitlari yoqmasligini ifodalaydi. |
	– Ay-e!.. – u xandon otib kulganicha uyga kirib ketardi	Xursandchilik, beparvolik	Xursand bo‘lish, beparvolikni ifodalash Taassurotini ifodalash	Yengiltabiatlik, beparvolik va xursandchilikni ifodalaydi. Hayratlanish
	– Ay-e, ish ko‘payib ketdi. Endi… to‘ydan keyin, hali yangi kuyov, mayli, deb indamasdi, hozir qo‘ymayapti	Shikoyat, norozilik	Ko‘p ishlashdan shikoyat qilish, charchoq	Ish hajmining ko‘pligidan shikoyat qilayotganini, charchaganini bildiradi.
	– Ay-e, buncha ko‘p gapirding. Bu yoqqa kel qani...	Norozilik, to‘xtatish	Ko‘p gapirishni to‘xtatishni so‘rash, norozilik bildirish	Suhbatdoshining ko‘p gapirishi eshitmasligini, uni to‘xtatishni istashini ifodalaydi.
	Ko‘ylagini yechib olishayotgan a Salim “Ay-e” dedi-yu, ko‘zlarini ocholmadi. Ona uning maykasini ham sug‘urib oldi.	Og‘riq, azob	Jismoniy og‘riqni ifodalash, azob chekish	Jismoniy og‘riqni his qilayotganini, azob chekayotganini bildiradi.
	– Ay-e, shang‘illama-ye! – dedi ota. – Nima, yosh bolamidi, ketini poylab yursam?	Ogohlantirish	Ota tomonidan o‘g‘ilga ogohlantirish	ehtiyotkorlikni bildirish
	– Ay-e, go‘rga boradimi? Kir, yot.	Ta’na, kinoya, norozilik	Salimni haqoratlash, uning xatti-harakatlarini qoralash	Otaning o‘g‘liga nisbatan nafratini, umidsizlikka tushganligini ifodalaydi.
	– Ay-e… – Salim o‘rnidan turdi va kiyimlarini izlay boshladi. Juvon esa eshik oldida qoqilgan qoziqday turar, nima qilishni bilmasdi.	Og‘riq, azob ifodasi	Ota-onasining unga nisbatan qo‘pol munosabatidan kelib chiqqan jismoniy va ruhiy azobini ko‘rsatish	Kaltaklanayotgan odamning beixtiyor reaksiyasi sifatida tasvirlangan.
	– Aya-e, bo‘ldi qiling endi… – Salim kiyina boshladi	Norozilik, jahl ifodasi	Salimning xatti-harakatlaridan norozilligini bildirish, uni koyish	Onaning o‘g‘liga nisbatan g‘azabini, sabrsizligini ko‘rsatadi.
	– Ay-e, nima bo‘lsa bo‘lsin! – dedi erining qo‘lida siltanib. – Bunday bola boqquncha it boqsam bo‘larkan! Ifloslar	Qat’iylik, umidsizlik	Vaziyatdan charchaganligini, endi farzand tarbiyasidan umid uzganligini ko‘rsatish	Onaning o‘g‘lining kelajagidan xavotir olmasligini, taslim bo‘lganligini anglatadi.

	– Ay-e, o‘lsa o‘lar! – ota yana tepdi. O‘g‘lining basharasiga musht tushirdi. – Bunday bolaning boridan yo‘g‘i yaxshi!	G‘azab, nafrat ifodasi	Salimga nisbatan eng yuqori darajadagi nafratni ifodalash	Otaning o‘g‘lini butunlay rad etganligini, unga nisbatan mehr-muhabbati so‘nganligini ko‘rsatadi.
	– Ay-e, shunday qilib ishlaydigan bo‘lsang, ishinggayam tupurdim! O‘zi ikki kundan beri ishga bormay xotinbozlik qilib yurgan bo‘lsang! O‘zim seni ishdan bo‘shatib olaman.	G‘azab, tahdid	Erining xatti-harakatlariga qarshi chiqish, uni ishdan bo‘shatish bilan qo‘rqitish	Onaning eriga nisbatan ham g‘azabli ekanligini, o‘z huquqlarini himoya qilishga tayyorligini ko‘rsatadi.
	– Ay-e!!! – ota ayol makridan lol qolib o‘rnidan turdi. Uy oldidagi idishdan suv olib ichdi-yu, ko‘chaga chiqib ketdi.	Hayrat, lol qolish	Ayolining kutilmagan reaksiyasidan hayratga tushish	Otaning ayolining unga qarshi chiqishiga tayyor emasligini, uning so‘zlaridan ta’sirlanganligini ko‘rsatadi.
	Nogoh uning ko‘z oldida ishva bilan boqib turadigan do‘ndiq Malika paydo bo‘ldi… “ – Ay-e…”	Hayrat, orzu	Malikaning go‘zalligi va jozibasidan hayratlanish, unga bo‘lgan orzularini ifodalash	Salimning ichki kechinmalarini, yashirin orzularini ochib beradi.
	– Ay-e… – po‘ng‘illadi Salim. – Men birovnikida mardikorlik qilmayman.	Norozilik, jahl	Ota-onasining majburlashiga qarshi chiqish, o‘z fikrini bildirish	Salimning mardikorlik qilishni istamasligini, o‘z qaroriga ega ekanligini ko‘rsatadi.
	– Ay-e, bilganini qilsin! – dedi otasi. – Ammo ishiga bormaydi! Tamom!	Bezorilik, istehzo	Salimning qaroriga beparvolik bilan munosabatda bo‘lish, uni mensimaslik	Otaning o‘g‘liga nisbatan hurmatsizligini, uning fikrini ahamiyatsiz deb bilishini ifodalaydi.
	– Ay-e… bir kun iziga tushib ketar-da…	Xavotir, qo‘rquv	Salimning kelajagidan xavotirlanish, uning xatti-harakatlarining oqibatlaridan qo‘rqish |	Onaning o‘g‘li uchun havotirda ekanligini, uning xatolari uchun azob chekishidan qo‘rqishini ko‘rsatadi.
	– Tish bergan Xudoyim rizqini ham beradi. Ay-e, senam bir kuningni ko‘rarsanda.	Ishonch, umid	Xudoga ishonish, kelajakka umid bog‘lash	Onaning qiyinchiliklarga qaramay, umidini uzmasligini, Xudoga tavakkal qilishini ifodalaydi.
	– Ay-e, Ay-e deb o‘zi… – Salim davomini gapirmadi.	Tanbeh, norozilik	Salimning gapini bo‘lish, uning xatti-harakatlarini ma’qullamaslik	Otaning o‘g‘liga nisbatan noroziligini, uning fikrlarini tinglashni xohlamasligini bildiradi.
	–Ay-e, bir gap bo‘lar... – Salim g‘udranib o‘rnidan turdi. Uy to‘ridagi ikki sandiq orasida ingichka oynavand shkaf bo‘lib, unda ularning kelin-kuyovlik surati turardi. Uni qo‘liga oldi. Sinchiklab qaradi. U baxtdan masrur, xayolga cho‘mgan. Ko‘zlarida o‘ychanlik va ummon qadar chuqur bir orzular..	O‘ychanlik, qat’iyat	O‘z fikrida sobit turish, qarorini o‘zgartirmaslik	Salimning o‘z qarorini himoya qilishga tayyorligini, o‘ziga ishonchini ko‘rsatadi.

	– Ay-e, bir muammo chiqib qolgandi… – kalovlandi Salim. – Shunga qishloqda edim	Ikkinlanish, tashvish	Muammo haqida gapirishga qiynalish, noqulaylikni ifodalash	Salimning o‘z muammolari haqida gapirishga tortinishini, o‘zini noqulay his qilishini ko‘rsatadi.
	– Nima bo‘ldi, oshna? Tinchlikmi? – Ay-e… – Salim beparvo qo‘l silkidi.	Befarqolik, loqaydlik	Muammoga ahamiyat bermaslik, beparvolikni ifodalash	Salimning muammolarga yengil qarashini, jiddiylik bilan qabul qilmasligini ko‘rsatadi.
	– Ay-e, bir gap bo‘lar… – Mayli, oshna, siqilma. Hammasi yaxshi bo‘lib ketadi	Dalda berish, tasalli	Salimni tinchlantirish, unga yordam berishga harakat qilish	Oshnaning Salimga nisbatan mehrini, uni qo‘llab-quvvatlash istagini ko‘rsatadi.
	“Ay-e, o‘qiganlar nima bo‘lyaptiki, men nima qilardim?” dedi. Tanish orqali uran koniga ishga kirdi. Tanish-bilishchilik vaqtincha ekan. “Tanka”si o‘tgan yili ishdan urilib ketgan edi. Ana endi uning “dum”lariyam birin-ketin kesilyapti…	Afsuslanish, o‘kinish	O‘qimaganligi uchun afsuslanish, o‘zini aybLash	Salimning o‘qimaganligi uchun pushaymon bo‘lishini, imkoniyatlarni boy berganini anglashini ko‘rsatadi.
	– Ay-e, o‘lar dunyoda bir yeb-ichdimda! – Salimning topgan gapi shu bo‘lar va uyga gandiraklab kirib, o‘zini ko‘rpachaga tashlardi.	Bezorilik, taslim bo‘lish|	Hayotdagi qiyinchiliklarga ko‘nikish, umidsizlikka tushish|	Salimning hayotdan umid uzganligini, hech narsaga intilmasligini ifodalaydi.
	– Ay-e, ertalabdan boshlamang! – ichkilikdan beti va eti qotgan o‘g‘il onasiga ters gapirdi.	Jahl, norozilik	Onasining gaplaridan bezor bo‘lish, unga qarshi chiqish	Salimning onasi bilan munosabatlari yaxshi emasligini, unga hurmatsizlik qilishini ko‘rsatadi.
	– Ay-e, senga gapirdim nima, itga gapirdim nima? – ona jahl bilan ortiga burildi. – Sadqai bola ket-ye! Ana-mana deb olti oy o‘tib ketyapti. Uyam odam. Ichida odam katta bo‘lyapti! U sening bolang, axir!	Jahl, g‘azab	Salimning xatti-harakatlaridan g‘azablanish, unga tanbeh berish	Onaning o‘g‘lining itoatsizligidan charchaganligini, unga nisbatan sabri tugaganini ko‘rsatadi.
	– Ay-e! Qo‘ying shunaqa kinoyalaringizni. Mana, pul olib kelgandim. Oling. Onamga bergan pullaringizning o‘rniga qo‘yasiz.	Norozilik, e’tiroz	Onasining kinoyalariga qarshi chiqish, o‘zini oqlash	Salimning onasining gaplaridan xafa bo‘lishini, o‘zini aybdor his qilmasligini ko‘rsatadi.
	– Ay-e, vahima qilma-ye! – boshiga o‘qlog‘ yegan Salimning endi kayfi tarqaldi. – Emiz, hozir uxlab qoladi.	Tasalli berish, tinchlantirish	Salimni tinchlantirish, qo‘rqinchini ketkazishga harakat qilish	Salimning xotinining unga g‘amxo‘rlik qilishini, uni qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatadi.
	– Ay-e… Salim shu so‘zning quli edi. Uning o‘zgarmas odati va itfe’li bilan kurasha-kurasha charchagan, isnodlaridan bezillab qolgan tug‘ishganlari oxiri qo‘l silkidi.	Afsuslanish, ta’na	Salimning odatini tanqid qilish, uni o‘zgartirishga urinish	Salimning yaqinlari uning odatidan charchaganliklarini, uni o‘zgartirishga umidsiz ekanliklarini ko‘rsatadi.

	– Ay-e, bilganini qilsin! Uni otam bilan onam o‘zgartirolmadi, bizning qo‘limizdan nima kelardi?	Umidsizlik, taslim bo‘lish	Salimni o‘zgartira olmasliklarini tan olish, vaziyatga ko‘nikish	Ota-onaning Salimdan umid uzganliklarini, uni tarbiyalashdan charchaganliklarini ko‘rsatadi.
	– Ay-e… Quvonch maktabga chiqadigan yili bahorda sentabrdan birinchi sinfga boradigan o‘quvchilarni maktabga tayyorlash uchun ikki oylik mashg‘ulotga chaqirdi.	Hayrat, xavotir	Maktabga tayyorgarlik haqida o‘ylash, xavotirlanish	Quvonchning maktabga tayyorgarlik ko‘rishga ikkilanishini ifodalaydi.
	– Ay-e, menga o‘rgatma. Maktabga birinchi sentabrdan borsayam bo‘ladi. Shundan u yog‘iga o‘rganganiyam yetadi.	Norozilik, dangasalik	Maktabga tayyorgarlik ko‘rishni istamaslik, beparvolik	Quvonchning o‘qishga qiziqmasligini, dangasa ekanligini ko‘rsatadi.
	– Ay-e, o‘qiyver qani… Bir gap bo‘lar-da…	Ishonchsizlik, shubha	Quvonchning o‘qishga bo‘lgan qobiliyatiga shubha qilish	Quvonchning o‘qishda muvaffaqiyat qozonishiga ishonmaslikni ifodalaydi.
	– Ay-e, taqdir qilganida... – Salim aka qo‘l silkidi. – Bo‘lsa bo‘lar, bo‘lmasa onasining go‘riga!	Taqdirga ko‘nish, taslim bo‘lish	Vaziyatni o‘zgartira olmaslikka ishonish, taqdirga tan berish	Salimning hayotdagi qiyinchiliklarga ko‘nikkanini, taqdirga ishonishini ko‘rsatadi.
	– Ay-e, bilganlaringni qilinglar… O‘zingning bolang shunday deb turgandan keyin…	Norozilik, tanbeh	Qarindoshlarining aralashuviga qarshi chiqish, ularni tanqid qilish	Salimning qarindoshlarining aralashuvini istamasligini, ularning fikrini rad etishini ko‘rsatadi.
	– Ay-e, bir gap bo‘lar… – dedi Salim qo‘l silkib. Endi uning o‘z hayotidan xo‘rligi keladigan bo‘lib qolgandi.	Umidsizlik, bezorilik	Hayotdan umid uzish, hech narsaga ishonmaslik	Salimning hayotdan ko‘ngli qolganini, o‘z kelajagiga ishonmasligini ko‘rsatadi.
	– Ay-e!.. Sen endi aytganimni qil. Onangning o‘rniga uyimizga bir ayol kerak. Sen uylan. Singillaring ham yangasiga ovunadi. Eng to‘g‘ri yo‘l shu ekan…	Qat’iylik, buyruq berish	Salimni o‘z fikriga ko‘ndirishga urinish, unga buyruq berish	Otaning Salimni o‘ziga bo‘ysundirishga harakat qilayotganini, unga nisbatan hokimlik qilayotganini ko‘rsatadi.
	– Ay-e, qo‘ysang-chi, otangning onangga qanday qaraganini hamma biladi-ku! Menga aql o‘rgatma!	Norozilik, e’tiroz	Otaning gaplariga qarshi chiqish, uni tanqid qilish |	Salimning otasining fikriga qo‘shilmasligini, uni hurmat qilmasligini ko‘rsatadi.
	“Ay-e, diplomsiz ham bir kunimni ko‘rarman-da… Kollej diplomini olganim bilan universitetga kira olamanmi, yo‘qmi? Bunga sharoit bo‘ladimi, yo‘qmi? Uyda ahvol bu bo‘lsa…”	Umid, ishonch	Kelajakka umid bog‘lash, o‘ziga ishonish	Quvonchning qiyinchiliklarga qaramay, o‘z maqsadiga erishishga ishonishini ko‘rsatadi.

	– Ay-e, bilasan-ku, bizniki doim xurjun! – qo‘l silkidi Quvonch. – Shu desang, bugun kollejga borgandim. O‘qishdan haydashibdi. Kurator aytdi. Boshqarmaning qarori bor emish.	Afsuslanish, taqdirga ko‘nish	Hayotdagi qiyinchiliklarga ko‘nikish, umidsizlik	Quvonchning hayotdagi qiyinchiliklarga dosh berishga odatlanganini, ko‘p narsadan umid uzganini bildiradi.
	– Ay-e, boshqarmang nima-yu, uning qarori go‘r bo‘larmidi? Xohlasang, o‘qishingni nima qilib olasan.	Jahl, norozilik	Boshqarmaning qaroriga qarshi chiqish, uni tanqid qilish	Salimning adolatsizlikka qarshi ekanligini, o‘z haqqini himoya qilishga tayyorligini ko‘rsatadi.
	– Ay-e, so‘rama… – Quvonch gapirishni istamadi. – Undan ko‘ra, yur, biror joyda ovqatlanaylik. Gap bor. Keyin qornim ham och.	Sir saqlash, gapirishni istamaslik	Muammo haqida gapirishni xohlamaslik, sirni oshkor qilmaslik	Quvonchning o‘z muammolarini yashirishni istashini, boshqalar bilan baham ko‘rishni xohlamasligini ko‘rsatadi.
	Ay-e, Xudoyim bir nima degandir-da.	Taqdirga ishonish, umid	Yaxshilikka umid qilish, Xudoga tavakkal qilish	Xudoga ishonchni, yaxshilikka umidni ifodalaydi.
	– Ay-e, og‘zi bor gapiraveradi-da… – derdi Salim aka. – Shuniyam o‘ylab o‘tirasanmi? Eshak minib ketayotan ota-bola voqeasini bilasanmi? Ikkalamiz hozir xuddi shu ahvoldamiz.	Tanqid, norozilik	Boshqalarning gaplariga e’tibor bermaslik, ularni tanqid qilish	Salimning boshqalarning fikriga ahamiyat bermasligini, o‘z bilganicha ish tutishini ko‘rsatadi.
	– Ay-e, dunyosi shu ekanda, o‘g‘lim…	Taqdirga ko‘nish, hamdardlik	O‘g‘liga hamdardlik bildirish, uni qo‘llab-quvvatlash	Otaning o‘g‘lining qiyinchiliklarini tushunishini, unga achinishini ifodalaydi.
	– Ay-e, bir gap bo‘lar, – qo‘l silkidi Quvonch. So‘ngra derazaga boqdi. Atrofga shom cho‘kmoqda edi.	Umidsizlik, beparvolik	Vaziyatga beparvo qarash, hech narsa qilishni istamaslik	Quvonchning vaziyatni o‘zgartira olmasligiga ishonishini, taslim bo‘lganini ko‘rsatadi.
	– Ay-e, sharoit bo‘lmadi-da…	Afsuslanish, taqdirga ko‘nish	Maqsadga erisha olmaslik uchun afsuslanish, vaziyatga ko‘nish	Rejalarning amalga oshmasligidan afsuslanishni ifodalaydi.
	– Aka, – dedi yosh mutaxassis yigit, – mana shu “Ay-e”, degan gapingiz eng katta dushmaningiz!	Tanbeh, nasihat	Salimning odatini tanqid qilish, uni o‘zgartirishga chaqirish	Salimning “ay-e” so‘zini ko‘p ishlatishi uning obro‘siga putur yetkazishini tushuntirishga harakat qilish.
	– Ay-e, tavakkal. Topshiring-chi, bir gap bo‘lar.	Umid, tavakkal	Omadga umid qilish, tavakkal qilish	Tavakkal qilishga tayyorlikni, yaxshi natijaga umid qilishni ifodalaydi.

Yuqoridagi jadvalda(1-jadval) “Ay-e” so‘zning ma’nosi matnga, personajning xarakteriga va vaziyatga qarab o‘zgarib borgan. Shuningdek, “Ay-e” nutqiy detalining tavsifidan ko‘rinib turibdiki, Xoliyor Safarov realistik qissalarida nutqiy detallardan qahramon ruhiyatini ochib berishda keng qo‘llagan. Buni “Ay-e” nutqiy detalining butun bir qissada oz emas ko‘p emas naqd 73 marta qo‘llaganidan ham yozuvchining qissalari adabiyotning realistik tamoyilida hayot haqiqatini aniq va tabiiy aks ettirishga intilgan

deyish lozim. Muallif Ay-e nutqiy detali bilan personajning xarakterini ochishda, ularning his-tuyg‘ularini aniqroq yetkazishda va jonli dialog yaratishda samarali foydalandi.

Xoliyor Safarov realistik qissalarida xarakterlar va ularning nutqi reallikka yaqin bo‘lgani uchun ham “Ay-e” nutqiy detali orqali jonli va tabiiy nutq yarata oldi.

O‘ylab qarasak, biz avval e’tibor qilmagan, ammo kundalik nutqimizda hamisha yod bo‘lib ketgan “Ay-e” yozuvchi ta’kidlaganidek, bu xohish va istaklar hosilasi. Yurakdan otilib, tish orasini yorib chiqqan bir hukmki, uni rad etishga ojizlik qilib, taqdir quliga aylanib boraveramiz.

Yozuvchining mahoratining eng yuksakligi ham uning “Ay-e” nutqiy detali orqali ichimizdagi hayrat, g‘azab, hayajon, shubha, ishonch kabi turli kayfiyatlarni oshkora qilishga yordam berganidir.

Bu yozuvchi tomonidan topilgan, boshqalariga o‘xshamagan shunday topilmaki, ayrim realistik qissalardagi so‘zma-so‘z tuzilgan sun’iy nutqqa o‘xshamagan tabiiy, yorqin va sodda yozuvchi xazinasining duru gavharidir.

Xulosa qilib aytganda, adib Xoliyor Safarov “Ay-e” nutqiy detali orqali personajning hayotga bo‘lgan munosabati va temperamentini aniq ko‘rsata oldi. Bu nutqiy detal suhbatlarga tabiiylik berib, asar voqealarining hayotiy tus olishiga yordam bergan.

Foydalangan adabiyotlar

1. Safarov, Xoliyor. Nomus va hayot: qissa va hikoyalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.-152 b.

2. Yo‘ldoshev, Qozoqboy. So‘z yolqini. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, - 2018.-504 b.

3. Xurshid Do‘stmuhammad. Ijod ko‘ngil munavvarligi. – T: “Mumtoz so‘z”, 2011.

4. Safarov. X. Eng qayg‘uli quvonch. Qissa. \\Sharq yulduzi. – Toshkent 2023, № 3, 14-42. b.

5. Safarov. X. Eng qayg‘uli quvonch. Qissa. \\Sharq yulduzi. – Toshkent 2023, № 4 162-173. b.

E’zoza FAYZULLAYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Matematika” yo‘nalishi talabasi
Shahlo MIRZAYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

MATRITSA RANGI VA UNGA OID MISOLLAR YECHIMINI IZOHLASH

Annotatsiya

Mazkur maqola matritsa rangini o‘zgarishni xohlovchilar uchun ajoyib qo‘llanmadir. Maqolada matritsaning rangi haqida umumiy tushuncha berib o‘tilgan. Mavzuga oid misollar yechimi batafsil yoritilgan. Matritsa rangini aniqlashda talabalar qaysi qismida qiynalishlari, xatolikka yo‘l qo‘yishlari mumkinligi aytib o‘tilgan. Matritsaning rangiga oid masalalar, qaysi sohalarda ko‘p ishlatilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Tayanch so‘zlar. Matritsa, matritsa osti minori, satr, ustun, minor, matritsaning rangi, elementar almashtirishlar, “nol yig‘ish’’ usuli, “minorlarga ajratish’’ usuli, xos matritsa, xosmas matritsa.

Эта статья является отличним руководством для тех, кто хочет изучить цвет матрицы. Стается дает общее понимание цвета матрицы. Примеры по теме описаны подробно .При определении цвета матрицы упоминаются студенты, в которой стороны могут допустить ошибку. Проблемы, связанные с цветом матрицы, дают информацию ,о том как использоват.

Ключевые слова. Матрица, миния, столбец незначительный цвет матрицы элементные замены метод “zero collection’’, метод “расделения башни”, конкретная матрица,однородная матрица.

This article is a great guide for those who want to learn the matrix color. The article provides a general understanding of the color of the matrix. Examples on the topic are described in detail. When determining the color of the matrix, students are mentioned in which parties can make an error. Issues related to the color of the matrix are given information on how to use.

Key words. Matrix, line, column, minor, the color of the matrix, elemental replacements, “zero collection’’ method, “separation of the Tower’’ mothod, specific matrix, a homogeneous matrix.

Ushbu A=$\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{m_1} & a_{m_2} & \dots & a_{m_n} \end{pmatrix}$ mxn o‘lchovli matritsa berilgan bo‘lsin.

Ixtiyoriy o‘lchovli matritsaning bir necha satr yoki ustunlarini o‘chirishdan hosil bo‘lgan kvadrat matritsa determinantiga matritsa osti minori deyiladi. Bu kvadrat matritsaning tartibi matritsa osti minorning tartibi deyiladi. Agar berilgan matritsa kvadrat shaklda bo‘lsa, uning eng katta tartibli minori o‘ziga teng.

A matritsaning rangi deb, noldan farqli matritsa osti minorlarining eng katta tartibiga aytiladi va rang(A)=r(A) ko‘rinishda ifodalanadi.

Matritsa rangining xossalari:

1-xossa. Agar A matritsa mxn o‘lchovli bo‘lsa, u holda rang(A)≤min(m,n)

2-xossa. Agar A matritsaning barcha elementlari nolga teng bo‘lsa, u holda rang(A)=0

3-xossa. Agar A matritsa n-tartibli kvadrat matritsa va |A|≠0 bo‘lsa, u holda rang(A)=n

Matritsa rangini 2 xil usulda aniqlash mumkin. Minorlarga ajratish va elementar almashtirishlar orqali

Misol. A= $\begin{pmatrix} 1 & -2 & 3 \\ -2 & 4 & -7 \end{pmatrix}$ matritsa rangini minorlarga ajratish usuli bilan ishlang.

Yechish: berilgan matritsa 2x3 o‘lchovli bo‘lgani uchun satrlar va ustunlar sonini taqqoslaymiz va kichigini, ya’ni 2 ni tanlaymiz. Matritsadan ikkinchi tartibli minorlar ajratamiz va ularning qiymatini hisoblaymiz. Bu jarayonni noldan farqli ikkinchi tartibli minor topilguncha davom ettiramiz:

$M_2 = \begin{vmatrix} 1 & -2 \\ -2 & 4 \end{vmatrix} = 0$ $M_2 = \begin{vmatrix} 1 & 3 \\ -2 & -7 \end{vmatrix} = -7+6=-1 \neq 0$

Berilgan matritsadan noldan farqli eng yuqori ikkinchi tartibli minor ajraldi. Demak, ta’rifga binoan, A matritsaning rangi 2 ga teng. rang(A)=2

Matritsa rangi uning ustida quyidagi almashtirishlar bajarganda o‘zgarmaydi:

1) Biror satri (ustuni)ning har bir elementini noldan farqli songa ko‘paytirganda:
2) Satr (ustun)larini o‘rinlari almashtirilganda;
3) biror satri (ustuni)ning elementlariga uning boshqa parallel satri (ustuni) mos elementlarini noldan farqli songa ko‘paytirib, so‘ngra qo‘shganda;
4) barcha elementlari noldan iborat satri (ustuni) tashlab yuborilganda;
5) transponirlanganda

Teorema. Elementar almashtirishlar matritsa rangini o‘zgartirmaydi.

1-misol A= $\begin{vmatrix} 1 & 1 & -1 & 1 \\ 2 & 2 & 6 & 0 \\ 1 & 2 & 3 & 1 \\ 1 & 0 & 3 & -1 \end{vmatrix}$ Ushbu matritsani elementar almashtirishlar yordamida rangini toping.

Yechish: bu usulda biz matritsada elementar almashtirishlar bajarib, uning satrlaridagi elementlarini nolga aylantiramiz. Elementlarining barchasi nolga aylangan satrlar soni matritsaning rangiga teng bo‘ladi.

$$\begin{pmatrix} 1 & 1 & -1 & 1 \\ 2 & 2 & 6 & 0 \\ 1 & 2 & 3 & 1 \\ 1 & 0 & 3 & -1 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 1 & -1 & 1 \\ 0 & 0 & -8 & 2 \\ 0 & -1 & -4 & 0 \\ 0 & 1 & -4 & 2 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 1 & -1 & 1 \\ 0 & 0 & -8 & 2 \\ 0 & -1 & -4 & 0 \\ 0 & 0 & -8 & 2 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 1 & -1 & 1 \\ 0 & 0 & -8 & 2 \\ 0 & -1 & -4 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}$$

Quyidagicha elementar almashtirishlar bajarildi:

1) birinchi satrni o‘zini yozib olamiz. 1-satrni barcha elementlarini 2 ga ko‘paytirib, 2-satrni elementlaridan mos ravishda ayiramiz. 1-satrdan 3-satrni ayiramiz. 1-satrdan 4-satrni ayiramiz.

2) hosil bo‘lgan 3-satrga 4-satr qo‘shamiz.

3) matritsada 2-satr va 4-satr elementlari bir xil bo‘lib qoldi. Ularni ayiramiz.

4) berilgan matritsada faqat 4-satr elementlarining barchasi nolga aylanib qoldi. Demak rang(A)=3 ekan. Chunki bizga barcha elementlari nolga aylanmagan satrlar soni kerak edi 3 ta.

Matritsa rangini bu usulda topishda talaba qiynalishi mumkin. Talaba: “Qayerdan bilaman, shu almashtirishlar bajarganimda biror satrdagi barcha elementlar nolga aylanishini”. Buni bilish qiyin emas. Biz matritsaning biror ustunini elementlarini nolga aylantirishga harakat qilishimiz kerak. Keyin o‘z-o‘zidan qaysi satr nolga aylanishi ko‘rinib qoladi.

2-misol: $A=\begin{pmatrix} 0 & 1 & -1 & 2 & 2 \\ 2 & 9 & 5 & 2 & 4 \\ 2 & 7 & 7 & 6 & 0 \\ 1 & 4 & 3 & 2 & 1 \end{pmatrix}$ matritsa rangini elementar almashtirishlar orqali toping.

Yechish: biz birinchi ustunni elementlarini nolga aylantirishga harakat qilamiz. Buning uchun quyidagi almashtirishlarni bajaramiz:

1) 1-satrni o‘zini yozib olamiz. 2-satrni mos elementlarini 3 satrni mos elementlaridan ayiramiz. Bunda 2-satrni o‘zi ko‘chirilib, natija 3-satrga yoziladi.

2) 4-satrni 2 ga ko‘paytirib, 2-satrdan 4-satrni ayiramiz (mos elementlarini)

3) Hosil bo‘lgan 3-satr elementlarini mos ravishda 4-satr elementlaridan ayiramiz. Natijada, 4-satrning barcha elementlari noldan iborat bo‘lib qoladi. Boshqa satrlar nolga aylanmaydi.

$$\begin{pmatrix} 0 & 1 & -1 & 2 & 2 \\ 2 & 9 & 5 & 2 & 4 \\ 2 & 7 & 7 & 6 & 0 \\ 1 & 4 & 3 & 2 & 1 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 0 & 1 & -1 & 2 & 2 \\ 2 & 9 & 5 & 2 & 4 \\ 0 & 2 & -2 & -4 & 4 \\ 1 & 4 & 3 & 2 & 1 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 0 & 1 & -1 & 2 & 2 \\ 2 & 9 & 5 & 2 & 4 \\ 0 & 2 & -2 & -4 & 4 \\ 0 & 1 & -1 & -2 & 2 \end{pmatrix} \sim$$

$$\sim \begin{pmatrix} 0 & 1 & -1 & 2 & 2 \\ 2 & 9 & 5 & 2 & 4 \\ 0 & 2 & -2 & -4 & 4 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}$$ Javob: rang(A)=3

3-misol $A=\begin{pmatrix} 1 & 3 & 2 & -7 & -4 \\ -5 & -15 & -10 & 35 & 20 \\ 0 & 1 & 21 & 67 & 3 \\ 1 & 4 & 23 & 60 & -1 \end{pmatrix}$ matritsa rangini “nol yig‘ish” usuli yordamida yeching.

Yechish: $\begin{pmatrix} 1 & 3 & 2 & -7 & -4 \\ -5 & -15 & -10 & 35 & 20 \\ 0 & 1 & 21 & 67 & 3 \\ 1 & 4 & 23 & 60 & -1 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 3 & 2 & -7 & -4 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 21 & 67 & 3 \\ 0 & -1 & -21 & -67 & 3 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} 1 & 3 & 2 & -7 & -4 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 21 & 67 & 3 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}$

Demak, matritsaning 2 ta noldan farqli satrlari mavjud ekan. rang(A)=2

4-misol $A=\begin{pmatrix} 25 & 31 & 17 & 43 \\ 75 & 94 & 53 & 132 \\ 75 & 94 & 54 & 134 \\ 25 & 32 & 20 & 48 \end{pmatrix}$ matritsa rangini “nol yig‘ish’’ usulida toping.

Yechish: $\begin{pmatrix} 25 & 31 & 17 & 43 \\ 75 & 94 & 53 & 132 \\ 0 & 0 & -1 & -2 \\ 0 & -1 & -3 & -5 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 25 & 31 & 17 & 43 \\ 0 & -1 & -2 & -3 \\ 0 & 0 & -1 & -2 \\ 0 & -1 & -3 & -5 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 25 & 31 & 17 & 43 \\ 0 & -1 & -2 & -3 \\ 0 & 0 & -1 & -2 \\ 0 & 0 & 1 & 2 \end{pmatrix} \sim$

$\sim \begin{pmatrix} 25 & 31 & 17 & 43 \\ 0 & -1 & -2 & -3 \\ 0 & 0 & -1 & -2 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}$ Javob: rang(A)=3

5-misol $B=\begin{pmatrix} 1 & 3 & 5 & -1 \\ 2 & -1 & -3 & 4 \\ 5 & 1 & -1 & 7 \\ 7 & 7 & 9 & 1 \end{pmatrix}$ matritsa rangini “nol yig‘ish’’ usulida toping.

$\begin{pmatrix} 1 & 3 & 5 & -1 \\ 2 & -1 & -3 & 4 \\ 5 & 1 & -1 & 7 \\ 7 & 7 & 9 & 1 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 3 & 5 & -1 \\ 0 & 7 & 13 & -6 \\ 0 & 14 & 26 & -12 \\ 0 & 14 & 26 & -8 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 3 & 5 & -1 \\ 0 & 7 & 13 & -6 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 14 & 26 & -8 \end{pmatrix}$

rang(B)=3

6-misol $A=\begin{pmatrix} 2 & -1 & 3 & -2 & 4 \\ 4 & -2 & 5 & 1 & 7 \\ 2 & -1 & 1 & 8 & 2 \end{pmatrix}$ quyidagi matritsani “minorlarga ajratish’’ usuli bilan rangini toping.

Yechish: A matritsa 3x5 tartibli, demak uning rangi 3 dan yuqori bo‘lmaydi. A matritsadan faqat 3-tartibli va undan past tartibli determinantlarni hosil qilish mumkin. Berilgan matritsada 5 ta 3-tartibli determinant mavjud.

$M_1=\begin{vmatrix}2 & -1 & 3\\ 4 & -2 & 5\\ 2 & -1 & 1\end{vmatrix}$=-4-10-12+12+4+10=0

$M_2=\begin{vmatrix}2 & -1 & -2\\ 4 & -2 & 1\\ 2 & -1 & 8\end{vmatrix}$=-32-2+8-8+32+2=0

$M_3=\begin{vmatrix}2 & -1 & 4\\ 4 & -2 & 7\\ 2 & -1 & 2\end{vmatrix}$=-8-14-16+16+8+14=0

$M_4=\begin{vmatrix}-1 & 3 & -2\\ -2 & 5 & 1\\ -1 & 1 & 8\end{vmatrix}$=-40-3+4-10+48+1=0

$M_5=\begin{vmatrix}3 & -2 & 4\\ 5 & 1 & 7\\ 1 & 8 & 2\end{vmatrix}$=6-14+160-4+20-168=0

Demak, berilgan A matritsaning rangi 3 ga teng emas ekan. A matritsaning ixtiyoriy 2-tartibli minorini topaylik.

$M_{1=}^{1}\begin{vmatrix}-1 & 3\\ -2 & 5\end{vmatrix}$=-5+6=1$\neq 0$

Demak, rang(A)=2 ekan

7-misol A= $\begin{pmatrix}5 & 6 & 0 & 0 & 1 & 2\\ 3 & 4 & 1 & -2 & 0 & 0\\ 0 & 1 & -1 & -3 & 1 & 1\\ -2 & 0 & -2 & -1 & 0 & -1\end{pmatrix}$ matritsani “minorlarga ajratish” usuli bilan rangini toping.

Yechish: A matritsa 4x6 tartibli, demak uning rangi 4 dan yuqori bo‘lmaydi. A matritsadan faqat 4-tartibli va undan kichik determinantlarni hosil qilish mumkin.

$M_4=\begin{vmatrix}5 & 6 & 0 & 0\\ 3 & 4 & 1 & -2\\ 0 & 1 & -1 & -3\\ -2 & 0 & -2 & -1\end{vmatrix}$=5*$(-1)^{1+1}\begin{vmatrix}4 & 1 & -2\\ 1 & -1 & -3\\ 0 & -2 & -1\end{vmatrix}$+6*$(-1)^{1+2}\begin{vmatrix}3 & 1 & -2\\ 0 & -1 & -3\\ -2 & -2 & -1\end{vmatrix}$=

=5*(4+4+0-0-24+1)-6*(3+0+6+4-0-18)=-45 $\neq 0$

Demak, $M_4 \neq 0$ bu esa rang(A)=4 degani.

Kvadrat matritsaning determinanti nolga teng bo‘lsa, u holda bunday matritsaga xos matritsa deyiladi. Aks holda, ya’ni determinanti noldan farqli bo‘lsa, bu matritsaga xosmas matritsa deyiladi.

$A=\begin{pmatrix} 1 & -2 \\ -5 & 10 \end{pmatrix}$, $|A|=\begin{vmatrix} 1 & -2 \\ -5 & 10 \end{vmatrix}$=10-10=0 xos matritsa

$B=\begin{pmatrix} 1 & -2 & 3 \\ 0 & 4 & -1 \\ 5 & 0 & 0 \end{pmatrix}$ $|B|=\begin{vmatrix} 1 & -2 & 3 \\ 0 & 4 & -1 \\ 5 & 0 & 0 \end{vmatrix}$=10-60=-50$\neq 0$ xosmas matritsa

Matritsaning rangi matematikaning chiziqli algebra sohasi uchun muhim tushuncha bo‘lib, u matritsaning satr va ustunlarining chiziqli bog‘liqligini aniqlaydi. Matritsa rangi matematik modellashtirishda o‘zgaruvchilar orasidagi bog‘liqlik darajasini aniqlashda, axborot nazariyasi sohasida hadlash va signallarni qayta ishlashda optimal yechimlarni topishda, geometriyada vektorlar orasidagi bog‘liqni aniqlashda qo‘llaniladi va kompyuter grafikasi hamda mashinasozlikda geometrik transformatsiyalarni tasvirlashda qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Васельева Н.И., Николаева Н.И., Кучеренко Э.Г., Минабудинова Р.Ш. Элементы линейной алгебры. Типовой расчёт № 2. ОмГТУ. Омск. 1993. 120 с.

2. Щипачев В.С. Основы высшей математики. М.; Высш . шк. 1998. 200 с.

3. Стругов Ю.Ф., Троценко Г.А., Назарук Е.М. Элементы линейной алгебры, Омск: изд-во ОмГТУ. 1998. 36 с.

4. Фирдман А.И., Назарук Е.М. Методические указания и контрольные работы по математике. ОмГТУ. Омск.2002. 142 с.

5. Весенна А.А., Стругова Т.М Методические указания и контрольные работы № 1-5 по высшей математике. ОмГТУ. Омск. 2005. 120 с.

6. Xashimov A.R., Babadjanov Sh.Sh., Xujaniyozova G.S. Iqtisodchilar uchun matematika. Darslik. T.: “Iqtisod-moliya”. 2019. 572 b.

7. Бабаджанов Ш., Наимов А., Хашимова А. Математика для экономистов. Учебник. Т.: “Иктисод-молия”. 2019. 1232 с.

8. Татарникова О.В. Высшая математека для экономистов. Практикум. М.:Кнорус. 2020. 317 с.

9. Татарникова О.В., Швед Е.В., Шершнев В.Г Высшая математека для экономистов. Учебник. М.: Кнорус. 2021. 630 с.

Navbahor KAMOLOVA,
“Osiyo texnologiyalari universiteti” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
“Tillar” kafedrasi, o‘qituvchi

LIRO-EPIK TASVIRDA EPIK KLISHE VA BADIIY–TASVIR VOSITALARINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada “Alpomish” dostonining o‘ziga xos xususiyatlari, obrazlari, syujet va kompozitsiyasi, liro-epik tuzilishi, badiiy-tasvir vositalarining matn badiiyati, qahramonlar xatti-harakati va ruhiy holatini ifodalashdagi o‘rni masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib beriladi.

Tayanch so‘zlar. Doston, qahramonlik, baxshi, g‘oyaviy-badiiy, liro-epik tasvir, epik klishe.

В статье с научно-теоретической точки зрения анализируются вопросы своеобразных особенностей дастана “Алпамыш,” его образов, сюжета и композиции, лиро-эпической структуры, роли художественно-изобразительных средств в художественности текста, поведении и выражении душевного состояния героев.

Ключевые слова. Дастан, героический, бахши, идейно-художественный, лиро-эпический образ, эпический клише.

The article analyzes the issues of the peculiarities of the “Alpamys” dastan, its images, plot and composition, lyrical-epic structure, the role of artistic and visual means in the artistry of the text, the behavior and expression of the heroes’ emotional state from a scientific and theoretical point of view.

Key words. Dastan, heroic, bakhshi, ideological-artistic, lyric-epic image, epic cliche.

Ma’lumki, xalqimiz qahramonlik eposi namunasi sifatida “Alpomish” alohida ajralib turadi. Dostonning g‘oyaviy asosida qahramonlikni ulug‘lash, qahramon bo‘lib oila, yor, urug‘ hamda ona-Vatan himoyasida bo‘lish, urug‘ yaxlitligi uchun kurash maqsadi yetakchilik qiladi. “Oila uchun, yor uchun va shu bilan bog‘liq ravishda yangi tipdagi urug‘ birligi uchun kurash “Alpomish” eposida qo‘yilgan asosiy masaladirki, dostonning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilaganda, ana shunga diqqat qilish kerak bo‘ladi. Dostonda yorga erishish uchun qahramon bo‘lish, mard bo‘lish va dushmanga qarshi kurashish kerak, degan g‘oya bo‘rtib turadi”. Demak, dostonda ijtimoiy, maishiy masalalar qahramonlik va vatanparvarlik motivlarida uyg‘unlashib, bu holat doston syujeti va bosh qahramon – Alpomish va Barchin timsolida o‘z yechimini topadi. Bugunga qadar “Alpomish” dostonining oltmishdan ortiq variantlari turli shaklda yozib olinib, ular ijrochi mahorati, uning epik an’analarga amal qilishi va badiiy qoliplardan o‘rinli foydalana olganligi bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, doston turli baxshi-shoirlar repertuaridan turli hajmda yozib olingan bo‘lib, uning badiiy jihatdan mukammalligi va epik kuychi improvizatsiyasi dostonchilik maktablari an’anasi doirasida amal qiladi.

“Alpomish” dostoni respublikamizning turli dostonchilik maktabi (Xorazm dostonchiligida ijro etilmaydi) baxshilari repertuarida ijro etilgan. Biz esa doston strukturasida muhim o‘rin tutgan epik klishe va badiiy-tasvir vositalarini Sherobod dostonchilik maktabining iqtidorli baxshisi Umir shoir Safarov repertuaridan yozib olingan doston misolida tahlilga tortsak. Chunki baxshining ushbu varianti Janubiy O‘zbekiston dos-

tonchilik maktabi baxshilari repertuaridan yozib olingan variantlarning badiiy jihatdan mukammali va epik an’anani o‘zida yaxshi saqlaganligi bilan alohida ajralib turadi. “Surxondaryo va Qashqadaryo vodiylarida aytilib kelinayotgan “Alpomish” dostoni xususiyatlarini o‘zida saqlagan bo‘lib, bu vohadan yozib olingan variantlar orasida eng mukammali hisoblanadi”.

Epik klishe va badiiy-tasviriy vositalar ushbu doston variantida ham an’anaviy qolip vazifasini o‘taydi. Epik klishelar yoxud qaytariq o‘rinlar dostondan dostonga ko‘chib yuruvchi umumiy qolip shaklidagi ko‘rinish bo‘lib, kompozitsion jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Baxshi-shoirlarning dostonchilik an’analari doirasida dostonlarni ijro etish malakalari, bunda an’ana va badihaning o‘rni masalalarida akademik V. Jirmunskiyning turkiy xalqlar dostonchiligi borasidagi kuzatuvlari diqqatga sazovor. “Baxshi yodlanmagan matnni kuylaydi, u hech bo‘lmaganda qisman muayyan ssenariy bo‘yicha improvizatsiya qiladi, bunda ketma-ket epizod va vaziyatlarga qo‘shimcha ravishda an’anaviy odatiy joylar (otni egarlash, qahramonga nasihat, janglarni tasvirlash) doimiy bo‘ladi. Albatta, bunday improvizatsiya faqat ma’lum bir puxta tashkil etilgan an’ana doirasida amalga oshiriladi. Bunda nafaqat syujetlar, motivlar va tasvirlar, balki doimiy stilistik formulalar, epitetlar, taqqoslash, frazeologik birliklar va boshqalar doimiy ravishda ishtirok etadi. Bu esa faqat an’ana va improvizatsiyaning kombinatsiyasidir”. Demak, epik klishelar doston strukturasida voqealarni yaxlit tizimda davomiyligini saqlaydi. Ikkinchidan, epik klishelar doston voqealari uning kompozitsion yaxlitiligini struktural jihatdan uyushtiradi va baxshiga badiha qilish imkoniyatini yaratadi. Chunki baxshi og‘zaki tarzda yod olingan matnni epik xotirasida saqlab, uning badiha qilish imkoniyatini hozirlaydi. Uchinchidan, epik klishelar dostonchi tayyorlash vazifasini o‘taydi. Shogird baxshilar ustozlaridan doston ijro etishni o‘rganar ekan, ustoz dastlab ularga terma va dostondagi asosiy o‘rinlarni yod oldirish orqali ularga matnlarni ijro etish usul va yo‘llarini o‘rgatadi. To‘rtinchidan, epik kleshilar yordamida baxshi xotirasida mavjud doston voqealari kompozitsion barqarorlikni ta’minlab, badiiy-tasvir vositalari asosida ijodkorga an’ana va badiha imkoniyatini yaratadi.

“Alpomish” dostonidagi epik klishelar turli o‘rinlarda ifoda etilsa-da, biz ularning ba’zi bir xususiyatlariga e’tibor qaratamiz. Dostonlarda epik o‘rinlar dastlab boshlanma qismida muhim o‘rin egallab, u epik zamonning o‘tmishga daxldorligidan dalolat beradi. “Qadim zamonda Boysun tomonda o‘zbek xalqlaridan qo‘ng‘irot urug‘idan Boybo‘ri va Boysari degan aka-uka o‘tgan edi. Boybo‘ri, Boysarining otasini Davanbiy der edilar. Davanbiyning otasini Alponbiy der edilar. Akasi Boybo‘ri, ukasi Boysarilar chorvadorlar edi. Ikkovi ham boy kishilar edi, Qo‘ng‘irotning e’tiborli boshliqlari edi”. Albatta, dostonlarda boshlanma muhim o‘ringa ega bo‘lib, u birinchi navbatda voqealarning uzoq o‘tmishga aloqadorligini bildirib, auditoriyani o‘sha epik makon bilan bog‘laydi, ikkinchidan, qahramonlar shajarasi va u bilan bog‘liq ma’lumotlar umumiy tarzda o‘quvchi ko‘z o‘ngida badiiy tasvirlana boradi. Uchinchidan, syujet voqealarining turli jarayonlarda davom etishini ta’minlaydi. “Epik ijoddagi muqaddimaning o‘rganilishi, avvalo, doston strukturasining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Epik asar syujetining keyingi rivojini ta’minlab beradi. Dostonda kechayotgan joy, asosiy obrazlar, epik asar asosida turgan voqelikning mohiyatini tushuntiradi. Muqaddimada ko‘pincha qahramon shajarasiga urg‘u beriladi, unda tilga olingan qahramon shunchaki, oddiy bir qahramon emas, balki bevosita ko‘k bilan, ilohiyot bilan bog‘lanishi urg‘ulanadi. Muqaddimalar:

1. Tinglovchini voqelikka tayyorlaydi, ya’ni ularni dostonning asosiy qahramonlari hamda voqea bo‘lib o‘tadigan joy bilan tanishtiradi.

2. Doston qamrab olgan voqelikning ko‘lami naqadar keng ekanligini urg‘ulaydi.

3. Badiiy asardagi motiv va syujetlarning rivojiga turtki beradi hamda ular o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi”.

Darhaqiqat, doston boshlamasidan epik qahramon Alpomish va Barchinlarning shajarasi, urug‘ birligi, hokimiyat boshqaruviga aloqador xususiyatlar ta’kidlanmoqdaki, buni biz doston mazmunida badiiy ifodasini topgan uch qahramonning alplik, ya’ni hokimiyat egasi sifatidagi faoliyatini ko‘rishimiz mumkin: Alpinbiy, Alpomish, Barchin.Baxshi esa ushbu tayyor qolip sifatida doimiy tarzda takrorlanib keluvchi ushbu elementlarni yoddan ijro etib, ularni har galgi ijrosida ommalashtirib, sayqallashtira boradi. Qahramonlar dostonlarda shunchaki dunyoga kelmaydi. Ushbu holat dostonning quyidagi davomiyligida epik kuychi tasvirida ochiqlana boradi: “Ikkovining o‘g‘il-qizi bo‘lmaganligi uchun to‘ylarda, ma’raka-majlislarda har xil gaplardan xafa bo‘lib, ikkovi ovga chiqib ketdi, ov qilaverdi”. Doston boshlamasida keltirilgan an’anaviy epik klishening nafaqat matn strukturasi, balki asar g‘oyaviy maqsadini shakllantirishda ham ochg‘ich vazifa o‘tayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Qahramonlar ilohiy dunyoga kelishi, Fozil shoir variantida Shohimardon ravzasiga farzand tilab borilsa, Umir shoir variantida ov jarayonida “kiyik bo‘g‘oz, yelini to‘lgan ekan, shuning uchun “bolalari ham hayf bo‘lmasin” deb otmaydilar. Bu esa islomiy e’tiqod va tafakkurdan avvalgi xalqimizning e’tiqodiga aloqador dunyoqarashining doston matnida saqlanish holatidir.

Epik klishelarning o‘ziga xosligi ijodkor badihasiga zamin tayyorlab voqealarni mantiqiy davom ettiradi. “Alpomish”dagi qahramonning yori taloshda ekanligi uchun safarga otlanish jarayoni tasvirida otni egarlash voqesi ham mavjud. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida epik qahramonga otni egarlash uchun uning sayisi Soqi xizmat qilsa, “Alpomish”da Qaldirg‘och ushbu vazifani bajaradi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Qaldirg‘och nafaqat Alpomishning singlisi, balki sayisi vazifasini ham o‘tamoqda. “Alpomish Alponko‘lda ot abzalining qoshiga bir ola otni tashlab turibdi. Alpomishga Qaldirg‘och:

Nima bo‘ldi? – dedi.

Alpomish aytdi:

Qultoy bobo shu otni berdi.

Qaldirg‘och otning oldiga, ortiga o‘tib, terilarini tashlab, mahkam belini tortdi”. Matn tahlilidagi o‘rinlardan ko‘rinib turibdiki, epik klishelar faqatgina tayyor qaytariq o‘rin vazifasini emas, balki doston g‘oyaviy maqsadini, mazmun-mohiyatini shakllantirishda ham baxshilarga epik dunyoqarash, e’tiqodiy ifodalarni tasvirlash imkoniyatini yuzaga chiqara oladi.

Dostonlar kompozitsiyasi lirik va epik tasvir uyg‘unligidan iborat bo‘lib, har ikkala matn bayonning turli maqsad va vazifalarini bajaradi. Ayniqsa, epik klishelar bilan bir qatorda doston strukturasida tayyor holatda an’anaviy shakllangan badiiy-tasvir vositalari mavjudki, ular matn obrazliligi, ta’sirchanligi, qahramon ruhiy jarayoni va xatti-harakatini ifodalashda muhim ahamiyatli hisoblanadi. Badiiy tasvir va ifoda vositalari orqali ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati, badiiy so‘zni jonlantirishi, sifatlashi, o‘ziga xos uslubi va oraliq shakllar tilidagi emotsionallikning asoslari ko‘zga aniq tashlanadi. Ayniqsa, doston badiiyligini oshiruvchi vositalardan ramziy obrazlar, doimiy sifatlash va o‘xshatishlar, mubolag‘a, turg‘un iboralarning farovonligi, doston tilida erkalovchi, kichraytiruvchi qo‘shimchalarning qo‘llanishi, saj’ va takrorlar baxshi mahorati asosida jonli kartina yaratadi hamda tinglovchiga badiiy quvvat bag‘ishlaydi. Ikkinchidan, doston matnidagi badiiy vositalarning o‘ziga xos jihatlari voqealarga munosabat bildirish, ayniqsa, epik obrazlar, portret, tabiat tasvirini gavdalantirish, ularning epik jarayonga

munosabati masalasi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki badiiy-tasviriy vositalar yordamida baxshi qahramon hissiyoti, kechinmalari, ularning syujet tarkibidagi harakatlarini jonli ifodalash uchun maxsus yondashadi. “Alpomish”dagi ot ta’rifida Umir shoir o‘xshatishlardan quyidagicha mahorat bilan foydalana boradi:

Tulpor otning chatani
Misoli chordaraday,
Sirti bor qo‘rg‘on-qal’aday.
Cho‘lda ketib boradi
Osmondan engan boladay,
Ketishi yomg‘ir-jaladay.

Baxshi birgina Boychibor obrazining harakatlarini jonli badiiy tasvirlash uchun turli narsa-hodisalarga qiyoslamoqda.

Umuman olganda, epik klishe va badiiy-tasvir vositalarini dostonlar matni misolida tahlil qilish epik ijodiyotning o‘ziga xosligi, an’ana va badiha uyg‘unligi va baxshi mahorati masalalarini ilmiy o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. –Ташкент: Фан, 2008. –С89.
2. “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari. – Toshkent: Fan, 1968. –Б.48.
3. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Л., 1974. -С. 79.
4. Alpomish. Doston. Aytuvchi Umir shoir Safarov. –T oshkent: Akadem nashr, 2019.
5. Eshonqulov J. Mardlik va jasorat ulug‘langan doston // Alpomish. O‘zbek xalq dostoni. Aytuvchi Umir shoir Safarov, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li. – Toshkent: 2019. – B.11-12.
6. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – B. 290.

Zulayho ABDUNAZAROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

MIKROBIOLOGIYA VA VIRUSOLOGIYA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARNING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada o‘qitish jarayonining o‘ziga ham, uning bevosita obyektlari, o‘qituvchi va talabaga ham qo‘yiladigan talablar bilan bog‘liq holda oliy ta’lim sifatini oshirilishi yoritilgan. Shuningdek, bu talablar jamiyatning jadal rivojlanishi, ilm-fan va ta’lim makonining axborotlashuvi hamda mehnat bozoridagi dinamik vaziyat bilan bog‘liqligi haqida fikr yuritilgan. Muallif hozirgi vaqtda oziq-ovqat yoki farmatsevtika korxonalarining sifat nazorati bo‘limlari, klinik diagnostika laboratoriyalari, biotexnologiya korxonalari kabi zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari mikrobiologiya, kuzatish, tavsiflash, identifikatsiyalash usullariga asoslangan yuqori professional bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mikrobiologlarini aytib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Mikrobiologiya, metod, yo‘nalish, o‘qitish, zamonaviy, tavsiflash, individual.

В статье освещается повышение качества высшего образования в связи с требованиями, предъявляемыми как к самому процессу обучения, так и к его непосредственным объектам, преподавателю и студенту. Также рассматривается, что эти требования связаны с быстрым развитием общества, информатизацией научного и образовательного пространства, а также динамической ситуацией на рынке труда. Автор упоминает микробиологов современных производственных предприятий, таких как отделы контроля качества пищевых или фармацевтических предприятий, клинико-диагностические лаборатории, биотехнологические предприятия, обладающих высокими профессиональными знаниями и навыками, основанными на методах микробиологии, наблюдения, описания, идентификации.

Ключевые слова. Микробиология, метод, направление, преподавание, современность.

The article highlights the improvement of the quality of higher education in connection with the requirements for both the educational process itself and its immediate objects, the teacher and the student. It is also considered that these requirements are connected with the rapid development of society, the informatization of the space of science and education, and the dynamic situation in the labor market. The author mentions modern production enterprises, such as quality control departments of food or pharmaceutical enterprises, clinical diagnostic laboratories, biotechnology enterprises, microbiologists with high professional knowledge and skills based on microbiology, observation, description, and identification methods.

Key words. Microbiology, method, direction, education, modernity.

Tibbiyot ta’limi bilimlarni izchil murakkablashtirish va integratsiyalashuvi bilan bosqichma-bosqich to‘plashni ta’minlaydi. Shu bilan birga, ilmiy dunyoqarashning boshlang‘ich darajasi, uning o‘sish darajasi va tezligiga katta ahamiyat beriladi. Bu ma’lum darajada o‘quvchilarning individual xususiyatlariga ham, uning ta’sirida rivojlanayotgan pedagogik jarayon tizimiga ham bog‘liq. Talabalar tegishli fanning rivojlanish intensivligining turli tendensiyalariga ega bo‘lgan bir nechta fanlarni bir vaqtda o‘rganishda alohida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bular mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya kafedrasida o‘qitiladigan uchta asosiy fan bo‘lib, ular parazitologiya, mikologiya, prionshunoslik, genetika va allergologiya bilan to‘ldiriladi. Ular juda notekis rivojlanadi. Ulardan ba’zilari ancha barqaror va konservativdir, boshqalari juda tez rivojlanmoqda va doimiy ravishda yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirilmoqda. Bu

ularni o‘quv jarayonida tizimli ravishda taqdim etishda ma’lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Universitetda o‘qishning birinchi bosqichida, turli darajadagi bilimga ega bo‘lgan abituriyentlar va talabalar kafedraga kelganda alohida qiyinchiliklar yuzaga keladi. Kafedrada o‘qitish boshlangan ikkinchi va uchinchi semestrlar talabalarning tayyorgarlik darajasini tenglashtirishga qaratilgan bo‘lib, barcha keyingi o‘qitish asosida quriladigan fanlarning umumiy masalalariga bag‘ishlangan. Yozgi ta’tildagi bo‘shliq o‘quv jarayonidagi qiyinchiliklarni yanada kuchaytiradi: bilim qisman so‘nadi va keyingi semestrda yuqumli patologiya bo‘yicha maxsus kursni o‘rganish bilan band bo‘lib, uni qayta tiklash va yangi, juda muhim material berish kerak. Ikkinchi bosqich yanada qiyinroq – FPK tizimidagi shifokorlarning birlamchi ixtisoslashuvi, ba’zida tegishli mutaxassisliklarga ega shifokorlar keladi.

Bizning fanlar bo‘yicha shifokorlarning malakasini oshirish noaniq bo‘lib, har bir shifokorga, uning tajribasiga, ish stajiga, to‘plangan bilimiga, bilimdonligiga, uning materiallari va kuzatishlarini tahlil qilish istagiga bog‘liq. Bu kontingent bir butun sifatida ikki xil xususiyat bilan ajralib turadi: bilimni ochko‘zlik bilan egallash, berilgan hamma narsani o‘zlashtirish va yana biri – o‘z kasbidan ko‘ngli qolgan shifokorlarning befarqligi. Ikkinchisi o‘qituvchidan alohida e’tiborga muhtoj bo‘lib, ularning mutaxassislikka bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish yoki tiklash kerak. Ushbu kontingent bilan ishlash tizimi bir xil emas va uning bo‘linishini talab qiladi. Bu yerda zarur bo‘lgan narsa – individual yondashuv va tinglovchilarning kichik guruhlari. Amaliyot, rezidentura va ayniqsa aspiranturada mutaxassis qandaydir nisbatan tor mavzu bilan shug‘ullansa, tayyorgarlik jarayoni yaxshilanadi. Yakuniy bosqichdagi talabalar ilmiy dunyoqarashi, to‘plangan material va tajribaga analitik yondashuvi bilan alohida ajralib turadi. Uning yuqori darajasini hisobga olgan holda, ko‘plab tinglovchilar unda ilmiy yangilikni ko‘radilar va oqilona yechimga intilishadi. Bu eng unumdor kontingentdir. U bilan ishlash juda yoqimli. Ulardan ba’zilari fanga kirib, dissertatsiya yozish orqali o‘z tajribasini umumlashtiradi, o‘z asarlaridan parchalarni mualliflik guvohnomalari bilan himoya qiladi va hatto patentlaydi. Shunday qilib, qo‘rqoq, nodon abituriyent va shogirddan bosqichma-bosqich malakali o‘qituvchilarning bosqichma-bosqich tayyorgarligi tufayli o‘z sohasining yirik mutaxassislari, amaliy tibbiyot uchun nihoyatda foydali olim, ixtirochi bo‘lib yetishadi. Biroq, tashkiliy takomillashtirish talab etiladi: yuqorida ko‘rsatilgan fanlarni o‘qitishni kamida bitta kursga oshirish, ularni klinikaga yaqinlashtirish, fanni bitta to‘liq kursga o‘tkazish, o‘quv guruhlari sonini kamaytirish; o‘qituvchilarning malakasini oshirish, o‘quv jarayonini jihozlashni yaxshilashdir.

Mikrobiologiya akademik fan sifatida unchalik uzoq tarixga ega emas, birinchi universitet kafedrasi 1918-yilda Petrograd universitetida tashkil etilgan. Biroq, so‘nggi uch asr davomida ushbu fan bo‘yicha to‘plangan bilimlar juda katta va mikrobiologiya kurslari butun dunyo bo‘ylab kollej va universitetlarda o‘qitiladi. Tibbiy yordamning sifati to‘g‘ridan-to‘g‘ri tayyorgarlik darajasiga, olingan bilimlarning dolzarbligiga va tibbiyot mutaxassislarining ish jarayonida ularni sharhlash qobiliyatiga bog‘liq. Bularning barchasi tibbiyot fakulteti talabalarining tayyorgarlik darajasini hamda samaradorligini oshirish maqsadida o‘quv jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini faol joriy etishni belgilab beradi. Rossiyada mavjud oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, faol o‘qitish usullari o‘quv jarayonini kengaytirishga va tibbiyot talabalarining ilmiy tadqiqot faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Faol o‘qitish usullarining asosiy tamoyili o‘qituvchi va o‘quvchining ta’lim jarayonida teng ishtirok etishidir. Bu tamoyil o‘quv jarayonida o‘quvchining tafakkurini epizodik emas, doimiy ravishda faollashtirishga

yordam beradi. Bu faol ta'lim texnologiyalari bo'lib, muammolarni hal qilishda mustaqillikka yordam beradi, shuningdek, fanni o'rganish uchun motivatsiyani shakllantiradi. Faol usullar tadqiqot, muammoli, dialog, o'yin, shu jumladan simulyatsiya shakllari va o'qitish usullaridan iborat. Simulyatsiya usullari, o'z navbatida, o'yinga asoslangan bo'lishi mumkin. Muammoli ta'lim – bu fanning asosiy va o'rganish qiyin bo'lgan mavzularini o'rganishda qo'llanilishi kerak bo'lgan juda muhim usul bo'lib, katta vaqt va tushunishni talab qiladi. Muammoli vaziyatli vazifalardan (hollardan) foydalanish mutaxassislarning klinik tafakkurini shakllantiradi va tibbiyot xodimining kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga yordam beradi. O'qitishning dialog usuli eng ko'p mehnat talab qiladigan va ko'p vaqt talab qiladigan usullardan biridir, ammo to'g'ri tashkil etilgan qulay ta'lim muhitida muhim afzalliklarga ega. Ya'ni, javobda xato va noaniqliklar bo'lsa ham, talabaning fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lish. Shu bilan birga, talaba muloqot qobiliyatini rivojlantiradi, u bilan o'qituvchi o'rtasida ishonchli ishbilarmonlik aloqasi shakllanadi, bu ham talabaning ishtiyoqini oshiradi. "Mikrobiologiya va virusologiya" fani uzoq vaqtdan beri nazariy fan doirasidan chiqib ketgan va hozirgi vaqtda turli klinik soha mutaxassislari, jumladan, stomatologlar ham qiziqish uyg'otmoqda.

Og'iz bo'shlig'ining mikrobiologiyasi, virusologiyasi, mikrobiologiyasi" fanini o'rganish natijasida olingan ko'nikma va malakalar bir qator yuqumli kasalliklarni muvaffaqiyatli tashxislash va davolash uchun zarurdir. Bunday muammolarni hal etish, shuningdek, tibbiyot fakulteti talabalari uchun ta'lim sifatini oshirish yo'llaridan biri o'quv jarayoniga faol o'qitish texnologiyalarini (usullarini) joriy etishdan iborat.O'quv jarayonidan qoniqishni baholash uchun talabalarga so'rovnomada quyidagi savollarga javob berish so'ralgan:
1) o'quv jarayonini tashkil etish sifatining talaba talablariga muvofiqligi;

2) "Og'iz bo'shlig'ining mikrobiologiyasi, virusologiyasi, mikrobiologiyasi" fanining hozirgi davrdagi dolzarbligi;

3) "Og'iz bo'shlig'ining mikrobiologiyasi, virusologiyasi, mikrobiologiyasi" fanini o'qitishda mantiqiy ketma-ketlikka rioya qilish;

4) innovatsion ta'lim usullaridan foydalanish darajasi;

5) fan o'qituvchisi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar darajasi;

6) darslarni o'tkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;

7) "Og'iz bo'shlig'ining mikrobiologiyasi, virusologiyasi, mikrobiologiyasi" fanlari doirasida baholashning reyting tizimini qo'llash.

Olingan natijalarni baholash shkalasi: 0-2 ball - juda past daraja, 3-4 ball - past daraja, 5-6 ball - o'rtacha daraja, 7-8 ball - o'rtacha darajadan yuqori, 9-10 ball - yuqori darajadagi qoniqish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мотавкина н.с., Шаркова в.а., диго р.н., воропаева н.м. поэтапное развитие научного кругозора студентов при изучении микробиологии, вирусологии, иммунологии – важнейший педагогический менеджмент в преподавании дисциплин // Фундаментальные исследования. – 2006. – № 5. – С. 51-52.

2. Merkel S. Task Force on Curriculum Guidelines for Undergraduate Microbiology. The development of curricular guidelines for introductory microbiology that focus on understanding / S. Merkel // Journal of Microbiology & Biology Education. — 2012. — V. 13. — №. 1. — с. 32-38.Где упоминается.

3. Бывальцев В.А. Плагиат и академическая добросовестность в науке / В.А. Бывальцев, И.А. Степанов, Е.Г. Белых, А.А. Калинин, Л.А. Бардонова // Вестник Российской академии медицинских наук. — 2017. — V. 72. — №. 4. — с. 299-304. Где упоминается.

Ziyoviddin TO‘RAEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi
E’zoza FAYZULLAYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, talaba

DETERMINANTLAR XOSSALARI VA ULARNI HISOBLASH

Annotatsiya

Mazkur maqolada determinantlar va ularning xossalari keltirib o‘tilgan. Hamda bir qancha determinantlar yechimi ko‘rsatilgan. Shuningdek, bu maqolada yettinchi tartibli determinant yechimi hisoblangan.

Tayanch so‘zlar. Determinant, satr, ustun, matritsa, diagonal, proporsional, transponirlash, toq tartibli qiya simmetrik matritsa, yettinchi tartibli determinant.

В данной статье приведены определители и их свойства. Также показано решение нескольких определителей. В этой статье также рассматривается решение определителя седьмого порядка.

Ключевые слова. Определитель, строка, столбец, матрица, диагональ, пропорциональная транспонированная,кососимметричная матрица нечетного порядка, определитель седьмого п орядка.

This article presents determinants and their properties. A solution of several determinants is also shown. Also, in this article, the solution of the seventh-order determinant is calculated.

Key words. Determinant, row, column, matrix, diagonal, proportional, transpose, odd skew-symmetric matrix, seventh-order determinant.

Ushbu $A=\begin{pmatrix} a_{11}a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21}a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1}a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{pmatrix}$

n-tartibli kvadrat matritsa berilgan bo‘lsin. U holda A matritsaning aniqlovchisi, ya’ni n-tartibli diterminanti deb,

$$\det(A)=|A|=\Delta=\begin{vmatrix} a_{11}a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21}a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1}a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix}$$

songa aytiladi .

Ikkinchi tartibli kvadrat matritsaning determinanti

$\begin{vmatrix} a_{11}a_{12} \\ a_{21}a_{22} \end{vmatrix} = a_{11}a_{22} - a_{21}a_{12}$ kabi aniqlanadi.

Uchinchi tartibli kvadrat matritsaning determinanti

$\begin{vmatrix} a_{11}a_{12}a_{13} \\ a_{21}a_{22}a_{23} \\ a_{31}a_{32}a_{33} \end{vmatrix} = a_{11}\,a_{22}\,a_{33} + a_{12}\,a_{23}\,a_{31} + a_{13}\,a_{21}\,a_{32} - a_{13}\,a_{22}\,a_{31} - a_{12}\,a_{21}\,a_{33} - a_{11}\,a_{23}\,a_{32}$

kabi aniqlanadi.

Misol :

$A = \begin{pmatrix} 1 & 3 & 4 \\ -2 & 5 & 7 \\ 0 & 2 & 1 \end{pmatrix}$ matritsaning determinantini hisoblang .

$|A| = \begin{vmatrix} 1 & 3 & 4 \\ -2 & 5 & 7 \\ 0 & 2 & 1 \end{vmatrix} = 1\cdot5\cdot1+4\cdot(-2)\cdot1+3\cdot7\cdot0-4\cdot5\cdot0-1\cdot7\cdot2-3\cdot(-2)\cdot1=-11$

Javob: -11

Determinantning xossalarini isbotlash.

Determinant quyidagi xossalarga ega:

1) Agar determinantni biror satri (yoki ustuni) ning barcha elementlari nolga teng bo‘lsa, u holda uning qiymati nolga teng bo‘ladi. Masalan ,

$\begin{vmatrix} 0 & 5 & 4 \\ 0 & 2 & -3 \\ 0 & 1 & 6 \end{vmatrix} = 0\cdot2\cdot6+5\cdot(-3)\cdot0+4\cdot0\cdot1-4\cdot2\cdot0-5\cdot0\cdot6-0\cdot(-3)\cdot1=0$

2) Diagonal matritsaning determinanti diagonal elementlarining ko‘paytmasiga teng, ya’ni

$\det(A) = a_{11}\cdot a_{22}\cdot a_{nn} = \prod_{i=1}^{n} a_{ii}$.

Masalan, $\begin{vmatrix} 0 & 5 & 4 \\ 0 & 2 & -3 \\ 0 & 1 & 6 \end{vmatrix} = 2\cdot5\cdot1=10$

4) Determinantning biror satri (yoki ustuni) elementlarini k(k) songa ko‘paytirish, determinantni shu songa ko‘paytirishga teng kuchlidir. Shuningdek, biror satr (yoki ustun) elementlarinig umumiy ko‘paytuvchisini determinant belgisidan tashqariga chiqarish mumkin, ya’ni

$$k \cdot \begin{vmatrix} a_{11}a_{12}a_{13} \\ a_{21}a_{22}a_{23} \\ a_{31}\ a_{32}\ a_{33} \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} ka_{11}\ ka_{12}\ ka_{13} \\ a_{21}a_{22}a_{23} \\ a_{31}\ a_{32}\ a_{33} \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} a_{11}a_{12}ka_{13} \\ a_{21}a_{22}\ ka_{23} \\ a_{31}\ a_{32}\ ka_{33} \end{vmatrix}$$

5) n-tartibli determinant uchun quyidagi tenglik o‘rinli: det (kA) = $k^n \cdot$det (A)

6) Determinantda ikkita satr (yoki ustun) o‘rinlari almashtirilsa < u holda uning ishorasi o‘zgaradi. Masalan ,

$$\begin{vmatrix} 2 & -3 & 1 \\ -1 & 5 & 0 \\ 4 & -2 & 1 \end{vmatrix} = 10+2+0-20-3=-1$$

7) Agar determinant ikkita bir xil satr (yoki ustun) ga ega bo‘lsa, u holda uning qiymati nolga teng bo‘ladi. Masalan,

$$\begin{vmatrix} 1 & 3 & -2 \\ 1 & 3 & -2 \\ 3 & -4 & 0 \end{vmatrix} = 0+8-18+18-8-0 = 0$$

8) Agar determinantni biror satri (yoki ustuni) elementlariga boshqa satri (yoki ustuni)ning mos elementlarini biror songa songa ko‘paytirib qo‘shilsa, u holda uning qiymati o‘zgarmaydi, ya’ni

$$\begin{vmatrix} a_{11}a_{12} & \dots & a_{1n} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{i1}a_{i2} & \dots & a_{in} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{n1}a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} a_{11}a_{12} & \dots & a_{1n} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{i1}+ka_{j1}a_{i2}+ka_{j2} & \dots & a_{in}+ka_{jn} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{n1}a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix}$$

Masalan,

$$\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2 & 4 & 5 \\ 3 & 5 & 1 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2+1\cdot 2 & 4+2\cdot 2 & 5+2\cdot 3 \\ 3 & 5 & 1 \end{vmatrix}$$

haqiqatdan ham, tenglikning chap tarafi

$$\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2 & 4 & 5 \\ 3 & 5 & 1 \end{vmatrix} = 4+30+30-36-4-25=-1$$

o‘ng tarafi esa

$$\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2+1\cdot 2 & 4+2\cdot 2 & 5+2\cdot 3 \\ 3 & 5 & 1 \end{vmatrix} = 8+66+60-72-55-8=-1$$

Demak,tenglik o‘rinli.

9) Agar determinantni ikki satri(yoki ustuni)ning mos elementlari proporsional bo‘lsa, u holda uning qiymati nolga teng bo‘ladi, ya’ni

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ ka_{11} & ka_{12} & ka_{13} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & ka_{11} \\ a_{21} & a_{22} & ka_{21} \\ a_{31} & a_{32} & ka_{31} \end{vmatrix} = 0$$

Masalan,

$$\begin{vmatrix} 6 & 8 & 4 \\ 12 & 6 & 8 \\ 3 & 4 & 2 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} 2\cdot 3 & 2\cdot 4 & 2\cdot 2 \\ 12 & 6 & 8 \\ 3 & 4 & 2 \end{vmatrix} = 72+192+192-72-192-192=0$$

10)Transponirlash natijasida determinantning qiymati o‘zgarmaydi. Masalan,

$$\begin{vmatrix} -1 & 3 & 2 \\ 0 & 6 & 2 \\ 5 & 4 & 1 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} -1 & 0 & 5 \\ 3 & 6 & 4 \\ 2 & 2 & 1 \end{vmatrix} = -6+0+30-60+8-0=-28$$

11)Agar determinantni biror satri(yoki ustunini)ning har bir elementi ikki qo‘shiluvchi yig‘indisidan iborat bo‘lsa, u holda determinant ikki determinant yig‘indisiga teng bo‘lib, ulardan birining tegishli satri(yoki ustuni) birinchi qo‘shiluvchilardan iborat bo‘ladi, ya’ni

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{i1}+b_{i1} & a_{i2}+b_{i2} & \dots & a_{in}+b_{in} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix} =$$

$$= \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{i1} & a_{i2} & \dots & a_{in} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ b_{i1} & b_{i2} & \dots & b_{in} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix}$$

12) Agar determinantni satr(yoki ustun) laridan biri qolgan satr(yoki ustun) larining chiziqli kombinatsiyasidan iborat bo‘lsa, u holda uning qiymati nolga teng bo‘ladi. Masalan,

$$\begin{vmatrix} 2 & 3 & 16 \\ -2 & 1 & 0 \\ 3 & -2 & -2 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} 2 & 3 & 2\cdot 2+4\cdot 3 \\ -2 & 1 & -2\cdot 2+4\cdot 1 \\ 3 & -2 & 3\cdot 2-4\cdot 2 \end{vmatrix} = 0$$

13) Toq tartibli har qanday qiya simmetrik matritsaning determinant nolga teng bo‘ladi. Masalan,

$$\begin{vmatrix} 0 & -3 & 4 \\ 3 & 0 & -5 \\ -4 & 5 & 0 \end{vmatrix} = 0+60-60+0+0+0=0$$

14) Bir xil tartibli ikkita matritsalarning ko‘paytmasining determinant, bu matritsalar determinantlarining ko‘paytmasiga teng, ya’ni

$\det(A\cdot B)= \det(A)\cdot\det(B)$

Yettinchi tartibli determinantni hisoblaymiz:

$$18\cdot\begin{vmatrix} 9 & 2 & 1 & 1 & 8 & -4 & 6 \\ 13 & -10 & 1 & -1 & 4 & 7 & -7 \\ 6 & 4 & 2 & 2 & 14 & -13 & 5 \\ -1 & 4 & -4 & 8 & 2 & 3 & 9 \\ -16 & -5 & 1 & 6 & 7 & 1 & 3 \\ \mathbf{-3} & \mathbf{-2} & \mathbf{1} & \mathbf{-1} & \mathbf{-9} & \mathbf{-5} & \mathbf{-5} \\ 2 & 3 & 11 & 7 & -4 & 19 & 20 \end{vmatrix} =$$

$$=54\cdot\begin{vmatrix} 2 & 1 & 1 & 8 & -4 & 6 \\ -10 & 1 & -1 & 4 & 7 & -7 \\ 4 & 2 & 2 & 14 & -13 & 5 \\ 4 & -4 & 8 & 2 & 3 & 9 \\ -5 & 1 & 6 & 7 & 1 & 3 \\ 3 & 11 & 7 & -4 & 19 & 20 \end{vmatrix} +$$

$$+(-36)\cdot\begin{vmatrix} 9 & 1 & 1 & 8 & -4 & 6 \\ 13 & 1 & -1 & 4 & 7 & -7 \\ 6 & 2 & 2 & 14 & -13 & 5 \\ -1 & -4 & 8 & 2 & 3 & 9 \\ -16 & 1 & 6 & 7 & 1 & 3 \\ 2 & 11 & 7 & -4 & 19 & 20 \end{vmatrix} +$$

$$+(-18)\cdot\begin{vmatrix} 9 & 2 & 1 & 8 & -4 & 6 \\ 13 & -10 & -1 & 4 & 7 & -7 \\ 6 & 4 & 2 & 14 & -13 & 5 \\ -1 & 4 & 8 & 2 & 3 & 9 \\ -16 & -5 & 6 & 7 & 1 & 3 \\ 2 & 3 & 7 & -4 & 19 & 20 \end{vmatrix} +$$

Determinantlar kundalik hayotimizda juda ko‘p sohada ta’sir ko‘rsatadigan matematik vositalardan biridir. Ular muhandislik va iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, geometriyada determinantlar yordamida uchburchak yoki ko‘pburchak yuzasini hisoblash mumkin .

Navigatsiya sistemalarida determinantlar yo‘nalishlarni hisoblash uchun ishlatiladi .

Iqlim o‘zgarishlarini prognoz qilishda determinantlar asosida ma’lumotlar tahlil qilinadi .

Muhandislikda determinantlat yordamida konstruktsiya barqrorligini tekshirish mumkin. Masalan, ko‘prik qurilishi yoki binolar loyihasida kuchlarning taqsimlanishi determinanrlar orqali aniqlanadi .

Elektr sistemalaridagi tok va kuchlanish qiymatlarini hisoblashda determinantlar ishlatiladi.

Determinantlarni yaxshi tushunish amaliy masalalarni aniq va samarali hal qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Васильева Н. И. , Кучеренко Э. Г. , Минабудинова Р. Ш .Элементы линейной алгебры. Типовой расчёт № 2 . ОмГУ . Омск . 1993 .

2. Щипачев И. С. Основы высшей математики . М. : Высш. шк. 1998. 200 с.

3. Стругов Ю. Ф. ,Троценко Г. А. Назарук Е. М.Элементы линейной алгебры . Омск: изд-во ОмГУ . 1998. 36 с.

4. Фирдман А. И., Назарук Е. М.Методические указания и контрольные работы №1-5 по высшей математики . ОмГУ .Омск 2002. 142 с.

5. Веснина А. А., Стругова Т. М.Методические указания и контрольные работы №1-5 по высшей математики . ОмГУ .Омск 2005. 120 с.

6. Xashimov A. R., Babajanov Sh. Sh., Xujaniyozova G. S. Iqtisodchilar uchun matematika. Darslik T.: “Иқтисод-молия”. 2019. 1232 b.

7. Татарникова О. В., Швед Е. В. Высшая математика для экономистов. Практикум. М.: Кнорус. 2020. 317 с.

8.Татарникова О. В., Швед Е. В. ,Шершнев В. Г. Высшая математика для экономистов. Учебник. М.: Кнорус. 2021. 630 с.

Ziyoda UZAQOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, talaba

O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (Texnologiya fani misolida)

Annotatsiya

Maqolada texnologiya fani o‘qituvchilarining zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish usullari tahlil qilinadi. XXI asrda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), 3D-modellashtirish, gamifikatsiya va STEAM yondashuvi kabi innovatsion metodlarni joriy etishning ahamiyati ortib bormoqda. Maqolada ushbu texnologiyalarning o‘quv jarayoniga ta’siri, samaradorligi hamda o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekiston va jahon ta’lim tizimida bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar va ilg‘or tajribalar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, texnologiya fani o‘qituvchilariga metodik tavsiyalar beriladi.

Tayanch so‘zlar. Kreativlik, zamonaviy texnologiyalar, texnologiya fani, innovatsion ta’lim, STEAM yondashuvi, sun’iy intellekt, virtual reallik, 3D-modellashtirish, gamifikatsiya, pedagogik metodlar.

В данной статье анализируются способы, которыми преподаватели технических дисциплин развивают творческие способности учащихся с помощью современных технологий. В XXI веке возрастает значение внедрения в образовательный процесс таких инновационных методов, как цифровые технологии, искусственный интеллект, виртуальная реальность (VR), дополненная реальность (AR), 3D-моделирование, геймификация и подход Steam. В статье научно освещается влияние этих технологий на учебный процесс, их эффективность, а также роль в формировании у учащихся способности к творческому мышлению. Также будут проанализированы исследования и передовой опыт, проводимые в Узбекистане и мировой системе образования. На основании результатов исследований даются методические рекомендации преподавателям технических дисциплин.

Ключевые слова. Креативность, современные технологии, наука о технологиях, инновационное образование, подход Steam, искусственный интеллект, виртуальная реальность, 3D-моделирование, геймификация, педагогические методы.

This article will analyze the methods of development of creative abilities of students using modern technologies of teachers of technology. In the 21st century, the importance of introducing innovative techniques such as digital technologies, artificial intelligence, virtual reality (VR), augmented reality (AR), 3D modeling, gamification, and the STEAM approach to the educational process is increasing. The article will scientifically highlight the impact, effectiveness of these technologies on the educational process and their role in the formation of students ‘ creative thinking skills. Also, in Uzbekistan and the world education system, research and advanced experiments in this regard are analyzed. Based on the results of the study, teachers of technology are given methodological recommendations.

Key words. Creativity, modern technology, technology science, innovative education, STEAM approach, Artificial Intelligence, virtual Reality, 3D modeling, gamification, pedagogical methods.

Kreativlik – bu insonning yangi va original g‘oyalarni yaratish, muammolarni noan’anaviy usullar bilan hal qilish qobiliyatidir. Ta’lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashii, muammolarni tahlil qilish va

innovatsion yechimlarni topish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga zamin yaratadi.

Muammolarni hal qilish: kreativ fikrlash o‘quvchilarga murakkab muammolarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish va innovatsion yechimlarni topishga yordam beradi.

Moslashuvchanlik: kreativlik o‘quvchilarning o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslashish qobiliyatini oshiradi, bu esa zamonaviy dunyoda muhim ahamiyatga ega.

Ijodiy o‘sish: kreativlikni rivojlantirish o‘quvchilarning san’at, adabiyot, ilm-fan va texnologiya sohalarida ijodiy yutuqlarga erishishiga imkon beradi.

Tanqidiy fikrlash: kreativlik tanqidiy fikrlash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarning axborotni tahlil qilish va baholash qobiliyatini rivojlantiradi.

Muammoli ta’lim: o‘quvchilarga muammolarni mustaqil hal qilish vazifalarini berish orqali ularning kreativ fikrlashini rag‘batlantirish.

Loyihaviy ta’lim: o‘quvchilarni real loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish, bu esa ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Interfaol metodlar: munozara, debat va rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilarning kreativ fikrlashini faollashtirish.

Kreativlikni rivojlantirish ta’limning barcha bosqichlarida muhim bo‘lib, bu jarayonda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish.

Zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ular o‘quvchilarga real muammolarni hal qilish, o‘z g‘oyalarini vizualizatsiya qilish va yangi narsalarni sinab ko‘rish imkonini beradi. Quyida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda eng samarali texnologiyalar tahlil qilinadi.

Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) VR (Virtual Reality – Virtual Reallik)

Virtual reallik texnologiyasi maxsus qurilmalar (VR – ko‘zoynaklar, sensorli qo‘lqoplar) yordamida o‘quvchilarni simulyatsiya qilingan muhitga joylashtirishga imkon beradi. Bu metod o‘quvchilarga tajriba asosida o‘rganish imkonini beradi. Masalan: texnologiya darslarida VR yordamida sanoat jarayonlarini modellashtirish, murakkab texnologik tizimlarning ishlashini tushuntirish mumkin. Muhandislik va dizayn bo‘yicha ta’limda o‘quvchilar o‘z loyihalarini virtual muhitda sinab ko‘rishlari va tahlil qilishlari mumkin.

AR (Augmented Reality – Kengaytirilgan Reallik) AR texnologiyasi esa real muhitga raqamli elementlarni qo‘shish orqali o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada jonlantiradi. Masalan: texnologiya va muhandislik fanlarida AR orqali qurilish jarayonlarini, texnik detallarni uch o‘lchamli shaklda ko‘rsatish mumkin. Interaktiv o‘quv materiallari orqali o‘quvchilar texnologik jarayonlarni real muhitda tushunishlari osonlashadi. Bu texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning mavzularni yaxshiroq tushunishiga va kreativ tafakkurini rivojlantirishga erishish mumkin.

Sun’iy intellekt (AI) va ta’lim dasturlari:

Sun’iy intellekt (AI) asosida ishlab chiqilgan dasturlar o‘quvchilarning o‘qish jarayonini individuallashtirish va ularning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

AI yordamida moslashtirilgan ta’lim: sun’iy intellekt o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga shaxsiy o‘quv dasturlarini tavsiya qiladi.

Chatbot va virtual yordamchilar: AI yordamida ishlaydigan chatbotlar o‘quvchilarga mustaqil ravishda muammolarni hal qilishda yordam beradi.

AI asosidagi dizayn va san’at dasturlari: DALL-E, Deep Dream kabi AI dasturlari o‘quvchilarga yangi ijodiy loyihalarni yaratishda yordam beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonida kreativ fikrlashni rag‘batlantiradi va o‘quvchilarga yangi texnologiyalar bilan ishlash tajribasini taqdim etadi.

3D-modellashtirish va loyihaviy ta’lim:

3D-modellashtirish texnologiyalari o‘quvchilarga real loyihalarni ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish imkonini beradi.

Tinkercad, Blender, AutoCAD kabi dasturlar orqali o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini vizual shakllantirishlari mumkin.

3D-printerlar yordamida o‘quvchilar loyihalarini real shaklda yaratib, ulardan foydalanish imkoniga ega bo‘ladilar.

Loyihaviy ta’lim – o‘quvchilarga mustaqil va jamoaviy ish olib borish imkoniyatini beruvchi metod bo‘lib, 3D-modellashtirish bu jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Gamifikatsiya va interaktiv o‘qitish:

Gamifikatsiya – o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini qo‘shish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish usulidir. Bunda:

O‘yin orqali o‘qitish – o‘quvchilarga qiziqarli topshiriqlar berish orqali ularga yangi bilimlarni o‘rgatish.

Mukofot va reyting tizimlari – o‘quvchilarni faol ishtirok etishga rag‘batlantirish uchun ballar, sertifikatlar berish.

Interaktiv muammolar va ssenariylar – o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o‘yin shaklidagi masalalar berish.

Gamifikatsiya ta’limni yanada qiziqarli va samarali qiladi, bu esa o‘quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi.

5. STEAM yondashuvi va kreativ tafakkurni shakllantirish:

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) – bu tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini integratsiyalashgan holda o‘qitish metodikasidir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga va ularni innovatsion yondashuvlar orqali real muammolarni hal qilishga tayyorlashga xizmat qiladi. STEAM yondashuvi nima va uning afzalliklari

STEAM modeli an’anaviy ta’lim tizimidan farqli ravishda o‘quvchilarni o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga o‘rgatadi. Uning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Fanlararo bog‘liqlik – o‘quvchilar muammolarni turli fanlar nuqtai nazaridan tahlil qilishni o‘rganadilar.

Amaliyotga yo‘naltirilganlik – o‘quvchilarga real hayotga mos keladigan loyihalar ustida ishlash imkoniyati beriladi.

Kreativ fikrlashni rag‘batlantirish – o‘quvchilar muammolarni yangicha yondashuvlar orqali hal qilishni o‘rganadilar.

Jamoaviy ishlash ko‘nikmalari – STEAM loyihalarida jamoaviy ish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun muhim.

1. Ilmiy izlanish va eksperimentlar – O‘quvchilar mustaqil tadqiqot olib boradilar va ilmiy jarayonlarni tushunishlari uchun tajribalar o‘tkazadilar.

2. Muhandislik va texnologik loyihalar – 3D-printerlardan foydalanish, robototexnika loyihalarini yaratish, kod yozish.

3. San’at va dizayn – Grafika va dizayn elementlarini STEAM loyihalariga qo‘shish, vizual taqdimotlar yaratish.

Matematika va tahliliy fikrlash – Loyihalarda matematik modellar, algoritmlar va hisob-kitoblardan foydalanish. Texnologiya fani o‘qituvchilari STEAM metodikasi asosida quyidagi vositalardan foydalanishlari mumkin:

Arduino va Raspberry Pi – O‘quvchilarga elektron qurilmalar va dasturlash asoslarini o‘rgatish.

3D-modellashtirish va 3D-printerlar – O‘quvchilarning o‘z g‘oyalarini jismoniy obyektlarga aylantirish imkoniyati. VR va AR texnologiyalari – O‘quvchilarning interaktiv o‘quv jarayoniga sho‘ng‘ishlarini ta’minlash.

Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili – o‘quvchilarga ma’lumotlarni qayta ishlash va AI algoritmlari bilan ishlash ko‘nikmalarini berish. Dunyoning rivojlangan davlatlarida STEAM yondashuvi ta’lim tizimiga keng joriy etilgan. Misol uchun: AQSh – MIT Media Lab va Google for Education kabi tashabbuslar orqali STEAM ta’limi rivojlantirilmoqda.

Finlandiya – Ta’lim tizimi loyihaviy yondashuv va interfaol o‘quv uslublariga asoslangan.

Singapur – STEAM ta’limi orqali yosh muhandislar va innovatorlarni tayyorlash bo‘yicha ilg‘or dasturlar mavjud.

O‘zbekistonda STEAM yondashuvi: maktab va oliy ta’lim muassasalarida STEAM laboratoriyalari tashkil etilmoqda. Prezident maktablari va ixtisoslashgan ta’lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalar joriy qilinmoqda. Yoshlar uchun texnologik innovatsiyalar markazlari ochilib, turli IT-loyihalar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonida kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. Texnologiya fani o‘qituvchilari ushbu texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvlari va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin.

Tadqiqot davomida quyidagi muhim jihatlar aniqlangan:

Kreativlik – XXI asrda eng muhim kompetensiyalardan biri

Kreativ tafakkur bugungi kunda shaxsiy va professional rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi. O‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish ularga kelajakda innovatsion g‘oyalar yaratish va yangi texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar kreativ fikrlashni shakllantirishda asosiy vositalardan biri virtual reallik, kengaytirilgan reallik, sun’iy intellekt, 3D-modellashtirish va gamifikatsiya usullari o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rag‘batlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu texnologiyalar o‘quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish orqali bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

STEAM yondashuvi kreativlikni rivojlantirish uchun eng samarali metodikalardan biri STEAM yondashuvi orqali o‘quvchilar ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani integratsiyalashgan holda o‘rganishadi. Bu ularning amaliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, turli fanlar bo‘yicha mustahkam bilim olishlariga xizmat qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, kreativ tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimlari eng samarali hisoblanadi.

AQSh, Finlandiya, Singapur kabi davlatlarda kreativlik va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun maxsus metodikalar qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda ham bu borada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, xususan, STEAM ta’limi, IT-parklar va texnologik laboratoriyalar tashkil etilmoqda.

Texnologiya fani o‘qituvchilari zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi metodikalardan foydalanishlari mumkin:

1. Interfaol va innovatsion ta’lim usullaridan foydalanish:

O‘qituvchilar dars jarayonida faqat an’anaviy yondashuvlardan emas, balki quyidagi metodlardan ham foydalanishlari zarur:

Loyihaviy ta’lim – o‘quvchilarga real muammolarni hal qilish bo‘yicha loyihalar berish.

Muammoli ta’lim – muayyan texnologik vaziyatni keltirib chiqarish va o‘quvchilardan mustaqil yechim izlashni talab qilish.

Gamifikatsiya – darslarga o‘yin elementlarini joriy etish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish.

Ijtimoiy o‘rganish (collaborative learning) – o‘quvchilarga jamoaviy ishlash, bilim almashish va fikr almashish imkoniyatlarini yaratish.

2. Zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish:

Texnologiya fanini o‘qitishda quyidagi zamonaviy vositalarni qo‘llash maqsadga muvofiq:

VR va AR texnologiyalari – o‘quvchilarni virtual muhitda murakkab texnologik jarayonlar bilan tanishtirish.

3D-modellashtirish va 3D-printerlar – o‘quvchilarga o‘z g‘oyalarini vizual shakllantirish va real hayotga tatbiq etish imkoniyatini berish.

Sun’iy intellekt va dasturlash – o‘quvchilarning AI va dasturlash asoslarini o‘rganishlarini ta’minlash.

Elektron platformalar va mobil ilovalar – o‘quvchilarga onlayn ta’lim materiallari, interaktiv kurslar va masofaviy ta’lim vositalaridan foydalanish imkonini berish.

3. STEAM yondashuvini ta’lim tizimiga keng joriy etish:

STEAM metodikasini qo‘llash orqali o‘quvchilarga quyidagi imkoniyatlar yaratish mumkin:

STEM laboratoriyalarini rivojlantirish – texnologiya va muhandislikka oid amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun maxsus laboratoriyalar tashkil etish.

Ijodiy loyihalar va tanlovlar – o‘quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish uchun ilmiy loyihalar, startap tanlovlari tashkil etish.

IT va texnologiya bo‘yicha qo‘shimcha kurslar – o‘quvchilarga dasturlash, muhandislik va texnologiyalar bo‘yicha qo‘shimcha bilim berish.

4. O‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish:

Zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga samarali joriy etish uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish lozim. Bunda quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish kerak:

Pedagoglar uchun trening va seminarlar – innovatsion ta’lim metodikalarini o‘rganish uchun maxsus kurslar va o‘quv dasturlari.

Xalqaro tajriba almashinuvi – jahonning ilg‘or ta’lim tizimlari bilan tajriba almashish va innovatsion metodikalarni o‘zlashtirish.

Ilmiy tadqiqot va maqolalar yozish – o‘qituvchilarning texnologiyalar va kreativ ta’lim metodikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash, kelajak istiqbollari, zamonaviy texnologiyalar ta’lim tizimini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. O‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ularning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor yaratadi. Kelajakda quyidagi sohalarga e’tibor qaratish muhim:

AI va robototexnika bo‘yicha maxsus kurslar – o‘quvchilarga sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘rgatish.

Ta’lim jarayonida blokcheyn texnologiyasidan foydalanish – o‘quvchilarning natijalarini blokcheyn orqali kuzatish va baholash tizimini takomillashtirish.

Virtual ta’lim muhitini rivojlantirish – VR, AR va onlayn platformalar yordamida masofaviy va interfaol ta’limni kengaytirish.

Texnologiya fani o‘qituvchilari zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish orqali o‘quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishlari mumkin. Virtual va kengaytirilgan reallik, sun’iy intellekt, gamifikatsiya, 3D-modellashtirish kabi texnologiyalar orqali ta’lim jarayoni yanada interfaol va samarali bo‘ladi. STEAM yondashuvi esa o‘quvchilarga ilmiy va ijodiy yondashuvni uyg‘unlashtirgan holda rivojlanish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aqsholpan, N. (2021). STEAM-ta’lim metodikasi va uning o‘quv jarayonidagi roli. Ta’lim va innovatsiyalar jurnali. 2021.

2. Bekmurodov, I. O‘zbekistonda STEAM ta’limini rivojlantirish istiqbollari. O‘zbekiston pedagogika ilmiy-amaliy jurnali. 2023.

3. Drigas, A. S., & Ioannidou, R. E. Artificial intelligence in special education: A decade review. International Journal of Engineering Education. 2013.

Mashhura KADIROVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d.(PhD)

ADABIYOT DARSLARIDA XALQ OG‘ZAKI IJODINI O‘QITISHNING AHAMIYATI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya

Maqolada adabiyot darslarida xalq og‘zaki ijodini o‘rganishning ahamiyati va uning ta’lim jarayonidagi ilmiy asoslari tahlil etilgan. Shuningdek, adabiyot darslarini samarali tashkil etish uchun interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, ijodiy yondashuv va tadqiqot usullaridan foydalanish zarurligi asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar. Xalq og‘zaki ijodi, interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, ijodiy yondashuv, multimediali materiallar, elektron kitoblar, audiovizual vositalar.

В статье анализируется значение изучения устного народного творчества на уроках литературы и его научное обоснование в образовательном процессе. Обосновано также необходимость использования интерактивных методов, информационных технологий, творческого подхода и методов исследования для эффективной организации уроков литературы.

Ключевые слова. Устное народное творчество, интерактивные методы, информационные технологии, творческий подход, мультимедийные материалы, электронные книги, аудиовизуальные носители.

The article analyzes the importance of studying folk oral creativity in Literature lessons and its scientific foundations in the educational process. It is also based on the need to use interactive methods, information technology, creative approach and research methods to effectively organize literature classes.

Key words. Folk oral creativity, interactive methods, information technology, creative approach, multimedia materials, e-books, audiovisual tools.

Adabiyot darslarida xalq og‘zaki ijodini o‘qitish yosh avlodning milliy madaniyatga bo‘lgan hurmatini oshirish, ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va badiiy didini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ta'lim tizimida xalq og‘zaki ijodini o‘rganishning innovatsion usullari ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xalq og‘zaki ijodi millatning madaniy merosi bo‘lib, unda ajdodlar donishmandligi, axloqiy qadriyatlari va tarixiy tajribasi mujassamlangan. Ertaklar, dostonlar, maqollar va topishmoqlar bolalar uchun nafaqat qiziqarli hikoyalar balki, ularga axloqiy saboq beruvchi manba hamdir. Xalq ijodi namunalarini o‘rganish orqali o‘quvchilar o‘z ona tilining jozibasini anglaydi va milliy ong shakllanadi.

Folklorni insonlar hayotidagi o‘rni, xalq og‘zaki ijodi qadim zamonlardan buyon jahon xalqlarining, shu jumladan, o‘zbek xalqi pedagogikasining ham tarbiya vositasi bo‘lib kelganligi va zamonamizda ham o‘z qimmatini yo‘qotmaganligini qayd etishimiz zarur. A.Yu.Teshaboyev o‘z tadqiqotida “Ayni paytda o‘zbek xalq og‘zaki ijodi xalq pedagogikasining beqiyos darajada boy va betakror, bitmas-tuganmas zo‘r

zarchashmasidir.” degan g‘oyani ilgari surgan.

D.I.Ro‘ziyeva dissertatsiyasida xalq og‘zaki ijodi janrlarini milliy iftixor tuyg‘usini tarbiyalovchi alohida ta’sir kuchiga ega omillardan biri sifatida qayd etadi.

Hozirgi kunda adabiyot darslarida xalq og‘zaki ijodini o‘qitish jarayonida quyidagi zamonaviy yondashuvlar qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Interfaol metodlar – Klaster, “Aqliy hujum”, “Venn diagrammasi”, “Muammoli ta’lim” kabi usullar yordamida o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirish va faol ishtirok etishini ta’minlash;

Raqamli texnologiyalar – multimediali materiallar, elektron kitoblar, audiovizual vositalar orqali darslarni jonli va qiziqarli tarzda o‘tish;

Loyiha asosida o‘qitish – o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha tadqiqot olib borishlari va o‘z natijalarini taqdimot qilishlari orqali mustaqil fikrlashlarini rivojlantirish;

Integrativ yondashuv – xalq og‘zaki ijodini tarix, san’at, musiqa va boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘rganish, shu orqali fanlararo aloqalarni mustahkamlash;

O‘yinga asoslangan ta’lim – xalq ertaklari va dostonlarini sahnalashtirish, rolli o‘yinlar tashkil qilish orqali bolalarning aktyorlik mahoratini va badiiy tafakkurini rivojlantirish;

Kontekstual o‘qitish – dars jarayonida o‘quvchilarning kundalik hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlarni yaratish orqali xalq og‘zaki ijodining amaliy ahamiyatini ochib berish;

Muhokama va debatlar – xalq og‘zaki ijodidagi qahramonlarning xarakterlarini tahlil qilish, ularning xatti-harakatlari haqida bahslashish orqali o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish.

Bugungi kunda o‘qitishning quyidagi bir qator qiyinchiliklariga duch kelinishi mumkin:

1. O‘quvchilarning diqqatini uzoq vaqt saqlab qolish qiyinligi;
2. Zamonaviy texnologiyalarning yetarli darajada qo‘llanilmasligi;
3. O‘qituvchilarning interfaol va innovatsion metodlarni bilishi va ulardan samarali foydalanish darajasi pastligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun darslarni qiziqarli interfaol shaklda o‘tkazish, vizual va audiomateriallardan keng foydalanish, shuningdek, o‘quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qiluvchi o‘yin elementlarini qo‘shish muhim ahamiyatga ega.

Umumta’lim maktablarida folklorni o‘rganish nafaqat o‘quvchilarning adabiy-estetik didini shakllantiradi, balki ularning madaniy va axloqiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Folklor darslarini zamonaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi va milliy madaniyatni kelgusi avlodlarga yetkazish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Xalq og‘zaki ijodining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi o‘quvchilarning ona Vataniga bo‘lgan mehrini oshirish, ularning muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va ularni ijodiy fikrlashga undash uchun muhim vosita hisoblanadi. Ertaklar bolalarning tasavvurini kengaytirib, ularga yaxshilik va yomonlikni ajrata olishga yordam bersa, maqollar va topishmoqlar – o‘quvchilarning nutq boyligini oshiradi, ularga hayotiy tajriba va donishmandlikni o‘rgatadi. Doston va afsonalar tarixiy voqealarni anglash va milliy g‘ururni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xalq qo‘shiqlari esa madaniy merosni saqlash va musiqiy didni shakllantirishga asos bo‘ladi. Umumta’lim maktablarida xalq og‘zaki ijodini ilmiy asosda o‘qitish o‘quvchilarga nafaqat adabiy-estetik zavq bag‘ishlaydi, balki ularga

xalq donishmandligi va madaniyatini chuqur anglash imkoniyatini ham beradi.

Xalq og‘zaki ijodining turli janrlarini samarali o‘qitish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

Umumta’lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilari uchun maqollar va topishmoqlarni o‘rganish bo‘yicha quyidagi metodlarni tavsiya qilish mumkin:

1. Tahliliy taqqoslash – o‘quvchilarga bir nechta maqol berilib, ularning ma’nosini tahlil qilish va hayotiy misollar bilan bog‘lash topshiriladi.

2. Maqolni davom ettirish – o‘qituvchi maqolning bir qismini aytadi, o‘quvchilar esa uning mantiqiy yakunini topadilar.

3. Tadqiqot metodi – o‘quvchilar oilalaridan yoki katta yoshlilardan o‘z hududlariga xos maqollarni yig‘ib, ularning kelib chiqishi va qo‘llanilish holatlarini o‘rganadilar.

4. Jamoaviy musobaqa – o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib, bir-birlariga sonlar ishtirokidagi topishmoqlar aytishadi va javob topishga harakat qilishadi.

5. Ijodiy yondashuv – o‘quvchilar o‘zlari yangi topishmoqlar yaratadilar va sinfdoshlari ularni yechishga harakat qilishadi.

6. Rasmli topishmoqlar – o‘quvchilarga rasm berilib, shu rasm asosida topishmoq tuzish topshiriladi.

Dostonlarni o‘rganish bo‘yicha esa quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

Rolli o‘yin va sahnalashtirish – o‘quvchilar doston qahramonlarining rollarini o‘ynab, ularning harakatlarini va xarakterlarini chuqurroq tushunishadi.

Matnni taqqoslash – biror dostonning turli versiyalarini o‘rganib, o‘zgarishlar va tafovutlarni muhokama qilish.

Audiovizual yondashuv – dostonlarga oid multfilmlar yoki audio yozuvlarni tinglash orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish.

Tahliliy yozma ish – o‘quvchilar doston qahramonlarining fazilatlari haqida insho yozadilar va ularning bugungi jamiyatdagi o‘rnini muhokama qiladilar.

Folklor darslarini loyihalash jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish texnologiyasi asosida ularning obyektiv faoliyatini amalga oshirish quyidagilar orqali belgilanadi:

– folklor materialini o‘zlashtirish va u haqida bilim hosil qilish;

– o‘zlashtirilgan bilimni qiyoslash asosida umumlashtirish;

– umumlashtirilgan bilim asosida xulosalar chiqarish;

– tafakkurni rivojlantirishga mo‘ljallangan kichik yoki katta hajmli, nasriy, she’riy, she’riy-nasriy, dramatik turdagi folklor materiali bo‘yicha topshiriqlardan o‘quv faoliyatida foydalanish;

– folklor materiali bo‘yicha hosil qilingan nazariy bilimlarni turli vaziyatlar (matn ichidan talab qilingan so‘z, so‘z birikmasi, obrazni topish, matnda berilgan xalqona obrazli ifodalarni aniqlash, o‘xshashlarini topish, tasniflash)ga tatbiq eta bilish;

– egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llay olish va hokazo.

Umumta’lim maktablarida folklor janrlarini turli innovatsion, kreativ yondashuvlar asosida o‘rganish va uni ta’lim jarayoniga tatbiq etish o‘quvchilarning milliy o‘zligini mustahkamlash, estetik va axloqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish va xalq og‘zaki ijodining ilmiy-metodik asoslarini yanada chuqur o‘rganish kelajak avlodning madaniy va intellektual salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og‘zaki ijodini umumta’lim maktablarida o‘rganish o‘quvchilarning milliy o‘zligini anglashiga, ularning madaniy va axloqiy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, bu darslar o‘quvchilarning nutqiy, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday

ekan, xalq og‘zaki ijodini o‘qitish metodlarini yanada takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands. https://staff.tiiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf

2. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410

3. Kadirova M.H. "The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan, https://inlibrary.uz/index.php/crjps/article/view/17610

4. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. - T., 2009.

5. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. - T.: O‘qituvchi, 1990.

6. Mirzayeva S. O‘zbek realistik adabiyotida folklor an’analari. Folklorshunoslikdan o‘quv-uslubiy qo‘llanma.-T.: Istiqlol, 2005.

7. Sarimsoqov B. O‘zbek folklorining janrlar sostavi. //O‘zbek folklori ocherklari. 3 tomlik, 1 -tom. T.: Fan, 1988.

Iroda RO‘ZIBOYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, tayanch doktarant

TALABALARDA “MOTION DESIGN” – “MOTION GRAPHICS” DIZAYNERLIK MALAKA VA KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya

Maqolada kreativ sohalarning o‘sishi bilan birga, motion dizaynerlik ko‘nikmalari, reklama, media industriya, mobil ilovalar va ilmiy taqdimotlar kabi ko‘plab yo‘nalishlar motion dizayn texnologiyalari asosida rivojlanishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, motion dizaynerlik ko‘nikmalarining talabalarga taqdim etadigan afzalliklari, ularni o‘rganishning metodikalari va ta’limdagi ahamiyati haqida fikr yuritadi.

Tayanch so‘zlar. Motion dizayni, animatsiya, kreativlilik (ijodkorlik), kompyuter grafikasi, muhandislik grafikasi.

В статье рассматривается рост творческих отраслей, а также развитие многих областей, таких как навыки motion design, реклама, медиаиндустрия, мобильные приложения и научные презентации, на основе технологий motion design. Motion также размышляет о преимуществах, которые навыки проектирования предлагают студентам, методах их изучения и важности в образовании.

Ключевые слова. Дизайн движения, анимация, креативность (креативность), компьютерная графика, инженерная графика.

Along with the growth of creative industries, the article reflects on the development of many areas such as motion design skills, advertising, media industry, mobile applications and scientific presentations on the basis of motion Design Technologies. Motion also reflects on the advantages that design skills offer students, the methodologies of their learning, and their importance in education.

Key words. Motion design, animation, creativity, computer graphics, engineering graphics.

Motion dizayni – bu animatsiya orqali grafik elementlarni jonlantirish san’ati, grafik elementlarni harakatlantirish va ularning vizual ta’sirini kuchaytirish orqali ijodiy mazmun yaratish jarayonidir. U dinamik va jozibali vizual tarkibni yaratish uchun grafik dizayn, 2D va 3D animatsiya, tipografiya va maxsus effektlarni birlashtiradi. Harakat dizaynerlari o‘z ijodlarini yaratish uchun After Effects, Photoshop va Cinema 4D kabi turli xil dasturlardan foydalanadilar. Bu animatsiyalar kundalik hayotimizda hamma joyda mavjud: ijtimoiy tarmoqlarda, reklamalarda, filmlarda va hatto mobil ilovalarda. Ushbu soha kreativlik va texnologiyaning uyg‘unlashgan shakli bo‘lib, reklama, kino, video o‘yinlar va mobil ilovalardan tortib, ilmiy vizualizatsiyalargacha bo‘lgan keng ko‘lamli sohalarda qo‘llaniladi. Motion dizaynidagi muqobillik bu ijodiy va doimiy rivojlanib boruvchi sohada nazariya va amaliyotni birlashtirishni xohlovchi talabalar uchun qimmatli imkoniyatdir. Ushbu ta’lim modeli o‘quvchilarga o‘zlarining kelajakdagi martabalariga samarali tayyorgarlik ko‘rish imkonini beruvchi akademik va

professional jihatdan ko‘plab afzalliklarni taqdim etadi.

Motion dizaynning zamonaviy sohalardagi o‘rni va ushbu soha quyidagi yo‘nalishlarda keng qo‘llaniladi:

1. Reklama va marketing: brend imijini shakllantirish va iste’molchilar e’tiborini jalb qilishda motion dizayn asosiy rol o‘ynaydi.

2. Mobil ilovalar: interfeys dizayni va foydalanuvchi tajribasini yaxshilashda animatsiya va harakat elementlari muhim ahamiyatga ega.

3. Arxitektura va muhandislik: loyihalarni vizual tarzda taqdim etishda 3D animatsiya va harakatli grafikalar qo‘llaniladi.

Motion grafik dizaynini o‘rganish uchun dizayn, animatsiya va video tahrirlash ko‘nikmalarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bu fidoyilik, ijodkorlik va amaliy tajribani talab qiladi. Strukturaviy yondashuv sizga kerakli tajribani shakllantirishga va ushbu martaba yo‘lida ajralib turishga yordam beradi. Quyidagi qadamlar sizga qanday qilib motion grafik dizaynini tushunishga yordam beradi:

1-qadam: asosiy ko‘nikmalarni o‘rganish. Tipografiya, ranglar nazariyasi, tartib va animatsiya tamoyillari kabi grafik dizayn asoslarini tushunishdan boshlang. Vizual jihatdan jozibali animatsiyalarni yaratish uchun vaqt, interval va o‘tishlarga e’tibor qaratish lozim.

2-qadam: tegishli ko‘nikmalar va vositalarni olish. Animatsiya, video tahrirlash va 3D dizayn uchun Adobe After Effects, Premiere Pro, Cinema 4D yoki Blender kabi dasturlarni loyihalashda malakali bo‘ling. Bundan tashqari, audio integratsiya bilan vizual tasvirlaringizni to‘ldirish uchun ovozli dizaynni o‘rganish.

3-qadam: rasmiy ta’lim yoki kurslarni davom ettirish. Qattiq bilim va ishonchga ega bo‘lish uchun motion dizayni, animatsiya va video tahrirlash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan kurslar yoki seminarlarga yozilish. Ushbu kurs harakat grafik dizayneri bo‘lish yo‘lida foydali bo‘lgan ko‘nikmalar va tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi.

4-qadam: portfel yaratish. Kerakli ko‘nikmalarni rivojlantirgandan so‘ng, harakatlanuvchi grafik dizayner bo‘lishni o‘rganishning muhim qadamlaridan biri bu turli xil portfel yaratishdir. U sizning ijodingiz, mahoratingiz va ko‘p qirraliligingizni namoyish qilish uchun logotip animatsiyalari, tushuntiruvchi videolar va qisqa kliplar kabi asarlaringizni namoyish qilishi kerak. Yaxshi tayyorlangan portfel sizga potentsial mijozlar va ish beruvchilarni jalb qilishga yordam beradi.

5-qadam: amaliy tajriba orttirish. O‘z mahoratingizni real sharoitlarda qo‘llash uchun mustaqil loyihalar yoki stajirovkalar ustida ishlash. Ushbu amaliy tajriba sizning professional tarmog‘ingizni yaratishga yordam beradi, o‘rganishingizni yaxshilaydi va sizni sanoat tendentsiyalari haqida xabardor qiladi.

6-qadam: yangilanib turish (doimo izlaning). Quyidagi sanoat yangiliklari va tendensiyalaridan xabardor bo‘ling. Yangi vositalar va texnikalar bilan tajriba o‘tkazing va o‘z mahoratingizni doimiy ravishda takomillashtirish uchun dizayn hamjamiyatlarida qatnashish. Talabalar uchun motion dizaynerlikni o‘rganishning afzalliklari:1. Ijodkorlik va innovatsion fikrlash: animatsiyalar yaratish orqali talabalarda kreativlik rivojlanadi. Bu ularga ijodiy loyihalarda muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi. 2. Texnik bilimlarni mustahkamlash: zamonaviy dasturlar bilan ishlash orqali talabalar raqamli texnologiyalarni chuqurroq o‘zlashtiradilar. 3. Jamoaviy ishlash tajribasi: motion dizayn jamoaviy ishda muhim ahamiyat kasb etadigan sohalardan biri. Loyihalarda qatnashish orqali talabalar muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. 4. Mehnat bozorida ustunlik: motion dizayn bugungi mehnat bozorida yuqori talabga ega bo‘lgan sohalardan

biri bo‘lib, talabalar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, talabalar uchun motion dizaynerlik ko‘nikmalarini egallash ularning texnik, ijodiy va kommunikatsion salohiyatlarini oshiradi. Ushbu ko‘nikmalarni o‘rgatish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish lozim:

1. O‘quv dasturlariga motion dizayn bo‘yicha maxsus kurslarni kiritish.
2. Amaliy mashg‘ulotlar uchun texnologik vositalarni ta’minlash.
3. Akademik rejalarni real mehnat bozoridagi ehtiyojlarga moslashtirish.
4. Talabalarga amaliy tajriba olish imkonini beradigan loyihalarni tashkil etish.

Motion dizayn sohasi kelajakni shakllantiruvchi ijodiy va texnologik rivojlanishning muhim qismidir. Talabalar bu sohani egallash orqali nafaqat o‘z kelajagini, balki jamiyatni ham innovatsion rivojlanishga olib boradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jon Krasner “Motion Graphics: Principles and Practices” Videobook. 2022
2. Bandana Gaur “How to Become a Motion Graphic Designer: Steps, Skills, and Career Path”. 18.12.2024. https://www.digitalregenesys.com/blog#
3. E.Ro‘ziyev, A. Ashirboyev “Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi” Toshkent – “Fan va texnalogiya “ – 2010

Abduxamit QO‘SHBAQOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari”
kafedrasi o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASLARIDA FANLARNI O‘QITISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNING IMKONIYATLARI VA UNDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada SMART texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etishning nazariy manbalar tahlili, olib borilgan tadqiqot ishlari, talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda SMART texnologiyalaridan foydalanish o‘ziga xos afzalliklari, SMART texnologiyalarning xususiyatlari, amaliyotga tadbiq etish uchun qo‘yiladigan bosqichlar, taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar. SMART texnologiya, axborot, axborot texnologiyalari, axborot turlari, animatsiya, multimedia, media muhit, multimedia darsligi.

В данной статье представлен теоретический анализ ресурсов внедрения SMART -технологий в образовательную систему, проведенная исследовательская работа, конкретные преимущества использования SMART -технологий в развитии творческих способностей учащихся, особенности SMART -технологий, этапы внедрения, предложения и рекомендации. Кроме того, обучение на основе смарт-технологий.

Ключевые слова. SMART технология, информация, информационные технологии, виды информации, анимация, мультимедиа, медиасреда, мультимедийный учебник.

This article presents theoretical resource analysis of the introduction of SMART technologies into the educational system, research work carried out, the specific advantages of using SMART technologies in the development of students’ creativity abilities, features of SMART technologies, stages for implementation, proposals and recommendations. In addition, Smart technology-based training.

Key words. SMART texnologiya, Information, information technologies, types of information, animation, multimedia, media environment, multimedia textbook.

Ijodiy hamda kreativ salohiyatga ega bo‘lgan, o‘zgarayotgan dunyoda ishlash va fikrlashga qodir kadrlar tayyorlash bugungi kunning eng muhim masalasi hisoblanadi va SMART-ta’lim tizimini joriy qilishga olib kelmoqda. Bu masalaning negizida axborot madaniyatiga ega bo‘lgan, kerakli ma’lumotni tez va samarali izlab topish va foydalanish qobiliyatining majburiy talabga aylanishi yotadi. O‘z-o‘zidan ijtimoiy tarmoqlarda, elektron manbalarda ishlashda amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lmagan, shaxsiy bilimlar bazasini tuzishni bilmaydigan mutaxassisga ehtiyoj yo‘qoladi, hamda SMART ta’lim rivojlanadi.

Professor-o‘qituvchi talabalar uchun Zamonaviy kompyuterlar va ularning arxitekturasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni to‘playdi. Zamonaviy kompyuterlar va ularning arxitekturasi mavzusi SMART texnologiyalaridan foydalanish yo‘llarini tushuntiradi. SMART texnologiyalari talabalarni fanlarga oid yangi o‘quv materialini mustaqil o‘rganishlarini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, mavzuning asosiy mazmunini, umumiy bilimlar tizimining mohiyatini ochib berishini ta’minlaydi.

Shu bois onlayn, oflayn, gibrid va masofali ta’limga mo‘ljallangan axborot

vositalarining shiddat bilan hayotimizga kirib kelishi bizga ta'limda yangi vazifalarni keltirib chiqarmoqda. Shu o'rinda mezonlar, ularning maqsadlarini anglash va anglatish uslublarini ishlab chiqish, o'z-o'zini mo'tadillash, rostlash madaniyatini sayqal toptiruvchi telekommunikasion usul va stilistikasini yaratishga intilishning zarurligini bildiradi. SMART va kompyuter texnologiyasi talabalarda muhim ijtimoiy ehtiyojlarni faollashtiradi, chunki bu vositalarni kuzatish orqali tinglovchi yangi jarayonda o'z o'rni borligini his eta boshlaydi. SMART texnologiyalari orqali pedagog o'zining axborotlar majmuini ko'paytiribgina qolmasdan, dunyoning istalgan burchagidagi kasbdoshlari bilan amalda muloqotda bo'lish imkonini qo'lga kiritadi. Bu esa dars sifatini oshirishga hamda yangi usul texnologiyasi samaradorligi unda erishilgan natija, vaqt sifati bilan baholanishini hisobga olsak, u paytda ta'lim jarayonida ham yangi sifat tomonlarini shakllantirishga to'g'ri keladi.

Inson aqliy faoliyatining katta yutug'i bo'lgan kompyuterlar o'qitish jarayonini takomillashtirishda ham o'ziga xos vazifalarni bajarmoqda. Hozirgi kunda eng sodda va murakkab tabiiy hodisalargacha kompyuter yordamida modellashtirilmoqda, tadqiqot o'tkazishda hisoblash eksperimenti vazifasini o'tamoqda, ya'ni hisob-kitoblarning insonni zeriktiradigan tomonlarini o'z zimmasiga olmoqda, tadqiqotchi faoliyatini faollashtirishga xizmat qilib, oddiy ko'z bilan ilg'ab olish mumkin bo'lmagan hollarda zamonaviy axborot vositalari ko'magida "ko'rmoqda", natijalar to'plab, uning dolzarbligini, sifatini tekshirishga imkon bermoqda. Eng muhimi u tabiiy fanlardan eksperiment o'tkazuvchining faoliyatini unumli qiladi.

SMART texnologiyalardan foydalanish murakkab jarayon bo'lib, u uzoq vaqtni talab qilmaydi. SMART texnologiyalarga ta'lim jarayonida katta ehtiyoj sezilayotgan hozirgi kunda har bir predmet, kurs uchun bunday SMART kompyuter va planshetlarga mo'ljallangan dasturiy vositalarni yaratish davr talabiga aylandi.

SMART texnologiyalardan foydalanish Shuningdek, quyidagi ko'rsatmalarga rioya qilish lozim:

• SMART texnologiyalardan foydalanishga kirishishdan oldin, u qanday tuzilmaga ega bo'lishini aniq tasavvur qilish;

• SMART texnologiyalarda ortiqcha ma'lumotlar bo'lmasligi lozim. Har bir qismda bayon qilishning kepakli elementi bo'lishi va taqdimotning umumiy g'oyasiga to'g'ri kelishi, uni ochishga xizmat qilishi;

• belgilar stili va fon rangini tanlashda tayyor andozalardan foydalanish tavsiya etiladi. Ijodiy yondashuvga keng o'rin berish;

• resurslapni keraksiz tafsilotlar bilan optiqcha yuklanmasligi lozim. Ba'zan bitta mupakkab slayd-shou o'rniga bir nechtasi taqdim qilish samarali hisoblanadi;

• qo'shimcha animasiya effektlapi bo'lmacligi, ulapning conini minimumga tushirish, faqat taqdimotning asosiy jihatlariga e'tiborni qaratish maqsadida foydalanish hamda ovozli va vizual effektlar o'quvchining asosiy e'tiborini jalb qilish opqali berilishi lozim bo'lgan o'zak ma'lumotlapni to'sib qo'ymasligi;

• har bir modul uchun o'rganuvchilarga mos bayon shaklini va modulga (kontentga) oid nom, matn, pasmlar, jadvallar, grafiklar, ovoz, videoni va boshqa multimedia imkoniyatlarini taqdim etishi;

• o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, o'quvchilar bilan qayta aloqani o'rnatishni (masalalar, nazorat cavollari, modellashtirishga oid topshiriqlarni tanlashni, javoblarni tahlil qilish usullarini ishlab chiqishni, tipik noto'g'ri javoblarga ko'rsatmalar, maslahatlar) loyihalashtirish;

• ergonomik talablarga muvofiq matnlar tuzish, rasm, chizma, jadval, diagramma, video ketma-ketliklarni tanlash va ishlab chiqish;

• darsning har bir bo‘limi modullarini ergonomik nuqtai nazardan tuzish.

Shu nuqtai nazardan, har bir modulni quyidagi tarkibda tuzish tavsiya etiladi:

• psixologik tayyorgarlik matni (modul annotasiyasi va unga kirish);

• modulning o‘quv maqsadlari va vazifalari;

• o‘quv-ma’lumotlar;

• modul bilan bog‘liq asosiy muammolar, o‘zak masalalar ro‘yxati;

• o‘zini-o‘zi tekshirish va refleksiya uchun savollar (javoblari, sharhlari va tavsiyalari bilan);

• modulning tuzilmaviy-mantiqiy sxemasi;

• modulga doir o‘quv adabiyotlar ro‘yxati, modul mavzusiga oid Internet saytlaridagi resurslarga havolalar;

• o‘quvchilarni rag-batlantirish, ularning e’tiborini va qiziqishini saqlab qolish uchun maxsus vositalarning mavjudligi;

• yakuniy umumlashtipish sxemalarining mavjudligi;

• o‘quv-ma’lumotlarning turli tarkibiy qismlari o‘rtasida aniq farqni ta’minlaydigan bir xil turdagi piktogpamma kabi maxsus belgilardan foydalanish;

• amaliy misollar bilan nazariy tavsiflarni yagona qo‘llab-quvvatlash;

• talabalarning mustaqil kognitiv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha didaktik ma’lumotlar (sharhlangan ma’ruzalar, o‘qituvchilarning maslahatlari va boshqalar);

• tilshunoslik uslubining ochiqligi, o‘quvchilarning maqsadli guruhlariga yo‘naltirilganligi;

• o‘quv-ma’lumotlarda navigasiyasining soddaligi va bir xilligi;

• umumiy qabul qilingan yagona belgi va atamalarni saqlash;

• barcha ishlatilgan obyektlar va munosabatlarning ta’rifini o‘z ichiga olgan ommaviy murojaat rejimi;

• motivatsiya, yosh, ijtimoiy mavqe, madaniy va kasbiy daraja, tanishish uslubi, oldindan o‘qitish darajasi va boshqalarni tashkil etadigan kognitiv ehtiyojlar to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar bo‘lishi

SMART texnologiyalar talabalar bilan ishlashni individuallashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, uy vazifalari va nazorat ishlarini tekshirishda bu narsa yaqqol ko‘rinadi. Talabalar topshiriqlar uning kuchiga qarab berilayotganini sezgach, muvaffaqiyatdan muvaffaqiyatga harakat qila boshlaydi va bu esa o‘z navbatida fanga qiziqishni orttiradi va o‘qishni samarali jarayonga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shoymardonov T. Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari muhitida pedagog kadrlarning kasbiy faoliyati mazmuni va uning monitoringi. Monografiya. “Yangi kitob”. – T. 2016. – 196 b.

2. Urinboev Z. Creation and use of smart technologies in the subject “information technologies in education international Conference on Developments in EducationHosted from Toronto, Canada 10th July 2022 https: econferencezone.org

4. Taylaqov N.I. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun informatikadan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari. Monografiya.–T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. –B. 160.

Elyor XAYRIYEV,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Informatika”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

TALABALARNING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada talabalarning mediakompetentligini rivojlantirishning pedagogik muammolari, olimlar tomonidan o‘rganilgan nazariy manbalar mazmuni, talabalarda mediakompetensiyalarni rivojlantirishda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish kabi ma’lumotlar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Mediakompetentlik, axborot texnologiyalari, kompyuter imitatsion model, buyumlar interneti.

В данной статье освещаются педагогические проблемы развития медиакомпетентности студентов, содержание теоретических источников, изученных учёными, а также использование современных информационно-коммуникационных технологий в процессе формирования медиакомпетенций у студентов.

Ключевые слова. Медиакомпетентность, информационные технологии, компьютерная имитационная модель, интернет вещей.

This article highlights the pedagogical problems of developing students’ media competence, the content of theoretical sources studied by scholars, and the use of modern information and communication technologies in fostering media competencies among students.

Key words. Media competence, information technologies, computer simulation model, Internet of things.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 10-iyunda qabul qilgan “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari Respublikamizda axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirishga zamin yaratdi. Fan, texnika va texnologik taraqqiyotning bugungi darajasi OTMlari ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, fan va texnika sohasida sodir bo‘layotgan muhim yangiliklarga oid materiallarni o‘quv dasturlari, shuningdek, darsliklar mazmuniga jadal kiritish zaruratini keltirib chiqardi. Bu esa o‘z navbatida, talabalarda ko‘plab fundamental tushunchalarni nisbatan oson, qulay va mustahkam egallashga keng imkoniyatlarni yaratdi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonlarida “talabalar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida oliy ta’lim tizimida asosiy o‘quv dasturlariga doimiy o‘zgartirishlar kiritish; ta’limda multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni qo‘llash jarayonini tizimli tashkil etish choralarini ko‘rish; umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika fanini o‘qitish metodlarini takomillashtirish; oliy ta’lim muassalarida “Bir million dasturchi” loyihasini keng hududda joriy qilish; zamonaviy

axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish; ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek, ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi “EMINBAR” platformasini amaliyotga joriy etish, ta’lim jarayonlarida “Bulutli texnologiyalar” dan foydalanish” kabi ustuvor vazifalar belgilab qo‘yilgan”.

O‘rganilgannazariymanbalarmazmunibilantanishish,oliyta’limmuassasalari(OTM) faoliyatini o‘rganish va tahlil etish talabalarning mediakompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish muammosining dolzarbligi, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini OTMlari o‘quv jarayoniga joriy etishning respublikamiz sharoitida yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi va pedagogik jihatdan to‘liq tadqiq qilinmaganligi tadqiqot zarurligini belgiladi.

Talabalarda mediakompetensiyalarni rivojlantirishda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish, shu asosda oliy ta’lim muassasalarida ularning kasbiy kamolotini ta’minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, talaba shaxsini kasbiy shakllanishining pedagogik asoslarini zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida ishlab chiqish, ularni ta’limga joriy etish psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash kabi muammolar tadqiqot mavzusini “Talabalarning mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish (Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash) fan misolida belgilab olinishiga asos bo‘ldi.

OTMlarda talabalarni mediakompetentlikni shakllantirishda, ta’lim jarayonini kompyuter imitatsion modellar asosida tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallashga va ularni amaliyotda qo‘llash malakalarini shakllantirishga qaratish o‘qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash lozimligini ko‘rsatdiki, ular talabalarga nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli imitatsion modellar yordamida mustaqil egallashlari, o‘zlarida shaxsiy nuqtayi nazarning shakllanishi, uni asoslashi va erishilgan bilimlarni yangi bilimlar olishlarida foydalanish malakalariga ega bo‘lishlarini taqoza etdi.

Mediakompetentlik – bu shaxsning axborot va kommunikatsion texnologiyalarini samarali va mas'uliyatli foydalanish qobiliyatidir. Bu qobiliyat zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardan biri hisoblanadi.

Mediakompetentlik axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha bilimlar va ko‘nikmalar majmuasidir. Bu tushuncha axborotni qidirish, baholash, tahlil qilish va taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Mediakompetent shaxs axborotni tanqidiy tahlil qila oladi, turli manbalardan ma'lumot to‘playdi va digital texnologiyalarni samarali qo‘llaydi. Mediakompetentlik shuningdek, shaxsning axborotga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo‘lishini ham nazarda tutadi.

Mediakompetentlik tushunchasi xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan va turli yo‘nalishlarda ta'riflangan. Mediakompetentlik, odatda, zamonaviy jamiyatda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini samarali va mas'uliyatli tarzda qo‘llash ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Renee Hobbs mediakompetentlikni "mediani tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatlari yig'indisi" deb ta'riflaydi. Uning fikricha, mediakompetentlik jamiyat a'zolarining media kontentni tanqidiy baholash va ushbu kontentni yaratishda faol ishtirok etish imkoniyatini oshiradi. U shuningdek, mediakompetentlikning o‘qitish va o‘rganish jarayonlaridagi muhimligini ta’kidlaydi.

David Buckingham mediakompetentlikni jamiyatning media muhitida faol va

tanqidiy ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar va bilimlar sifatida belgilaydi. U mediakompetentlikni o‘quvchilarga media kontentni tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o‘rgatish orqali o‘qitish kerakligini ta'kidlaydi. Buckinghamning ta'kidlashicha, mediakompetentlik media ta'siriga nisbatan xabardorlikni oshirish va ommaviy axborot vositalarining turli aspektlarini tushunish uchun muhimdir.

Henry Jenkins mediakompetentlikni "omma va media o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tushunish va boshqarish ko‘nikmasi" deb ta'riflaydi. U mediakompetentlikni ommaviy axborot vositalarini o‘qish, yozish va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlari bilan bog'laydi. Jenkins mediakompetentlikni "omma madaniyati"ning muhim qismi sifatida ko‘rib, buni global tarmoqlashgan dunyoda zaruriy ko‘nikma deb hisoblaydi.

Sonia Livingstone mediakompetentlikni media va texnologiyalarni xavfsiz va samarali qo‘llash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar deb ta’riflaydi. Uning fikriga ko‘ra, mediakompetentlik nafaqat texnologik bilimlarni, balki jamiyatdagi axborot oqimlarini tushunish va boshqarish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Livingstone, shuningdek, mediakompetentlikning yoshlar va bolalar uchun ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Marshall McLuhan mediakompetentlikni media orqali kommunikatsiyani tushunish va uni jamiyatdagi ta'sirini tanqidiy baholash bilan bog'laydi. Uning “Medium is the Message” kontseptsiyasi mediakompetentlik tushunchasiga ta'sir ko‘rsatib, ommaviy axborot vositalarining texnologik va madaniy ta'sirini o‘rganishga undaydi.

Yuqoridagi aytilgan fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, talabalarda mediakompetentlik rivojlantirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Mediakompetentlik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra biz unga quyidagicha ta’rif beramiz.

Mediakompetentlik – bu kritik, ijodiy va analitik fikrlash asosida axborotni baholash, mediakontent yaratish va axborot texnologiyalarni samarali qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lgan mediasavodxonlik darajasidir.

Shu sababli, mediakompetentlik, ya'ni talabalarning digital savodxonligi, axborotni tahlil qilish va undan mas'uliyatli foydalanish qobiliyati yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mediakompetentlikni rivojlantirish ta'lim tizimida dolzarb muammolardan biridir, chunki bu talabalarning shaxsiy va professional hayotida muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda Kanada haqiqiy buyumlar internetini boshdan kechirmoqda. Masalan, dunyodagi barcha saytlarning taxminan 5 foizi mamlakatning 30 million aholisiga to‘g'ri keladi. Kanada uy kompyuterlari soni bo‘yicha yetakchilik qiladi va Internetga ulanish bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Kanadaliklar o‘yin-kulgi, ish, onlayn xarid qilish, o‘z-o‘zini o‘qitish imkoniyatlaridan foydalanib, Internetda juda ko‘p vaqt sarflashadi. Yaqinda o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, o‘rtacha kanadalik oila haftasiga taxminan 32 soatni internetda o‘tkazadi. Yosh kanadaliklar o‘zlarining sevimli mashg‘ulotlari quyidagilar: musiqa tinglash va yozib olish (57%); elektron pochtadan foydalanish (elektron pochta) (56%); o‘yin-kulgi (50%); o‘yinlar (48%); shoshilinch (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) xabarlar (40%); suhbatlar (39%); uy vazifasini bajarish uchun ma’lumot qidirish (38%). So‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, kanadalik o‘smirlar internetdan ancha faol foydalanishadi – ularning deyarli 50 foizi internetda kuniga 1-3 soat vaqt sarflaydi. Bundan tashqari, ularning to‘rtdan uch qismi buni uy kompyuteri yordamida amalga oshiradi, qolganlari asosan maktabda. O‘g‘il bolalar internetda ko‘proq vaqt o‘tkazadilar (haftasiga 10 soat) qizlarga qaraganda (taxminan 8 soat) Shu sababli hukumat barcha shtatlarda mediata’limni rivojlantirish bo‘yicha dastur qabul qilindi bunga 2004-yilda MNet assotsiatsiyasi Microsoft Canada va Bell Canada

Internet provayderlari bilan birgalikda “Tarmoq ma'lumotlari xavfsizligi uchun” deb nomlangan umummilliy kampaniyasi sabab bo‘ldi. Ushbu loyihaning maqsadi ota-onalarga Internetdan foydalanish xavfsizligi bilan bog'liq muammo borligini va bu jarayonga aralashishi kerakligini eslatishdir. Media Awareness Network tomonidan ishlab chiqilgan sayt ota-onalar farzandlarini internetda bo‘lish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavflardan himoya qilishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘plab ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi olimlar tahlilidan kelib chiqadigan bo‘lsak, mediakompetentlikni rivojlantirish talabalarga axborotni tahlil qilish va baholash, digital vositalarni samarali va xavfsiz foydalanish, axborotga asoslangan qarorlar qabul qilish, shaxsiy va professional hayotda muvaffaqiyat qozonish kabi afzalliklarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

4. Ғуломов С.С., Абдуллаев А.Х. Виртуальные стенды для имитации функций учебных мастерских и лабораторных установок. –Ташкент: МВИССО, 2002. -23 с.

5. Калабухова Г. В., Титов В. М. Компьютерный практикум по информатике. Офисные технологии. Форум, Инфра-М. Высшее образование.

6. Hobbs Renee. "The State of Media Literacy: A Response to Potter." Journal of Broadcasting & Electronic Media, vol. 54, no. 4, 2010, pp. 676–685.

7. Buckingham David. "Media Education Goes Digital: An Introduction." Learning, Media and Technology, vol. 31, no. 2, 2006, pp. 111–119.

8. Jenkins Henry. "Transmedia Storytelling and Entertainment: An Annotated Syllabus." Continuum: Journal of Media & Cultural Studies, vol. 24, no. 6, 2010, pp. 943–958.

9. Livingstone Sonia, and Ellen J. Helsper. "Balancing Opportunities and Risks in Teenagers' Use of the Internet: The Role of Online Skills and Internet Self-Efficacy." New Media & Society, vol. 12, no. 2, 2010, pp. 309–329.

10. McLuhan Marshall. "The Medium Is the Message." Understanding Media: The Extensions of Man, New York: McGraw-Hill, 1964, pp. 23–35.

11. Davronov D.I. Ta’lim jarayonida media ta’lim tizimidan foydalanishning metodik jihatlari // Международный научный журнал №5 (100), часть 1 "Научный импульс" "Декабрь, 2022.

12. Suyumov J. Y. Kompyuter imitatsion modellari asosida faol o`qitish texnologiyasining nazariy asoslari // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021.

Muborak ABDULLAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti professori, biologiya fanlari doktori
Gulruxsor ERGASHEVA,
Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori
Ma’mura MURADOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Tabiiy fanlar” kafedrasi, biologiya fani o‘qituvchisi

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARDA GLOBAL KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH (Interaktiv metodlardan foydalanish misolida)

Annotatsiya

Maqolada talabalarda global kompetensiyani shakllantirish jarayonida biologiya fanining interaktiv metodlaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, global kompetensiya zamonaviy dunyoda muhim ko‘nikma bo‘lib, turli madaniyatlar va muhitlarda samarali muloqot qilish, ekologik muammolarni tushunish va hal qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga olishi va biologiya fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan interaktiv metodlar, jumladan, jamoaviy loyihalar, muammoli vaziyatlarni hal qilish, laboratoriya tajribalari va ekologik tadqiqotlar kabi yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Ushbu usullar orqali talabalar nafaqat fanga oid bilimlarni egallaydilar, balki global ekologik muammolar haqida chuqurroq tushunchaga ega bo‘ladilar, ekologik ong va mas’uliyat hislarini rivojlantirishi ayti o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar. Global kompetensiya, biologiya ta’limi, interaktiv metodlar, ekologik muammolar, ekologik ong, jamoaviy loyiha, laboratoriya tajribasi, muammoli vaziyatlarni hal qilish, ta’lim texnologiyalari, ekologik mas’uliyat.

В статье проанализированы возможности использования интерактивных методов биологической науки в процессе формирования глобальной компетенции у студентов. Глобальная компетентность также является важным навыком в современном мире и может включать в себя способность эффективно общаться в различных культурах и средах, понимать и решать экологические проблемы, а также интерактивные методы, используемые в преподавании биологических наук, включая такие подходы, как командные проекты, решение проблемных ситуаций, лабораторные эксперименты и экологические исследования. С помощью этих методов студенты не только приобретают научные знания, но и получают более глубокое понимание глобальных экологических проблем, а также развивают экологическое сознание и чувство ответственности.

Ключевые слова. Глобальная компетентность, обучение биологии, интерактивные методы, экологические проблемы, экологическое сознание, групповой проект, лабораторный эксперимент, решение проблемных ситуаций, образовательные технологии, экологическая ответственность.

The article analyzed the possibilities of using interactive methods of Biology in the process of forming global competence in students. Global competence is also an important skill in the modern world, incorporating skills for effective communication in different cultures and environments, understanding and solving environmental problems, and examining interactive techniques used in teaching biology, including approaches such as team projects, problem solving, laboratory experiments, and Environmental Research. Through these methods, students not only acquire knowledge of science, but also gain a deeper understanding of global environmental issues,

it has been stated that they develop environmental awareness and feelings of responsibility.

Key words. Global competence, biology education, interactive methods, environmental issues, environmental awareness, group project, laboratory experiment, problem-solving, educational technologies, environmental responsibility.

Zamonaviy ta’lim tizimi global kompetensiyani shakllantirishni muhim vazifa sifatida belgilaydi. Global kompetensiya turli madaniyatlar, tillar va ijtimoiy muhitlarda samarali muloqot qilish, ekologik muammolarni tushunish va ularni hal qilishda faol ishtirok etish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun zarurdir.

Biologiya fani global ekologik muammolarni o‘rganishda muhim o‘rin tutadi, chunki u hayotiy jarayonlar, ekotizimlar va tabiatning barqarorligi haqida bilim beradi. Shuning uchun biologiya fanini interaktiv usullarda o‘qitish talabalar dunyoqarashini kengaytirish, ekologik ong va mas’uliyat tuyg‘usini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Ushbu maqolada talabalarda global kompetensiyani shakllantirishda biologiya fanining interaktiv metodlari samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, biologiya darslarida qo‘llaniladigan jamoaviy loyihalar, laboratoriya tajribalari va muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi usullar talabalarning bilim va ko‘nikmalarini qanday rivojlantirishi ko‘rib chiqiladi.

Hozirgi kunda bioinjeneriyaning rivojlanishi nafaqat ekologik, balki tibbiy muammolarni hal qilishda ham muhim qadam hisoblanadi. Bu soha biologiyaning tabiiy davomidir va ilm-fanning ko‘plab yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi.

1. Ekologik muammolarni bartaraf etish.

Genetik modifikatsiya: genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO) orqali hosildorlikni oshirish, ekologik muvozanatni saqlash va tabiiy resurslarni tejash imkoniyatlari yaratilmoqda.

Atrof-muhitni himoya qilish: biologik xilma-xillikni saqlashda yangi texnologiyalar orqali muhofaza qilish, ifloslanishni kamaytirish, biologik filtrlash tizimlarini yaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Tibbiyotdagi innovatsiyalar.

Genetik davolash: nasliy kasalliklarni davolash, genlarni tahrirlash texnologiyalari yordamida davolab bo‘lmaydigan kasalliklarni bartaraf etish.

Sun’iy organlar: bioinjeneriya orqali sun’iy yurak, buyrak va boshqa organlar ko‘chirilmoqda, bu esa hayotni saqlab qolish imkonini kengaytirmoqda.

Vaksinalar va biotexnologiya: pandemiyalar davrida bioinjeneriyaning roli yanada oshib, yangi vaksinalar yaratish tezlashmoqda.

Bioinjeneriya biologiya fanining ajralmas qismi bo‘lib, talabalarda global kompetensiyani shakllantirishda samarali vositadir. Bu sohani o‘rganish nafaqat ilmiy bilimlarni, balki dunyo miqyosidagi ekologik va tibbiy muammolarni hal qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shu sababli, biologiya fanida interaktiv metodlar yordamida bioinjeneriya haqida kengroq tushuncha berish dolzarbdir.

Global kompetensiya – bu turli madaniyatlar va ijtimoiy muhitlarda samarali muloqot qilish, xalqaro masalalarni tushunish va ular yechimiga faol hissa qo‘shish qobiliyatidir. Bu ko‘nikma talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni anglash hamda mas’uliyatli qarorlar qabul qilishiga yordam beradi. Global kompetensiyani shakllantirish ta’lim jarayonining dolzarb vazifasiga aylangan

2. Biologiya fanining ta’limdagi roli.

Biologiya fani hayotiy jarayonlarni o‘rganib, talabalarga ekologik tizimlarning murakkabligini va inson faoliyatining tabiatga ta’sirini tushuntiradi. Biologiya kurslari orqali talabalar barqaror rivojlanish tamoyillarini anglab, ekologik mas’uliyat va atrof-muhitga hurmat ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

3. Biologiya fanida interaktiv metodlarning qo‘llanilishi.

Interaktiv metodlar talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularga faol o‘rganish imkoniyatini beradi. Quyidagi interaktiv metodlar biologiya ta’limida keng qo‘llaniladi:

Jamoaviy loyihalar: Talabalar ekologik muammolarni o‘rganish va hal qilish bo‘yicha loyiha tayyorlaydilar, bu esa ularning ijodiy fikrlashini va mas’uliyat tuyg‘usini rivojlantiradi.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish: Hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalar ekologik masalalar yuzasidan yechim taklif qiladilar.

Laboratoriya tajribalari: Ilmiy tajribalar talabalarga nazariy bilimlarini amalda qo‘llash va ilmiy izlanish qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradi.

Ekologik tadqiqotlar: Talabalar mahalliy ekologik muammolarni o‘rganib, ularning yechimi bo‘yicha takliflar ishlab chiqadilar.

4. Interaktiv metodlarning talabalarga ta’siri

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlarni qo‘llash biologiya fanini qiziqarli va samarali qiladi. Talabalar jamoaviy ishlash, muloqot qilish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, ular ekologik mas’uliyat, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish tamoyillarini chuqurroq anglaydilar.

Interaktiv metodlarning qo‘llanilishi nafaqat fanga oid bilimlarni oshiradi, balki talabalarni global ekologik muammolar haqida xabardor qiladi va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga undaydi. Bu esa global kompetensiyaning shakllanishiga bevosita xizmat qiladi.

Biologiya fanida interaktiv metodlardan foydalanish talabalarda nafaqat ilmiy bilimlarni, balki global kompetensiya kabi muhim ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. O‘quv jarayonida qo‘llanilgan metodlar talabalarning ekologik masalalar yuzasidan chuqurroq fikr yuritishiga, ekologik ong va mas’uliyat hisini rivojlantirishga imkon yaratadi.

1. Talabalar faolligining oshishi:

Interaktiv metodlar talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularda mustaqil o‘rganish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Jamoaviy loyihalar va laboratoriya tajribalari talabalarni mavzuga faol jalb etib, ularda hamkorlikda ishlash malakasini shakllantiradi.

2. Muammolarni hal qilish ko‘nikmasi:

Muammoli vaziyatlarni hal qilish usuli talabalarni ekologik muammolarni tahlil qilish va ularga yechim taklif qilishga o‘rgatadi. Bu jarayonda ular nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiq etish, ilmiy izlanish olib borish va ekologik qarorlarni qabul qilishda mas’uliyatni his qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3. Ekologik mas’uliyat hissi:

Biologiya darslarida ekologik tadqiqotlar o‘tkazish orqali talabalar tabiat muhofazasi bo‘yicha amaliy harakatlar qilishga ilhomlanadilar. Natijada ularning ekologik ong va barqaror rivojlanishga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi.

4. Global dunyoqarashning shakllanishi:

Turli madaniyatlar va xalqaro ekologik muammolarni muhokama qilish talabalarda global dunyoqarashni kengaytiradi. Ular ekologik xavfsizlik, tabiatni muhofaza qilish

va xalqaro hamkorlikning muhimligini anglaydilar.

Biologiya fanida interaktiv metodlardan foydalanish global kompetensiyani shakllantirishda samarali ekanligi aniqlandi.

Talabalarda ekologik ong, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari shakllandi.

O‘quv jarayoni ko‘proq qiziqarli va samarali bo‘lib, talabalar nazariy bilimlarni amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Biologiya fanini interaktiv metodlar asosida o‘qitish global kompetensiyani shakllantirishga katta hissa qo‘shadi. Shuning uchun zamonaviy ta’lim tizimida biologiya fanining ekologik, ijtimoiy va texnologik muammolar bilan bog‘liqligini hisobga olgan holda, interaktiv yondashuvlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Biologiya fanida interaktiv metodlardan foydalanish nafaqat talabalarning ilmiy bilimlarini oshiradi, balki ularning global kompetensiyasini ham mustahkamlaydi. Tadqiqot davomida ko‘rsatilgan metodlar talabalarga ekologik, ijtimoiy va madaniy masalalarni anglash, tahlil qilish va yechim taklif qilishda yordam beradi. Biologiya fani ekologik mas’uliyat va barqaror rivojlanish masalalariga e’tibor qaratishi, interaktiv metodlar esa bu jarayonni samarali qilishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

1. Talabalar o‘rtasida kooperatsiya va jamoaviy ishlash:

Jamoaviy loyihalar va muammoli vaziyatlarni hal qilish metodlari talabalarda kooperatsiya va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu ko‘nikmalar nafaqat biologiya fanida, balki boshqa sohalarda ham talabalar uchun foydalidir. Dars davomida talabalarning fikrlarini birlashtirish va muammolarni guruh bo‘lib hal qilish ular uchun o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

2. Amaliy tajribalar va ekologik ong:

Laboratoriya tajribalari va ekologik tadqiqotlar talabalar uchun o‘qitishni yanada qiziqarli va amaliy qilish imkonini yaratadi. Bu usullar orqali ular ekologik mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishadi va tabiatni muhofaza qilishda faollik ko‘rsatadilar.

3. Global va mahalliy masalalar o‘rtasidagi bog‘liqlik:

Interaktiv metodlar talabalarga global ekologik muammolarni o‘rganish bilan birga, ularni mahalliy kontekstda tahlil qilishni o‘rgatadi. Bunday yondashuv talabalarga ijtimoiy va ekologik masalalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash va global darajadagi qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

4. Fikr almashish va tanqidiy fikrlash:

Biologiya fanining ekologik muammolarni o‘rganish jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Muammoli vaziyatlar va ekologik tadqiqotlar talabalarni o‘z fikrlarini bildirishga, turli qarashlarni tushunishga va tanqidiy qarorlar qabul qilishga undaydi. Bu jarayon ularning global kompetensiyalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Biologiya fanini interaktiv metodlar asosida o‘qitish talabalar o‘rtasida ekologik ong va mas’uliyatni rivojlantirishda ijobiy natijalar berdi.

Talabalar ekologik muammolarni tushunish va yechim taklif qilishda faollashdi.

Interaktiv metodlar talabalarning global kompetensiyasini shakllantirishga samarali hissa qo‘shadi, ayniqsa ekologik va ijtimoiy masalalarda.

Jamoaviy loyiha va laboratoriya ishlari talabalarning mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini kuchaytirib, ularning bilimlarni amalda qo‘llash imkoniyatini yaratdi.

Ushbu tadqiqot biologiya fanini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanishning talabalar global kompetensiyasini shakllantirishdagi samaradorligini ko‘rsatdi. Interaktiv metodlar, jumladan, jamoaviy loyihalar, laboratoriya tajribalari, muammoli vaziyatlarni

hal qilish va ekologik tadqiqotlar, talabalarni faollashtirib, nafaqat ilmiy bilimlarni, balki ekologik ong, mas'uliyat va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Biologiya fanining ekologik, ijtimoiy va texnologik muammolar bilan bog'liq yondashuvi talabalarni nafaqat mahalliy, balki global miqyosdagi muammolarni tushunishga va yechim topishga undaydi. Interaktiv metodlar yordamida talabalar ekologik mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, barqaror rivojlanish prinsiplarini hayotga tadbiq etishda faol ishtirok etadilar.

Shu bilan birga, o'quv jarayonida interaktiv yondashuvlardan keng foydalanish talabalarni yanada faolroq, ijodiy va mas'uliyatli qilishga imkon yaratadi. Biologiya fanini o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi global kompetensiyani shakllantirish va ekologik ongni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ta'lim tizimida biologiya fanini interaktiv yondashuvlar asosida o'qitishni yanada kengaytirish zarur.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Axmadjonov, F. (2017). Biologiya ta'limida interaktiv metodlar. Tashkent: O'qituvchi.

2. Davlatov, B. (2019). Ta'limda global kompetensiyani shakllantirishning metodik asoslari. Tashkent: Fan va texnologiya.

3. Ismoilov, B. (2016). Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Tashkent: O'zbekiston matbuoti.

4. Omonov, A. (2020). Ekologik ta'lim va yoshlar orasida ekologik ongni rivojlantirish. Tashkent: O'quvchi.

5. Raxmonov, Sh. (2018). Ta'lim tizimida interaktiv metodlar: Teoriya va amaliyot. Tashkent: TDPU nashriyoti.

6. To'raqulov, U. (2017). Jamoaviy loyiha metodlari va ta'limda ularni qo'llash imkoniyatlari. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.

Raxmon ESHIMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali
“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti
Elyor XAYRIYEV,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Informatika”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

ELEKTRON TA’LIM MUHITIDA KOMPYUTER IMITATSION MODELLAR VA ULARNING TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada talabalarning axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari, olimlar tomonidan o‘rganilgan nazariy manbalar mazmuni, talabalarda AKT kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish kabi ma’lumotlar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. AKT kompetentligini, axborot texnologiyalari, kompyuter imitatsion model, buyumlar interneti.

В данной статье рассматриваются современные технологии развития ИКТ-компетентности студентов, содержание теоретических источников, изученных учёными, а также использование современных информационно-коммуникационных технологий в формировании ИКТ-компетентности у студентов.

Ключевые слова. ИКТ-компетентность, информационные технологии, компьютерная имитационная модель, интернет вещей.

This article highlights modern technologies for developing students’ ICT competence, the content of theoretical sources studied by scholars, and the use of modern information and communication technologies in enhancing ICT competence among students.

Key words. ICT competence, information technologies, computer simulation model, Internet of things.

Jahon ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini axborotlashtirish, ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish tizimini takomillashtirish maqsadida kompyuterli imitatsion modellar, multimediali elektron resurslar, virtual ta’lim texnologiyalarni yaratish va ularni joriy etish masalalariga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanib multimediali ilovalarni joriy etishning kreativ texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha bo‘lgan davr yangi ta’lim konsepsiyasida ta’lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga etaklovchi muhim faoliyat sifatida e’tirof etilib ta’lim jarayonini modellashtirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlarini loyihalash bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Elektron ta’lim muhitida talabalarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari kompetentligini rivojlantirishda kompyuter imitatsion modellar o‘rganish ob’ekti

sifatida ham, o‘qitish mazmunini o‘zlashtirish rivoji, tarbiya va o‘qitish vositasi sifatida ham bo‘lishi mumkin. Ya’ni o‘qitish jarayonida kompyuter imitatsion modellardan foydalanishning ikki yo‘nalishi mavjud.

Birinchisidan bilim, ko‘nikma va malakalarni oshirish kompyuter imitatsion modellar imkoniyatlarini bilishga, turli voqea hodisalarni anglashda, grafik, tasvir, ovoz, imitatsion harakatlar asosida mediakompetentlik malakalarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Ikkinchisida kompyuter imitatsion modellar o‘quv-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishning kuchli vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

A.A.Abduqodirov, A.X.Pardayevlar tomonidan yaratilgan “Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti” deb nomlangan monografiyada masofali o‘qitishning paydo bo‘lishi, shakllanishi, joriy etilishi, istiqbollari va o‘quv-uslubiy vositalari keng bayon etilgan. Unda masofali o‘qitishni tashkil qilishda o‘quv-uslubiy materiallar yaratish va uni amaliyotga joriy qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Gorbachyov N.N. « Модели и методы управления электронными образовательными информационными ресурсами для дистанционного обучения инвалидов» nomli ilmiy tadqiqot ishida masofaviy ta’limda avtomatlashtirilgan axborot tizimini dasturiy kompleksining elementlarini ishlab chiqish to‘g'risida fikr mulohazarini bildirib, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining uchta asosiy: kompensator, didaktik, kommunikativ vazifalarini keltirib o‘tilgan. AKT vositalari asosiy turlari talabalar o‘quv jarayonida bir nechta funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi. Ular quyidagilar: standart texnologiyalar, mavjud ma’lumotlar formatlari, yordamchi texnologiyalar.

L.A Ablazovning “Imitatsion modellashtirishning asosiy konsepsiya va vositalari” Ushbu maqola imitatsion modellashtirishning asosiy konsepsiya va vositalariga bag’ishlangan. Bunda asosiy masala imitatsion modelashtirishning xalq xo‘jaligi va uning tarmoqlari kabi murakkab iqtisodiy tizimlarni modellashtirish asoslarini o`rgatishdan, aniq iqtisodiy ob’ektlar misolida modellashning qo‘yilishi, ularning asosida tuzilgan masalalarni kompyuterda yechish va olingan natijalarni tahlil qilish kabi bosqichlarni o‘rgatishdan iborat.

H. Amrillayevning “Kompyuter imitatsion modellar asosidagi virtual laboratoriyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari” Maqolada kompyuter imitatsion modellar asosida oliy ta’lim muassasalarida “Individual rivojlanish biologiyasi” fanidan yaratilgan virtual resurslardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

D.R.Masodiqova, H.X.Abdurafiqovlarning “Imitatsion modellar asosida virtual resurslardan foydalanib sog’lom va imkoniyati cheklangan yoshlarni o‘qitishda samarali natijaga erishish” nomli ilmiy maqolasida immitatsion modellar asosida virtual resurslar yaratish hamda ular yordamida darslarni samarali tashkil etish to‘g’risida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Ushbu yuqorida keltirilgan olimlarimiz tahlilini inobatga olsak, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda mavjud taqdimot va ma’ruzalarni masofadan o‘qitish, mediakompetensiyalar shakllanishi va darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirmagan talabalar uchun qayta takrorlash imkonini beradi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari ko‘rsatadiki, talabalarda AKT kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi choralarni ko‘rish zarur:

– fan o‘qituvchilari AKT kompetentlik bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tishlari kerak. Bu ularga AKT kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy metodlarni

o‘rgatadi.

– AKT kompetentligini rivojlantirish uchun o‘quv dasturlariga tegishli mavzularni kiritish zarur. Bu talabalar uchun AKT kompetentligini o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

– ta’lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar va digital resurslar bilan ta‘minlash zarur. Bu talabalar va o‘qituvchilarga AKT kompetentligini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

– talabalar va o‘qituvchilarni AKT kompetentligining ahamiyatini tushuntirish va ularda bu sohada ishlashga motivatsiya yaratish zarur.

AKT kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifani amalga oshirishda o‘qituvchilarni o‘qitish, o‘quv dasturlarini moslashtirish va ta’lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, talabalarning AKT kompetentligini rivojlantirish ularning shaxsiy va professional hayotda muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Elektron ta‘lim bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi va talabalar uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - Toshkent: Fan, 2009. - 146 b.

2. Горбачёв Н. Н. Мальченко С. Н.. “Информационно-коммуникационное сопровождение инклюзивного образования: из опыта”.

3. Ablazov L.A. Imitatsion modellashtirishning asosiy konsepsiya va vositalari // “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” elektron ilmiy jurnali № 1(1), yanvar-mart, 2021 y.

4. Amrillayev H. Kompyuter imitatsion modellar asosidagi virtual laboratoriyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari // The multidisciplinary journal of science and technology ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 8.848 / 2024 y.

5. Masodiqova D.R., Abdurafiqov H.X. Imitatsion modellar asosida virtual resurslardan foydalanib sog’lom va imkoniyati cheklangan yoshlarni o’qitishda samarali natijaga erishish // International scientific and practical conference modern, innovative development of exact and natural sciences in higher education november 15, 2024 y.

Aziza QOSIMOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, mustaqil tadqiqotchi

SHARQ UYG'ONISH DAVRI OLIMLARINING QARASHLARIDA TA'LIM-TARBIYANING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada Sharq Uyg'onish davri (IX-XII asrlar) buyuk mutafakkirlarining tarbiya va ta'limga oid qarashlari o'rganilib, ta'lim-tarbiyaning inson kamolotidagi o'rni, pedagogik tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi haqidagi har bir olim va mutafakkirning qarashlari ham tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar. Sharq, ta'lim, tarbiya, mutafakkir, inson, ta'lim, axloqiy fazilatlar, pedagogik tafakkur, madaniyat.

В статье рассматриваются взгляды великих мыслителей эпохи Восточного Возрождения (IX-XII века) на воспитание и образование, а также анализируются взгляды каждого ученого и мыслителя на роль образования в развитии человека и его вклад в развитие педагогической мысли.

Ключевые слова. Восток, образование, воспитание, мыслитель, человек, образование, нравственные качества, педагогическое мышление, культура.

The article examines the views of the great thinkers of the Eastern Renaissance (IX-XII centuries) on upbringing and education, and also analyzes the views of each scholar and thinker on the role of education in human development and its contribution to the development of pedagogical though

Key words. East, education, upbringing, thinker, human, education, moral qualities, pedagogical thinking, culture.

Ilk Sharq Uyg'onish davri 9-12-asrlarda Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlat paydo bo'ldi. Muayyan doiralar ta'sirida davom etgan urushlar davom etsa-da, bu davr hozirgi O'zbekiston hududi uchun madaniyat va ilm-fan sohasida juda muhim edi. Siyosiy mustaqillikka erishilib, davlatning o'zini o'zi boshqarishi yaxshi boshlanib, viloyat iqtisodiyoti va madaniyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar ochdi. Tarixda bu davr Sharq Uyg'onish davri sifatida tanilgan va ma'naviy ma'rifatning o'sishi bilan mashhurdir.

Abu Nasr Forobiy, Imom Al-Buxoriy, Narshaxiy, Mahmud Koshg'ariy, Marg'inoniy, Najimiddin Kubro, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, az-Zamaxshariy kabi nuroniy faylasuflar, Rudakiy, Yusuf Xos Xojib, Abu Bakr Xojib, Axmad Xojib kabi buyuk shoirlar davri edi.

XI asr boshlarida Ma'mun Xorazmshoh boshchiligida Xorazmda yangi ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilib, ularda Sharqning yirik olimlari faoliyat yuritdilar. Keyinchalik u Xorazmshohga bag'ishlangan va O'rta Osiyodagi birinchi akademiyaga aylandi.

Movarounnahrning zo'r yosh olimlari Muso Al-Xorazmiy, Ahmad Al-Farg'oniy, Al-Marvaziy, Javhariy, Marvaradiy va boshqalar O'rta Osiyo ilm-fani va jahon madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shdilar. Bag'dod dunyoning ilmiy va madaniy markazlaridan

biriga aylandi. O‘rta Osiyo mintaqasida xalifalik zulmidan mustaqillik va ozodlik uchun kurash kuchayib, IX asr oxiriga kelib poytaxti Buxoro bo‘lgan birinchi Somoniylar davlati tashkil topdi. Bu davlat 10-asr oxirigacha mavjud edi.

Ayni paytda islomning yangi diniy oqimlari paydo bo‘ldi, ular o‘zlarining erkin fikrlashlari bilan mashhur bo‘lgan mo‘taziliya, ismoiliya, so‘fiylik kabi. Buxoro, Samarqand, Marv, Urganch, Xiva shaharlari musulmon mamlakatlarida juda mashhur bo‘ldi. Hunarmandchilik, arxitektura va qurilish jadal rivojlandi. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, 9-asr va 12-asrning birinchi yarmi Sharqning Oltin Uyg‘onish davrining ilk davri bo‘lib, bu davr jahon fani va madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrning yorqin namoyandalaridan biri Abu Nasr Forobiydir.

Abu Nasr Forobiy (870-950). Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy o‘rta asr Sharq falsafasining asoschisidir. Forobiy chuqur mulohazalar, o‘rinli mushohadalar, yorqin taxminlar qoldirmagan bilim sohasi deyarli yo‘q. Hayoti davomida u “ikkinchi o‘qituvchi” unvonini oldi (Aristoteldan keyin ikkinchi).

Forobiy arab tilida so‘zlashuvchi dunyoda birinchi bo‘lib ruh haqidagi ta’limotning izchil tizimini yaratdi va o‘ziga xos psixologik terminologiyani ishlab chiqdi. Forobiy pedagogikani axloq bilan birga mustaqil fan sifatida ajratmaydi, u siyosiy (fuqarolik) fanining bir qismidir. U o‘z asarlarida pedagogik tushunchalarga ta’rif beradi: tarbiya, maqtash, ayblash, ishontirish, majburlash, baxt, bilim, ko‘nikma, odat, qobiliyat va hokazo.

Forobiy fikricha, ta’lim-tarbiya xalq va shaharlarga nazariy fazilatlar, ta’lim esa shaharlarni axloqiy fazilatlar va san’atlarga in’om etishdir. “Baxt” tushunchasi uning pedagogikasining asosiy kategoriyalaridan biridir. “Abadiy baxt”ga erishish – ta’limning asosiy maqsadi. Inson noxush xatti-harakatlari tufayli baxtsiz bo‘lib qoladi, buning sababi uning fe’l-atvoridagi yomon fazilatlardir. Ta’limning vazifasi salbiy, shaxsiy xususiyatlarni yo‘q qilish va ijobiy fazilatlarning o‘sishiga yordam berishdir. Yaxshi xarakterga mo‘tadil harakatlar orqali erishiladi, ammo yomon xarakter ruhiy kasallikdir. O‘qituvchi o‘quvchilardan rostlikni, adolatni, xushmuomalalikni izlasa, u shunday fazilatlarni egallashi kerak.

O‘n ikkita tug‘ma va oltita orttirilgan, tug‘ma fazilatlarni muvaffaqiyatli birlashtirgan kishigina haqiqiy o‘qituvchi (nafaqat bolalar, balki butun shahar aholisi), umume’tirof etilgan rahbar bo‘lishi mumkin. Mutafakkir ustoz uchun tuyg‘ularning mutlaq mukammalligi, temir mantiq, fenomenal xotira, o‘tkir mushohada, yorqin nutq, ilmga muhabbat, yegulik va ichimlikdan tiyilish, haqiqatni sevish va yolg‘onni yomon ko‘rish, pul va dunyo hayotining boshqa ne’matlariga befarqlik, adolat, mardlik kabi fazilatlarning nihoyatda zarurligi haqida yozgan.

Forobiy ta’limoti O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlarining psixologik-pedagogik tafakkurining keyingi rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Bu ta’sir uzoq davom etgan va ko‘p qirrali edi.

Al-Forobiyning ko‘p qirrali ilmiy izlanishlari natijasi “Ilmlar tasnifi to‘g‘risida” risolasi bo‘lib, unda o‘sha davr fanlari qat’iy tartibda sanab o‘tilgan va har birining o‘rganish predmeti belgilab berilgan.

Forobiy Bag‘dodda o‘z bilimini har tomonlama kengaytirib, ko‘zga ko‘ringan olimlar bilan muloqotda bo‘ladi va tezda ular orasida eng obro‘li bo‘lib qoladi. Ammo dogmatik fikrdagi ilohiyotchilar orasida al-Forobiyning bilimning ratsional yo‘llarini ochishga va yerdagi hayotda odamlar uchun baxtga erishishga qaratilgan butun tafakkur tizimiga dushmanlik paydo bo‘ladi. Oxir-oqibat al-Forobiy Bag‘dodni tark etishga majbur bo‘ladi.

Yirik madaniyat va fan tarixchilari Forobiy siymosining buyukligi va betakrorligini qayd etganlar. Astronomiya, mantiq, musiqa nazariyasi va matematika, sotsiologiya va etika, tibbiyot va psixologiya, falsafa va huquq - bu uning qiziqishlari ro‘yxati. Ko‘rinib turibdiki, Forobiy hali yoshligidayoq o‘z shahrini tark etib, islom va arab xalifaligi bilan bog‘liq deyarli barcha shaharlar, Buxoro, Marv, Xorron, Iskandariya, Qohira, Damashq, Bag‘dodda bo‘lgan. U umrining ko‘p yillarini Arab xalifaligining siyosiy va madaniy markazi bo‘lgan Bag‘dodda o‘tkazdi. Bu yerda u “Bayt al-hikma” yetakchilari, yunon mualliflarining tarjimonlari asarlarini o‘rganib, o‘z bilimini mukammal darajada to‘ldiradi, ko‘zga ko‘ringan olimlar bilan muloqotga kirishadi va ma’lum vaqtdan keyin o‘zining ma’naviy yuksakligi, tafakkur qudrati tufayli ular orasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Aynan shu erda unga “Muallim Assana” - ikkinchi o‘qituvchi unvoni berildi. “Ikkinchi” unvoni Aristotelni nazarda tutgan “birinchi” ning mavjudligini anglatadi. Haqiqatan ham, ularni ko‘p narsa birlashtiradi: ilmiy qiziqishlarning kengligi va ko‘p qirraliligi, borliqni va undagi insonning o‘rnini falsafiy tushunishga intilish, “umumiy qabul qilingan fikr” ga, odamlarning amaliy, dunyoviy donoligiga yaqinlik. Forobiy birinchi marta buyuk yunon salafi tomonidan ishlab chiqilgan mantiq faniga mustaqil hissa qo‘shgan. Uning falsafiy qarashlarining g‘ayrioddiyligi va dadilligi yunon falsafasi va ilm-fanini to‘liq qabul qilishga qodir bo‘lmagan jamoatchilik fikri bilan muayyan ziddiyatga tushib qoldi. O‘sha davrning ba’zi noto‘g‘ri qarashlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri hujumlar ko‘pchilikni uni bid’at va dindan voz kechishda gumon qilishga majbur qildi. Darhaqiqat, u o‘z tafakkurida alohida mustaqillik ko‘rsatdi va o‘z e’tiqodlarini izchil himoya qildi.

Forobiy chinakamiga jahon miqyosidagi inson edi, u o‘z ijodida o‘zbek, arab, fors, yunon, hind va turkiy madaniyatning eng qimmatli yutuqlarini birlashtirib, sintez qilgan; Birinchisining aks-sadolari, ayniqsa, uning mashhur “Kitob al-musika al-kabir” (“Katta musiqa kitobi”) asarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ammo u turli madaniy an’analarni o‘zida jamlagan gumanitar fan olimi emas, balki o‘z davrining bilimlarini tizimlashtirishga intilgan ilm-fan islohotchisining dahosi edi, bu uning “Fanlar tasnifi haqidagi ertak” risolasida o‘z aksini topgan. Forobiy pedagogikaning islohotchisi sifatida tafakkur qilib, bilimlarni ommaga yetkazishga, ma’rifatni odamlarda insonparvarlik rivoji bilan uyg‘unlashtirishga intildi.

Forobiyning hikmatga erishmoqchi bo‘lganlarga qo‘yadigan talablari ham xuddi shunday yuksak darajada. “Kimki hikmat ilmining kelib chiqishiga intilayotgan bo‘lsa, (boshidanoq) yaxshi xulqli, eng yaxshi ta’lim-tarbiyali bo‘lishi, avvalo Qur’oni karim va shariat ilmlarini o‘rganishi – ehtiyotkor, pokiza, vijdonli, rostgo‘y, yomonlik, buzuqlik, xiyonat, yolg‘on, hiyla-nayranglardan daf qiluvchi bo‘lishi kerak. Huquqiy asoslarni qo‘llab-quvvatlashni buzmasdan, sunnat va shariat qoidalarini buzmasdan, rizq manfaatidan xoli bo‘lish, halol topshiriqlarni bajarishga yaqinlashish. Bir necha yutuq va yutuqlar uchun ilmni tanlamay, (tanlamay) moddiy boylik orttirish vositasi sifatida ilm va (olimlar orasida) yuksaklikka intilinglar”

“Shahar” bundan ming yil muqaddam fazilatli bo‘ladi, deb ta’kidlagan edi Forobiy bundan ming yildan ko‘proq vaqt muqaddam, unda san’at va ilm g‘ururlansa, tafakkur qiluvchilar nafaqat o‘z sha’ni va qadr-qimmatini asrab qolmay, balki o‘z yurtdoshlari, ham hukmdor, ham tobe bo‘lganlarning ibrat va ta’siri bilan kamolotga intilishni umumbashariy me’yorga aylantiradi.

Bilimlar orasida siyosiy falsafa va axloqqa ustunlik berib, ular tufayli haqiqiy baxtga erishish mumkin, ikkinchisini xayoliy, soxta baxtdan ajrata olgan Forobiy fazilatli shaharni johil va adashgan shaharga, chinakam fazilatli odamni past qadriyatlar

bilan yashaydigan, yolg‘on va o‘simlikchilik bilan o‘zaro qarama-qarshi qo‘yadi. Uning “Davlat arbobi aforizmlari”, “Fuqarolik siyosati”, “Baxtga erishish to‘g‘risida” essesida ishlab chiqilgan baxt-saodat va insonga munosib hayot yo‘li, inson tabiati, aqliy-axloqiy komillik, hukmdor ideali haqidagi fikrlari hali ham chuqur o‘rganishni talab etadi. Forobiy ijodiga singib ketgan bardavom insoniy qadriyatlarning tasdig‘idagi ruhiy erkinlik nihoyatda ibratli va dolzarbdir. Baxt mutlaq ne’matdir. Forobiy ta’kidlaganidek, inson hayotning asosi va maqsadi, deb hisoblaydigan narsalar ko‘p. Ko‘pincha bu yoqimli, foydali, pul, shon-sharaf va boshqalar. Ammo baxt nima ekanligini anglab yetish, uni maqsad qilib qo‘yish va unga sobitqadamlik bilan borish qalbning oqilona nazariy qismini takomillashtirmasdan turib mumkin emas. Bunga qodir bo‘lganlar donolardir. Ko‘pchilik baxtni tasavvur qilishda xayolotga berilib ketadi. Dinlar baxtni tasavvurning tasvirlarida ifodalashning mutlaqo boshqacha usullaridir, garchi barcha xalqlar va barcha odamlar bir xil baxtga ishonishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ardakoniy, R.D.Forobiy - islom falsafasining asoschisi. Per. Bilan forscha. A. Absalikova. - M.: Sadra MChJ, 2014. - 132 b. - ISBN 978-5 906016-37-9.

2. Abu Nasr Muhammad al-Forobiy. Musiqa haqida katta risola (parcha)/ Kirish maqolasi, arab tilidan tarjimasi va sharhi F. O. Nofal// Falsafiy tadqiqotlar, 21 - Lugansk: SNU filiali im. V. Daliya, 2014. - 258-265-betlar.

3. Frolova E. A. Arab falsafasi: o‘tmish va hozirgi. - M.: Tillar Slavyan madaniyatlari, 2010. - P. 173. - 461 p.

4. Forobiy. Masalalarning mohiyati // Kitobda: Yaqin va O‘rta Sharq mutafakkirlarining tanlangan asarlari. – Moskva: Bilim, 1974.-B.-168.

Muxayyo ALIKULOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, tadqiqotchi

TALABALARDA OILAGA NISBATAN MAJMUAVIY BILIMLARINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada aksiologik yondashuv asosida talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini rivojlantirish oila-ijtimoiy institutiga nisbatan motivatsiyani kuchaytirish, ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish, kasbiy qobiliyatni shakllantirish, ijodiy potensialni rag‘batlantirish, kasbiy aksiologik yo‘nalganlikka, faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash va undan unumli foydalanishga intilish bilan belgilanishi va uning amaliy ahamiyati, amaliy natijalari haqida so‘z yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Yoshlar tarbiyasi, oilaviy hayot, pedagogik yondashuv, aksiologik qadriyat, majmuaviy bilim, oilaviy burch, oilaviy mas’uliyat, oilaviy majburiyat.

В статье говорится о том, что развитие комплексных знаний студентов по отношению к семье на основе аксиологического подхода определяется усилением мотивации к семейно-социальному институту, развитием социальной компетенции, формированием профессиональных способностей, стимулированием творческого потенциала, профессиональной аксиологической направленностью, стремлением к выявлению и эффективному использованию личных возможностей для достижения успеха в деятельности и его практической значимости, практических результатах.

Ключевые слова. Воспитание молодежи, семейная жизнь, педагогический подход, аксиологическая ценность, комплексное знание, семейный долг, семейная ответственность, семейная обязанность.

He article discusses the development of students’ comprehensive knowledge about the family based on an axiological approach, strengthening motivation towards the family-social institution, developing social competence, forming professional abilities, stimulating creative potential, professional axiological orientation, determining personal opportunities for achieving success in activities and striving for their effective use, and its practical significance and practical results.

Key words. Youth education, family life, pedagogical approach, axiological value, complex knowledge, family duty, family responsibility, family commitment.

Talabalarda oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishning amaliy ahamiyatini o‘rganish uchun quyidagi uch bosqichni amalga oshirish va har bir bosqichda muayyan vazifalarni hal etish maqsadga muvofiqdir.

Asoslovchi bosqich. Asoslovchi tajriba bosqichining maqsadi – talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini mavjud holatini o‘rganishdir. Ushbu bosqichda muammoga doir pedagogik faoliyatning mavjud holatini amalda aniqlash, o‘quv faoliyati jarayonining boshlang‘ich darajasini o‘rgatish amalga oshiriladi. Shuningdek, talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus dastur taklif etish kerakligi aniqlandi. Mazkur bosqichda pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so‘rovlari kabi metodlardan foydalanish taklif etiladi. Bularning barchasi tadqiqotning asosiy yo‘nalishi va dasturini muayyan

darajada aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot mavzusiga oid yetakchi pedagog va olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinadi.

Shakllantiruvchi tajriba bosqichining maqsadi – talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish samarali ekanligini asoslash va isbotlashdir. Shakllantiruvchi bosqich talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishning samarali shakllari va innovatsion metodlari asosida o‘quv jarayoni uchun loyihalar tayyorlandi va amaliyotda respondent o‘qituvchilar yordamida ulardan foydalaniladi. Bunda asosiy e’tibor muammoni hal etishga yordam beradigan konseptual model asosida pedagogik shart-sharoitlar taklif etiladi.

Ta’kidlovchi tajriba bosqichida talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishda nazariy materiallarni amaliy hamda hamkorlik faoliyati orqali birgalikda olib borishning maxsus “Oila va talaba” dasturi mazmuniga singdirilgan metodikalar qo‘llanilgandan keyingi holat aniqlanadi. Talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish jarayonini baholash mezonlari va darajalari ishlab chiqiladi.

Talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni (psixologik, intellektual va jarayonga doir) va ularning mazkur kognitiv jarayonga shaxsiy tayyorgarligini baholash mezonlarini aniqlashtirishga muvofiq bo‘lishi mumkin. Talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish jarayonini baholash quyidagi mezon va darajalarga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim deb hisoblanadi:

Talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish jarayonining baholash mezoni va darajalari

Mezon va darajalar	**Yuqori daraja**	**O‘rta daraja**	**Past daraja**
Aksiologik oilaga oid g‘oyalar, yangi bilimlar, axloqiy va huquqiy me’yorlar, an’analarni bilish	oila qadriyatini chuqur anglash; mavjud ijtimoiy va me’yoriy tizimga mos keladigan oilaviy hayot haqidagi bilimlarining mavjudligi; oilaviy munosabatlarda shaxsning roli pozitsiyasining aniqligi.	oila qadriyatini anglash; zamonavi, ijtimoiy tizimga mos keladigan oilaviy hayot haqidagi bilimlarining yetarli emasligi; oilaviy munosabatlarda shaxsiy munosabatning aniq ko‘zga tashlanmasligi.	oila qadriyatini qisman anglash; mavjud ijtimoiy va me’yoriy tizimga mos keladigan oilaviy hayot haqidagi bilimlarga ega emasligi; oilaviy munosabatlardan qochish istagining mavjuldigi.
Refleksivlik – oila faoliyati haqidagi bilimlarni egallashga moyillik, qiziqish va ehtiyojlar	O‘quv-tarbiyaviy faoliyatida oilaga xos bilimlarni izlash, o‘zlashtirish, tahlil qilishga ijobiy munosabati rivojlangan talaba shaxsi.	O‘z kasbiga qiziquvchan, intiluvchanlik, oilaga nisbatan bilimlarni o‘zlashtirishga ikkinchi darajali deb qarash istagining ustuvorligi.	Oilaga nisbatan bilimlarni o‘rganishga deyarli qiziqishning ko‘zga tashlanmasligi. Stereotip
Funksionallik – oila haqidagi bilimlarni konkret amaliy faoliyatga tatbiq etishga qaratilgan alohida qobiliyat.	Oila haqidagi bilimlar bilan qurollanishga ishtiyoqi yuqori. Kelajakda ota-ona sifatida o‘z vazifalarini bajarishga tayyor. Olgan bilimlarini kundalik faoliyatida qo‘llash, tajriba o‘tkazish, natijasini tahlil qilishga ishtiyoqi baland talaba.	Oila haqidagi bilimlarni o‘z kelajagi uchun ahamiyatli deb hisoblaydi. Oilaga oid bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llay oladi. Oila mas’uliyatini to‘liq o‘z zimmasiga oladi.	Oila haqidagi bilimlarni o‘z kelajagi uchun muhimligini his etadi. Biroq, oila mas’uliyatini to‘liq zimmasiga olishdan cho‘chiydi.

Mazkur me’zonga asosan amaliy ishlarining asoslovchi va ta’kidlovchi jarayonlarida respondent-talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini mavjud holatini aniqlashga qaratilgan maxsus anketa, so‘rovnomalaridan hamda testlardan ham foydalanish mumkin.

“Oila qadriyatlari” treningi

Maqsad: zamonaviy oilalarda qadriyatlar haqidagi g‘oyalarini shakllantirish.

Vazifalar: oila qadriyatlarini, oilalarning xususiyatlarini o‘rganish, “oila” tushunchasini umumlashtirish.

Oilaviy qadriyatlarni eshitish va fikr bildirish qobiliyatini shakllantirish.

Oilaviy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradigan shaxsiy fazilatlarni shakllantirish.

Trening shakli: o‘quv mashg‘uloti jarayonida.

Vositalar: naqshli blankalar, qadriyatni aniqlash jadvali, talabalar soniga ko‘ra qalamlar, bo‘sh qog‘oz varaqlari

Trening mazmuni: kirish so‘zi

Bir faylasuf yozgan:“Sevgi – bu to‘rt faslni kimdir bilan birga boshdan kechirishni xohlashdir.

Talabalar uchun savol:

Sevgi so‘zi bilan qanday so‘zlarni bog‘laysiz?

Ro‘yxatdagi variantlar orasida “baxt” deb qaysi birini aytasiz.

Endi oddiy vazifani bajaramiz.

Ko‘rsatmalar: inson hayotining baxt bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan muhim sohalarini kamayish tartibida raqamlang.

Qadriyatlarni baholash jadvali

Qadriyatlar	Qadriyatlarning ahamiyati
Karera	
Oila	
Go‘zallik	
Keng dunyoqarash	
Moliyaviy farovonlik	
Hazil tuyg‘usi	

“Sirli salomlashish” treningi

Maqsad: talabalarning his-tuyg‘ulari, kechinmalari va munosabatlarini ko‘rib chiqish;

reglament qoidasi (talabalar o‘z fikrlarini aniq, lo‘nda, qisqa bayon etishlari kerak);

sirlilik qoidasi (mashg‘ulot jarayonidagi barcha kechinmalar guruhdan tashqaridagi chiqishi mumkin emas);

Trening o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyati: muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni bartaraf etish, shaxsda muloqot ma’daniyati shakllantirish, muloqot texnikasini yanada shakllantirish.

Vosita:(oldindan tayyorlangan, vatmanga).

Mazmuni: siz hech kimga qaramasdan salomlashishni amalga oshiring. Guruhdagilar salom kimga yo‘nalganligini topishi lozim. Siz mening ogohlantirishimdan so‘ng baland ovoz bilan kimga sirli salomlashish yo‘llaganingizni aytasiz. Sizning salomlashishingiz obrazli, yorqin ammo sirli bo‘lsin.Mashqdan so‘ng talabalar uchta eng yaxshi “sirli” salomni aniqlaydilar hamda bu kabi salomlashish oilaviy munosabatlardagi ahamiyatini tahlil qiladilar.

“Davomli ertak” treninggi

Maqsad: o‘zaro munosabatga kirishish, o‘zgalar fikrini tushunish va hayrihohlik ko‘nikmasini shakllantirish.

Mazmuni:talabalarga oldin ismini aytib, so‘ngra qo‘lini ushlagan holatda shirin tilak bildirish aytiladi. Talabalarga kartochka beriladi. Bu kartochkada faqat o‘zidan oldingi sheriginni fikrini o‘qib ertakni davom ettirish aytiladi. Talabalar faqat o‘zlaridan oldingi fikrini o‘qib, “Guruh ertagi”ni davom ettiradi.Oxirgi fikridan so‘ng “Guruh ertagi” o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi va muhokama qilinadi.

“Rolli vaziyat” treningi

Maqsad: shaxsda noverbal muloqotni shakllantirish.

Mazmun: talabalardan 5 kishi guruh tashqarisida turadi.

Mening uyimda mushukcham bor, agar uyga tezroq bormasam u och qoladi. Shuning uchun sen borib mushukchamni ovqatlantirib qo‘y.Pedagog sifatida faqat men so‘z bilan aytaman, siz esa bu hikoyani bir-birlaringizga mimika orqali tushuntiradi (guruh tashqarisida turgan talabalar pedagogning fkrini guruhdagi talabalarga noverbal muloqot orqali yetkazishlari kerak).

“Ideal oila” treningi

Maqsad: talabalarni o‘zgalarga talab qo‘yishda nimalarga ahamiyat qaratish kerakligini o‘rgatish, o‘z-o‘zini tahlil qilish, baholash.

Mazmuni: talabalar 4 ta guruhga bo‘linishadi.

1 gr. “Ideal ota”

2 gr. “Ideal ona”

3gr “Ideal o‘g‘il”

4gr. “Ileal qiz”

Ko‘pincha biz bir-birimizga yuqori talablarni qo‘yamiz, to‘g‘rimi? Ammo o‘zimizga qo‘yilgan talablarni bajara olamizmi? Biz idealmizmi?

O‘g‘il bolalar uchun “Ideal ona”ni tavsiflovchi ro‘yxatni, qizlar uchun “Ideal ota”ni tavsiflovchi ro‘yxatni tuzishdir. Ota-onalar uchun esa: ideal o‘g‘il”, “Ideal qiz”.

Jadvalni to‘ldiring

Ideal oila			
Ideal ota	Ideal ona	Ideal o‘g‘il	Ideal qiz

Shundan so‘ng, ro‘yxatlar o‘qiladi. Talabalarga “Ideal oila” a’zosi qanday bo‘lishi kerakligini muhokama qilish taklif etiladi.Mazkur mezonga asosan amaliy ishlarining asoslovchi va ta’kidlovchi jarayonlarida respondent-talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini mavjud holatini aniqlashga qaratilgan maxsus anketa-so‘rovnomalaridan hamda testlardan ham foydalanish mumkin.

“Mustahkam va baxtli oila yaratish uchun qanday sharoitlar zarur?” degan savolga talabalarning javoblari orqali oila iqtisodiyoti, oilaviy hayotni tashkil etish qobiliyati, yoshlarning o‘z oilasini mustaqil moliyalash qobiliyati va boshqa bilimlarning mavjud namoyon etishdi.

“Oilaviy munosabatlarga shaxsiy tayyorgarlikning dolzarbligi nimada?”,- degan savolimizga talabalar tomonidan ushbu konsepsiyaning mazmunini oila haqidagi to‘liq nazariy va amaliy bilimga ega bo‘lmaslik degan javobni yoki unga yaqin tushunchani

aniqlash uchun beriladi.

“Sizningcha, nikoh va oilaga tayyorlik” tushunchasiga nimalar kiradi?” degan savolga respondentlarning turmush qurishga shaxsiy tayyorlik – bu turmush o‘rtog‘i va bolalariga ega bo‘lish va ularga g‘amxo‘rlik qilish istagi; shaxsiy tayyorlik – bu nikoh va oila bilan muhim hayotiy qadriyat sifatida munosabatlar; nikohga shaxsiy tayyorlik – bu oilada yashaydigan qonunlarni bilish; nikohga shaxsiy tayyorlik – bu oila a’zolariga xayrixohlik, hamdardlik, sabr-toqat ko‘rsatish qobiliyati va boshqalarni namayon etishi uchun beriladi.

“Oilani qurishning asosiy motivi nima” degan savolga talabalardagi bag‘rikenglik, qarashlar kengligi, sezgirlik kabi ko‘rsatkichlar hayotda muvaffaqiyatga erishish darajasini aniqlash uchun beriladi.

Shunday qilib, olingan ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki, talabalar nikoh yoshida bo‘lib, muvaffaqiyatli oilaviy munosabatlar uchun nikohga shaxsiy tayyorlik muhimligini bilishadi. Shu bilan birga, talabalarning aksariyati turmush qurishga shaxsiy tayyorlikni rivojlantirishning samarali usullaridan foydalana olish, hamkorlik qilish, psixologik xizmat, tajribalarni o‘rganish kabi qadriyatga asoslangan bilimlarni yetarlicha o‘zlashtirmaganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilova G. O. “Kasbiy kompetentlik”o‘quv qo‘llanma T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” 2021-yil 228-bet

2. Ahmedova M.A., Xan V.S., Alimova D.A. “Qadriyatlar falsafasi” (Aksiologiya) T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti 2006-yil 440-bet.

3. Matbua Ahmedova “Falsafa” darslik T.: “O‘zbekiston faylassuflari milliy jamiyati” nashriyoti 2006-yil 496-bet

4. Madvaliyev A. “Pedagogika ensiklopediyasi” T.: “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” davlat milliy nashriyoti 2015-yil 320-bet.

Munavvar NAMOZOVA,
EMU UNIVERSITY o'qituvchisi

OLIY TA'LIMDA PROFESSOR-O'QITUVCHILARINING MALAKA OSHIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada malaka oshirish xodimlarning kasbiy bilim, ko'nikma va tajribalarini oshirishga qaratilgan uzluksiz ta'lim jarayoni ekanligi, uning jamiyat va texnologiyalar rivojlanishi bilan hamnafas bo'lishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida bu jarayon professor-o'qituvchilarning pedagogik, ilmiy va kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgani xususida tadqiq qilinadi.

Tayanch so'zlar. Malaka oshirish, muloqot, inson, ta'lim, pedagogika, usul, rivojlanish.

В статье рассматривается вопрос о том, что повышение квалификации-это непрерывный образовательный процесс, направленный на повышение профессиональных знаний, навыков и опыта сотрудников, который должен идти в ногу с развитием общества и технологий. Также в системе высшего образования этот процесс исследуется в том смысле, что он направлен на повышение педагогического, научного и профессионального потенциала профессорско-преподавательского состава.

Ключевые слова. Повышение квалификации, коммуникация, личность, образование, педагогика, метод, развитие.

The article reflects on the fact that professional development is a continuous educational process aimed at improving professional knowledge, skills and experience of employees, it will keep pace with the development of society and technology. Also, in the higher education system, this process is studied on the basis of the focus on improving the pedagogical, scientific and professional potential of teachers.

Key words. Professional development, communication, person, education, pedagogy, method, development.

Malaka oshirish yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga qaratiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'rganish – raqamli ta'lim, interaktiv o'qitish usullari va masofaviy ta'lim metodlaridan foydalanishdan iborat. Fan va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari bilan tanishish – zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari va texnologiyalarni o'zlashtiriladi. O'quv dasturlarini takomillashtirish – xalqaro ta'lim standartlariga mos holda o'quv reja va dasturlarni yangilanadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda ham uning ahamiyati katta. Interaktiv o'qitish usullaridan foydalanish – teskari sinf, gamifikatsiya, loyihaviy ta'lim kabi metodlarni tatbiq etiladi. Talabalar bilan samarali ishlash – ularning qiziqishini oshirish va bilimni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beriladi. Baholash tizimini takomillashtirish – an'anaviy baholash usullari bilan birga sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalaniladi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga ham uning o'rni bor. Ilmiy maqolalar yozish va chop etish – xalqaro indekslangan jurnallarda maqolalar nashr qilinadi. Grant va loyihalarda ishtirok etish – xalqaro va mahalliy ilmiy loyihalarda qatnashish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratiladi. Ilmiy hamkorlikni rivojlantirish

– xalqaro universitetlar bilan tajriba almashilinadi. O‘qituvchining kasbiy mahorat va yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantiriladi. Mentorlik va murabbiylik ko‘nikmalarini shakllantirish – yosh mutaxassislarga tajriba o‘rgatiladi.

Ta’lim muassasasida boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish – akademik rahbarlik, loyiha boshqaruvi va ta’lim tizimini rivojlantiriladi. Jamoaviy ishlash va muammolarni hal qilish qobiliyati oshiriladi. Oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtiriladi. Xalqaro ta’lim dasturlarini integratsiya qilish – ERASMUS+, Fulbright, DAAD kabi dasturlar orqali xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda dars berish – xalqaro professorlar bilan tajriba almashiniladi. Dunyo ta’lim tajribalaridan foydalanish – ilg‘or universitetlar ta’lim usullarini mahalliy ta’lim tizimiga moslashtiriladi.

Oliy ta’lim professor-o‘qituvchilarining malaka oshirish jarayoni tegishli qonunlar, davlat qarorlari va xalqaro standartlar asosida tartibga solinadi. Ushbu jarayon tizimli yondashuv asosida amalga oshiriladi va quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Me’yoriy-huquqiy asoslar

Malaka oshirish jarayoni quyidagi me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi:

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasiga oid farmon va qarorlari

Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimidagi professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha qarorlari

Bologna jarayoni va xalqaro ta’lim standartlari

2. Malaka oshirish muddati va davriyligi

Professor-o‘qituvchilar har 3 yilda bir marta malaka oshirish kurslarini o‘tashi shart.

Kafedralar va fakultetlar o‘z ichki rejalari asosida yillik malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqadi.

Professorlar va katta o‘qituvchilar ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishi uchun maxsus kurslar ham mavjud.

3. Malaka oshirish shakllari

Malaka oshirish turli formatlarda amalga oshiriladi:

A) An’anaviy (offline) malaka oshirish

Oliy ta’lim muassasalari huzuridagi malaka oshirish markazlarida o‘tkaziladi.

Professor-o‘qituvchilar uchun maxsus seminar va treninglar tashkil etiladi.

O‘zbekiston va xorijdagi ilmiy va ta’lim muassasalarida stajirovka (amaliyot) o‘tkazish imkoni mavjud.

B) Masofaviy (online) malaka oshirish

ZOOM, Microsoft Teams, Google Meet orqali vebinarlar.

MOOC platformalarida (Coursera, edX, Udemy) maxsus kurslar.

Virtual laboratoriyalar orqali amaliy mashg‘ulotlar.

C) Xalqaro dasturlar va akademik mobillik

Erasmus+, Fulbright, DAAD kabi xalqaro dasturlar orqali xorijiy universitetlarda o‘qish.

Ilmiy hamkorlik doirasida xorijiy mutaxassislar bilan tajriba almashish.

4. Malaka oshirish mazmuni

Professor-o‘qituvchilar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshiradi:

Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta’lim metodikasi

Fan-texnika yutuqlari va yangi tadqiqot usullari

Axborot texnologiyalari va raqamli ta’lim

Ilmiy tadqiqot metodlari va grant yozish ko‘nikmalari

Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili

5. Malaka oshirish natijalarini baholash va sertifikatlash

Malaka oshirish kurslari yakunida imtihon yoki yakuniy loyiha (test, amaliy ish) o‘tkaziladi.

O‘qituvchilar sertifikat yoki diplom oladi.

Ushbu sertifikatlar professor-o‘qituvchining lavozim ko‘tarilishida va attestatsiyadan o‘tishda muhim ahamiyatga ega.

Malaka oshirish jarayoni davlat tomonidan tartibga solinadi va aniq belgilangan tizim asosida amalga oshiriladi. O‘qituvchilarning doimiy o‘rganishi, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishi va ilmiy salohiyatini oshirishi ta’lim sifatining yuksalishiga xizmat qiladi. Malaka oshirishning mohiyati o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, ta’lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni mustahkamlash va zamonaviy innovatsiyalarni o‘zlashtirish orqali oliy ta’lim tizimini takomillashtirishdan iborat. Bu jarayon doimiy o‘rganish va o‘z ustida ishlashni talab qiladi.Oliy ta’lim o‘qituvchilarining malaka oshirish jarayonini samarali tashkil etish uchun zamonaviy metodlar qo‘llaniladi. Quyida eng ilg‘or yondashuvlarni keltirib o‘tamiz:

1. Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar

MOOC (Massive Open Online Courses) – Coursera, edX, Udemy kabi kurslar orqali dunyoning eng yaxshi universitetlaridan dars olish imkoniyati.

Vebinar va veb-konferensiyalar – Zoom, Microsoft Teams, Google Meet orqali interaktiv seminarlar tashkil etish.

Sun’iy intellekt va virtual laboratoriyalar – AI yordamida avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va simulyatsiya muhitlaridan foydalanish.

2. Teskari sinf (Flipped Classroom)

Bu metodda o‘qituvchilar an’anaviy dars berish o‘rniga, ma’lumotni oldindan mustaqil o‘rganish uchun taqdim etadi. Dars vaqtida esa muhokama, muammolarni hal qilish va amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor qaratiladi.

3. STEAM va loyihaviy ta’lim

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) metodikasi orqali o‘qituvchilar turli fanlar integratsiyasini o‘rganadi va amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

4. Blended Learning (Aralash ta’lim)

An’anaviy darslarni onlayn resurslar bilan uyg‘unlashtirish. O‘qituvchilar o‘z sohalari bo‘yicha o‘qish jarayonini interaktiv va moslashuvchan qilish uchun turli formatlarni sinab ko‘radi.

5. Professional hamjamiyatlar va tajriba almashish

Mentorlik tizimi – Tajribali professorlar yosh o‘qituvchilar bilan bilim almashadi.

Ilmiy seminarlar va xalqaro konferensiyalar – So‘nggi innovatsion tadqiqotlar bo‘yicha tajriba almashish.

6. Gamifikatsiya va interaktiv yondashuvlar

Ta’limni qiziqarli qilish uchun o‘yin elementlari va interaktiv dasturlar (Kahoot, Quizizz, Mentimeter) yordamida o‘qitish usullarini o‘rganish.

7. Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili

O‘qituvchilar AI va Big Data vositalari bilan tanishib, ma’lumotlarni tahlil qilish orqali ta’lim jarayonini optimallashtirishni o‘rganadi.

Malaka oshirish o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, ta’lim sifatini

oshirish va zamonaviy o‘quv jarayonlariga moslashish maqsadida olib boriladi. Bu jarayon oliy ta’limda innovatsiyalarni rivojlantirish va xalqaro ta’lim standartlariga moslashish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Malaka oshirish – bu xodimlarning kasbiy bilim, ko‘nikma va tajribalarini oshirishga qaratilgan uzluksiz ta’lim jarayoni bo‘lib, u jamiyat va texnologiyalar rivojlanishi bilan hamnafas bo‘lishni ta’minlaydi. Oliy ta’lim tizimida bu jarayon professor-o‘qituvchilarning pedagogik, ilmiy va kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan.

Malaka oshirishning asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘rganish – raqamli ta’lim, interaktiv o‘qitish usullari va masofaviy ta’lim metodlaridan foydalanish.

Fan va texnologiyalarning so‘nggi yutuqlari bilan tanishish – zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari va texnologiyalarni o‘zlashtirish.

O‘quv dasturlarini takomillashtirish – xalqaro ta’lim standartlariga mos holda o‘quv reja va dasturlarni yangilash.

2. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish

Interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanish – teskari sinf, gamifikatsiya, loyihaviy ta’lim kabi metodlarni tatbiq etish.

Talabalar bilan samarali ishlash – ularning qiziqishini oshirish va bilimni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam berish.

Baholash tizimini takomillashtirish – an’anaviy baholash usullari bilan birga sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish.

3. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish

Ilmiy maqolalar yozish va chop etish – xalqaro indekslangan jurnallarda maqolalar nashr qilish.

Grant va loyihalarda ishtirok etish – xalqaro va mahalliy ilmiy loyihalarda qatnashish imkoniyatlarini kengaytirish.

Ilmiy hamkorlikni rivojlantirish – xalqaro universitetlar bilan tajriba almashish.

4. Kasbiy mahorat va yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish

Mentorlik va murabbiylik ko‘nikmalarini shakllantirish – yosh mutaxassislarga tajriba o‘rgatish.

Ta’lim muassasasida boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish – akademik rahbarlik, loyiha boshqaruvi va ta’lim tizimini rivojlantirish.

Jamoaviy ishlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish.

5. Oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish

Xalqaro ta’lim dasturlarini integratsiya qilish – ERASMUS+, Fulbright, DAAD kabi dasturlar orqali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, malaka oshirishning mohiyati o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, ta’lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni mustahkamlash va zamonaviy innovatsiyalarni o‘zlashtirish orqali oliy ta’lim tizimini takomillashtirishdan iborat. Bu jarayon doimiy o‘rganish va o‘z ustida ishlashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Munavvarov A. K. Pedagogika. Toshkent, «Kamalak», 1991.

2. Abduqodirov A.A. Akademik litsey va KHK o‘qituvchilarini malakasini oshirishda masofali o‘qitish metodikasi // «Uzluksiz ta’lim». Toshkent, 2004. № 5.

3. Ismoilova Z.K. Pedagogikadan amaliy topshiriqlar: 0 ‘quv qo‘llanma. Toshkent, «Fan», 2001

Ulug'bek RAHMONOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

JISMONIY TARBIYA FANINING BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRACIYASINI TA'MINLASHNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya

Maqolada jismoniy tarbiya fanining fanlar bilan integratsiyalashuvi: biologiya, fizika, kimyo, hayot faoliyati xavfsizligi va boshqalar. Shuningdek, fanlararo aloqalar o'qitishni sezilarli darajada jonlantiradi va o'quvchilarning bilim faolligini rag'batlantirish haqida bayon qilingan.

Tayanch so'zlar. Biologiya, fizika, kimyo, hayot faoliyati xavfsizligi.

Интеграция науки физического воспитания с науками: биологией, физикой, химией, безопасностью жизнедеятельности и др. Межпредметные связи существенно оживляют обучение и стимулируют познавательную деятельность студентов.

Ключевые слова. Биология, физика, химия, безопасность жизнедеятельности.

Integration of physical education with disciplines: biology, physics, chemistry, life safety, etc. Interdisciplinary connections significantly revitalize teaching and stimulate the cognitive activity of students.

Key words. Biology, physics, chemistry, life safety.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boburjon Xolmaxmatov va boshqalar. “Yengil atletika turlari va ularning qoidalari.” Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 18.6 (2024): 68-70.

2. Zayniddinov T.B., Sodiqov A. va Imanjanova R. “Jismoniy tarbiya gigiyenasi va sportning tibbiyot fiziologik asoslari” 2018

3. Yakkakurash, koordibatsion va siklik sport turlari “Yengil atletika” (darslik) 2017.

4. Xo‘jamkeldiyev G‘.S. “Yengil atletikani o‘qitish metodikasi” O‘quv qo‘llanma. 2022

5. Oralova B. Husniddin qizi “Yosh yengil atletikachilarning kuchini rivojlantirishning fiziologik xususiyati”, “O‘zbek tilini ona tili va xorijiy til sifatida o‘qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023-yil19-oktabr

5. Elova Sitora Axmatkulovna “Qisqa masofaga yuguruvchilarda tezkor kuchni rivojlantirish.” international journal of science and technology (2024): 1085-1087.

Zulfiya ALIMOVA,
Shahrisabz davlat Pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti,
"Maktabgacha ta'lim" kafedrasi katta o'qituvchi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish, ularning adabiy til normalariga rioya qilish, o'z fikrlarini, hissiyotlarini, tasavvurlarini aytilayotgan gapning yo'nalishi va maqsadiga muvofiq holda mazmunli, grammatik to'g'ri, aniq va ifodalab bera olishiga e'tibor qaratiladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqining funksiyalari ko'p qirralidir. Bunda bola nutqdan atrofdagilar bilan muloqot o'rnatish, o'ziga, o'z ishlari va kechinmalariga e'tiborni jalb qilish, bir-birini tushunish, sherigining xulqiga, fikr va hissiyotlariga ta'sir qilish, o'z faoliyatini yo'lga qo'yish, o'zining va birga o'ynayotgan o'rtoqlarining harakatlarini muvofiqlashtirish uchun foydalanadi.

Tayanch so'zlar. Bola, nutq, atrof-muhit, faoliyat, fikr, hissiyot, muloqot, o'qish, malaka, nutqiy rivojlanish, sohalar, maktabgacha ta'lim, rivojlanish.

В данной статье основное внимание уделяется развитию речи детей дошкольного возраста, соблюдению ими норм литературного языка, умению выражать свои мысли, чувства, воображение осмысленно, грамматически правильно, ясно и выразительно в соответствии с направлением и целью речи. Функции речи детей дошкольного возраста многогранны. В этом случае ребенок использует речь для общения с другими, для привлечения внимания к себе, своим произведениям и переживаниям, для понимания друг друга, для воздействия на поведение, мысли и чувства партнера, для налаживания собственной деятельности, для координации действий себя и играющих с ним друзей.

Ключевые слова. Ребенок, речь, окружающая среда, деятельность, мысль, эмоция, общение, чтение, компетентность, речевое развитие, сферы, дошкольное образование, развитие.

This article focuses on the development of the speech of children of preschool age, their adherence to the norms of literary language, their ability to express their thoughts, feelings, and imagination in a meaningful, grammatically correct, clear and expressive manner in accordance with the direction and purpose of the speech. The functions of preschool children's speech are multifaceted. In this case, the child uses speech to communicate with others, to draw attention to himself, his work and experiences, to understand each other, to influence the behavior, thoughts and feelings of his partner, to establish his own activities, to coordinate the actions of himself and his friends who are playing with him.

Key words Child, speech, environment, activity, thought, emotion, communication, reading, competence, speech development, areas, preschool education, development.

Hozirgi paytda maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga yanada yuqori talablar qo'yilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqni rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonunining 8-moddasida "Maktabgacha ta'lim-tarbiya bu – bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qara-

tilgan ta’lim turidir,– deb ta’kidlangan. Shunday ekan bolalarda faol nutqni rivojlantirish uchun dastlabki bilimni maktabgacha ta’lim tashkiloti to‘g‘ri tashkil etishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni shakllantirish masalalarini nutqiy faoliyat nazariyasi asosida tadqiq etish maktabgacha ta’limning nazariyasi hamda amaliyoti uchun dolzarb va ahamiyatli hisoblanadi. Nazariy va amaliy ishlar shundan dalolat bermoqdaki, nutqiy faoliyat motivatsiyasini boyitish bolalar nutqini rivojlantirish borasidagi ishlarning samaradorligini oshiradi.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: “Nutqni rivojlantirish jarayoni bola lug‘atining va so‘zlarning assotsiatsiya asosida bog‘lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o‘zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o‘zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog‘langan holda so‘zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir” .

Til millatning noyob xazinasi bo‘lib, doimo og‘zaki va yozma holda namoyon bo‘lgan. Boy, yorqin, maroqli, nutq so‘zlayotgan kim bo‘lishidan qat’iy nazar, uning nuri hisoblanadi. Tilni oliyjanob imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo‘lmas ekan tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi. So‘z va g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy til va nutq munosabatlarini shunday izohlaydi. “Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa tilning manfaatidir” .

Demak, til qanchalik zo‘r bo‘lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qilarkan. Uning kuch qudrati nutq jarayonida namoyon bo‘lar ekan. Agar til o‘q bo‘lsa, nutq kamondir. O‘qning qudrati, kamonning qudratiga ham bog‘liq. Buyuk bobomiz Alisher. Navoiy so‘zga shunday baho berganlar.

“So‘zdirki, nishon berur o‘likka jondin,
So‘zdirki, berur jonga xabar jonondin.
Insonki so‘z ayladi judo hayvondin,
Balki, guhari sharifroq yo‘q ondin”.

Qadimgi sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri “Qobusnoma”da ham til va nutqqa alohida e’tibor berilganki, ular hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini ko‘ramiz. Kaykovus barcha hunarlar ichida so‘z hunari – notiqlikni a’lo deb biladi: “Bilinki hamma hunardan so‘z hunari yaxshi”. Shuning uchun ham kishi suxandon va notiq bo‘lishini ta’kidlaydi. Muallif notiqlikni egallashning yo‘lini tinimsiz mehnat va o‘rganish deb uqtiradi. Ma’lumki til inson aqliy faoliyatining eng oliy va asosiy vositasidir. Chunki insonni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan ham til mahsulimasmi? Shunday ekan, inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari tafakkur mevalari til, nutq orqali ro‘yobga chiqadi. Til tafakkur mahsulining hayotga tatbiq etilish vositasi bo‘luvchi qudratli quroldir”.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirishda tilni rivojlantirish masalalariga jiddiy e'tibor qatilishi lozim. Tevarak-atrofni o‘rganish jarayoni bola tafakkurini rivojlantirishda boshqa hech narsa bilan almashtirish mumkin bo‘lmagan hissiy rag‘batlantirishga sabab bo‘ladi. Bunday rag‘batlanish bog‘cha yoshidagi katta bolalar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Chunki tevarak-atrofdagi predmetlar, voqeliklar asosida tug‘iladigan hissiyot bola tafakkurida rivojlanib, uning tiliga, jonli ifodaga ko‘chadi. Shuning uchun ham bolaning tevarak-atrofdagi voqelikni bilib borishi, uning go‘zalligini, bitmas-tuganmas murakkabliklarini his etishi, ijtimoiy munosabatlar va kattalar dunyosiga kirib borishi, uning har tomonlama kamol topishi bilan birga, bog‘lanishli nutqining ham boyib, shakllanib borishiga olib keladi. Zero, bolalik dunyoni zavqlanib, hissiyotlarga to‘lib idrok etish, uni kashf etish bilan uyg‘undir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish ham ma’lum pedagogik tizimning loyihasidir. Ya’ni, bolalarda nutqni

rivojlantirish maqsadi, mazmuni, tarbiya metodlari, shakllari va vositalari ifodalangan bir butun tizim texnologiyasidir

Takomillashtirilgan ilk qadam davlat o‘quv dasturida bolalarning rivojlanish sohalari bo‘yicha kompetensiyalarni o‘zaro bog‘liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, shuningdek, uning maktab ta’limi bo‘lgan keyingi bosqichiga muammosiz o‘tishi va unga tayyor bo‘lishi, boshlang‘ich ta’limda kompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarurdir.

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasi kompetensiyalari hisoblanadi va o‘z navbatida 3 ta kichik sohalarga bo‘linadi:

3.1. Kichik soha: til va nutq;

3.2. Kichik soha: o‘qish malakalari;

3.3. Kichik soha: qo‘l barmoqlari mayda motorikasi.

Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasidagi ta’lim va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- ona tilini eshitadi va tushunadi;
- ona tilida to‘g‘ri talaffuz, mos grammatik shakllar va turli gap tuzilmalaridan foydalanadi;
- chet tilini o‘rganishga qiziqish bildiradi;
- chet tili bo‘yicha dastlabki bilimlarini namoyish etadi;
- badiiy adabiyotga qiziqish bildiradi;
- so‘zning lug‘aviy ma’nosi, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga tushunchaga ega bo‘ladi;
- gapning turli ma’no shakllarini mustaqil ravishda tuzadi va so‘zlab bera oladi;
- ona tilida yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya jarayonida turli xil metodlardan foydalanib, bolaning nutqini rivojlantirish har bir pedagog oldida turgan vazifalardan sanaladi. Nutqda eng muhim metod bu dialogik nutq, ya’ni bolalar bilan so‘zlashishdir. So‘zlashish og‘zaki nutqning eng oddiy shakli bo‘lib, unda bola o‘zini tutishi, ko‘z qarashi, xatti-harakati, ovozining past-balandligi, tezligi kabi turli holatlar hisobga olinadi. So‘zlashish – dialogik nutq, asosan kattalar yordamida amalga oshiriladi va u ayniqsa, tevarak-atrofni bilish jarayonida yaxshi natijalar beradi. Jumladan, jamoat joylarida, ko‘pchilik o‘rtasida nutq madaniyatiga rioya etishga e’tibor qaratiladi. Bunda bir-birining nutqini to‘ldirib borish, tuzatishlar kiritish, so‘rash, so‘rab bilib olish dialogik nutqqa o‘rgatishning usullari sanaladi. Maxsus tayyorlanadigan muloqotlar esa dastur asosida muayyan mavzular bo‘yicha uyushtiriladi. Masalan, maxsus tayyorlangan suhbatlar quyidagicha tuziladi: dastlab mavzu belgilanadi, uning maqsadi, vositalari aniqlanadi, savollar tuziladi. Lekin bularning har biri nimaga? nima uchun? nimadan? qanday qilib? kabi izlanuvchi va muammoli savollar tarzida bo‘lishi zarur. Shu bilan birga, savollar, umumlashtiruvchi xarakter kasb etishi ham mumkin. Bunda muloqot mashg‘uloti suhbat, muqaddima, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘ladi. Masalan, “Bahorda bog‘cha hovlisiga gul o‘tqazdik” mavzusida suhbat. Bu suhbat bog‘cha hovlisiga gul o‘tqazilgandan keyingi kun bo‘lishi mumkin.

Tarbiyachi: bolalar, biz bog‘cha hovlisiga qanaqa gullarni o‘tqazdik?

Kim qanday gul ko‘chati olib kelgan edi?

Bolalar: biz atirgul, ra'nogul, lola, gulsafsar, karnaygul, xrizantema gullarni o'tqazdik.

Lola: men atirgul olib keldim.

Zahro: men ra'nogul ko'chatini olib keldim.

Mehriniso: men xrizantema ko'chatini keltirdim.

Ilhom: men lola guli piyozini olib keldim.

Tarbiyachi: kimning guli qayerda o'sayotganini qanday qilib bilib olasiz?

Lola: gullarimiz ochilganda bilib olamiz.

Tarbiyachi: ularni kim parvarish qiladi?

Bolalar: hammamiz parvarish qilamiz.

Shoxruh: bog'bon bobomiz parvarish qiladilar.

Tarbiyachi: bolalar, biz parvarish qilamizmi, bog'bon bobomizmi?

Gulnoza: bog'bon bobomiz keksalar. Biz u kishiga gullar parvarishida yordam qilishimiz kerak.

Tarbiyachi: to'g'ri, bu gullarni biz o'tqazdik, endi ularning parvarishiga ham yordam beramiz. Ayting-chi, gullar qanday parvarish qilinadi?

Shoxsanam: suv quyamiz.

Lola: tagini yumshatib, chopiq qilamiz.

Gulnoza: yovvoyi o'tlardan tozalaymiz.

Tarbiyachi: juda to'g'ri javob berdingiz. Orangizda o'sayotgan gullarni payhon qilib tashlaydigan bolalar ham bormi?

Nosir: yo'q, biz unday bolalarni gulzorimizga qo'ymaymiz.

Lola: gullarni yulib bo'lmaydi, deb tushuntiramiz.

Tarbiyachi: juda yaxshi aytdingiz. Gullarni payhon qilib bo'lmaydi. Har bir bola bittadan gulni uzaversa, nima bo'ladi? Gullarni yulib ham bo'lmaydi. Chunki, ular hayotimizni yanada go'zal qiladi.

Lola: hayotni go'zal qiladi, degani nima degani?

Tarbiyachi: gulzorda hamma gullar ochilganda, bog'cha hovlisi chiroyli bo'lib ketadi. Bundan hammamiz quvonamiz. Bog'chaga borgimiz kelaveradi. Kayfiyatimiz ko'tariladi. Hamma yugurib-yelib ish qilgisi keladi. Ana shularning barchasi hayotning go'zalligini anglatadi.

Sarvar: demak, xonamizdagi gullarni ham parvarish qilsak, ularni ko'paytirsak, xonamiz ham chiroyli va go'zal bo'ladi.

Sevara: bog'chamiz shinam bo'ladi, biz quvonamiz. Har kuni bog'chamizga, guruhimizga kelgimiz kelaveradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar oy mavzusi hamda hafta mavzusidan kelib chiqqan holda rejalashtiriladi. Masalan, sentyabr, oktyabr, noyabr oylarida "O'zbekiston – mening Vatanim", "Kuz bo'yoqlari", "Transport, yo'l harakati qoidalari". "Hayot xavfsizligi asoslari" kabi mavzularda mashg'ulotlar rejalashtiriladi. Shunga ko'ra quyida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan ishlarga nazar soldik.

Bolalar guruhi bilan suhbat uyushtirilganda, suhbat uchun ularning kundalik turmushida uchraydigan transport turlari tanlandi. Suhbat quyidagi savollar asosida olib borildi:

1. Odamlar bir-birlarinikiga, ishga, o'qishga nimada boradilar? (yengil avtomobil, avtobus).

2. Quruqlikda yuradigan qanday transport turlarini bilasiz? (avtobus, poyezd, yuk mashinalari, yengil mashinalar).

3. Suvda qanday transport turlari yuradi? (paraxod, qayiq, kater, suv osti kemalari).

4. Havoda-chi? (samolyot, vertolyot, raketa, kosmik kema).

Suhbat jarayonida bolalarning mavzudan chalg'ib ketish hollari ham bo'lib turadi. Shuning uchun yo'naltiruvchi savollardan ham foydalanildi. Bu xildagi suhbatlarda, albatta, bolalarning barchasi qatnashishi maqsadga muvofiq. Yuqoridagi guruh bilan

navbatdagi suhbat sayrga chiqish jarayonida olib boriladi. Sayrga ota-onalardan 2 kishi hamrohlik qilishi mumkin. Tarbiyachining maxsus maslahatidan so‘ng 2 ta kichik guruhda suhbat qilinadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarga ta’lim-tarbiya berishda bolada nutq madaniyatini shakllantirishga katta e’tibor qaratiladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda nutq madaniyatini rivojlantirishga doir quyidagi vazifalarni muvafaqqiyatli hal etish lozim:

1) tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni shakllantirish. (bolada avvalo, nutqni eshitish shakllanadi, keyinroq u talaffuzni egallaydi);

2) aniq talaffuzni hosil qilish. (so‘z va so‘z birikmalarini dona- dona va aniq talaffuz qilish);

3) so‘zni talaffuz qilganda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish ustida ishlash;

4) nutqning orfoepik jihatdan to‘g‘riligi ustida ishlash;

5) nutq sur’atini rivojlantirish;

6) nutqning ifodaliligini shakllantirish;

7) nutqiy aloqa ko‘nikmalarini shakllantirish;

8) nutqiy eshitish ko‘nikmalarini shakllantirish;

9) nutqiy nafas olishni shakllantirish;

10) o‘z fikrini erkin va izchil bayon etish ko‘nikmasini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish xilma-xil faoliyat turlarida amalga oshadi:

1) tabiat obyektlari bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida;

2) badiiy asarlar bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida;

3) savodga o‘rgatishda;

4) o‘yin faoliyatida;

5) ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarni bajarish asosida.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish, ularning adabiy til normalariga rioya qilish, o‘z fikrlarini, hissiyotlarini, tasavvurlarini aytilayotgan gapning yo‘nalishi va maqsadiga muvofiq holda mazmunli, grammatik to‘g‘ri, aniq va ifodalab bera olishiga e‘tibor qaratiladi. Nutq faqat bolada til boyligiga nisbatan qiziqish tarbiyalangan, nutqda turli xil ifoda vositalaridan foydalanish ko‘nikmasi rivojlantirilgan taqdirda obrazli, bevosita va jonli bo‘ladi. Bola o‘zining amaliy, bilish va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun o‘zida mavjud bo‘lgan barcha vositalardan va noixtiyoriy vaziyatlarda fikr bildirishdan, nonutqiy vositalardan (imo-ishoralardan, mimika va harakat) va bevosita nutqning o‘zidan foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Takomillashtirilgan Ilk Qadam davlat o‘quv dasturi. – T. 2022-yil.

2. Babayeva. D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2018-yil. Darslik. 115-bet.

3. Tosheva Nurzoda Toshtemirovna “Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish”. Darslik. T. 2022.

4. Z.K.Alimova. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishda o‘yin faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari. “Maktabgacha pedagogika”. O‘quv qo‘llanma. T. 2021-yil.

5. Fotima Qodirova, Shoista Toshpo‘latova, Nargiza Kayumova, Malohat A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”. Darslik. T. – 2019.

6. Леонтьев А.Н. Проблема деят--ельности в психологии. // Ж. Вопросы философии. - 1972. -№ 9. С.95-108.

Dilafro‘z RAHMONOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi, o‘qituvchi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA OILAGA NISBATAN QADRIYATLI MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirish muammosining amaliy asoslari mavzusi bugungi kunning asosiy muammolaridan biri ekanligi izohlangan bo‘lib, bu muammoning metodologik asoslari, mavzu muammosining amaliy natijalari, muammo muhokamasi hamda muammoning xulosasi haqida yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Qadriyat, akseologiya, umumbashariy qadriyat, milliy qadriyat, shaxsiy qadriyat, oilaviy qadriyat.

В статье объясняется, что тема практических основ проблемы формирования ценностных отношений к семье является одной из основных проблем сегодняшнего дня, освещаются методологические основы этой проблемы, практические результаты проблемы темы, обсуждение проблемы и вывод проблемы.

Ключевые слова. Ценность, аксиология, общечеловеческая ценность, национальная ценность, личностная ценность, семейная ценность.

The article explains that the topic of practical foundations of the problem of forming value relations towards the family is one of the main problems of today, and highlights the methodological foundations of this problem, the practical results of the problem, the discussion of the problem, and the conclusion of the problem.

Key words. Value, axiology, universal value, national value, personal value, family value.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi shaxsini shakllantirishning pedagogik shartlari majmuasiga e’tibor qaratganimizda eng avvalo pedagogning namuna manbai sifatidagi shaxsiy xususiyatlari va MTT tarbiyalanuvchisini yoshiga doir ruhiy xususiyatlari (taqlidchiligi va ta’sirchanligi, reaktivligi va emotsionalligi); oila – maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi ta’siri portreti sifatida vanihoyat xulq-atvor etalonini namoyon qiluvchi tengdoshlar bilan bo‘ladigan munosabatlari namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonni to‘ldirgan va aksiologik boyitgan holda biz tarbiyalanuvchilarda oilani qadrlash tuyg‘usini shakllantirishning samaradorligini ta’minlovchi quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni ajratib ko‘rsatamiz. Ushbu shartlar tizimli faoliyatga oid, aksiologik, familistik, shaxs faoliyatiga oid, gumanistik, genderli va kompetentli yondashuvlar kontekstida ajratilgan quydagilarni inobatga olish muhim:

– tarbiyalanuvchilarning yoshga doir xususiyatlarini hisobga olish;

– MTTning ijtimoiy-madaniy ta’lim muhitida maqbul oilaviy maydon yaratish;

– xususiy qo‘shimcha ta’lim muassasasi metodologik faoliyati orqali, ota-onalarning prospektik va introspektik refleksiyasini rivojlantirish texnologiyasini qo‘llagan holda ota-onalar kompetentligini shakllantirish;

pedagoglar familistik kompetentlikni shakllantirish;

MTT tarbiyalanuvchilarida o‘yin faoliyatida oilani qadrlash tuyg‘usini shakllanti-

rish bo‘yicha ma’no izlash faoliyatida oilani psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ahamiyatli sanaladi. Fikrimizcha, ota-onalarni ekstensiv pedagogik ma’rifatli qilishga ko‘maklashish, birgalikda ishtirok etish, kesishuv, o‘zaro hamjihatlik va hamdardlik tamoyillariga asoslangan. Bizning tadqiqotimiz kontekstida oilani pedagogik ma’rifatlantirishni bolalarda oilani qadrlash tuyg‘usini shakllantirish chog‘ida ota-onalar pedagogik madaniyati va kompetentligini oshirish omili sifatida ajratamiz.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida o‘yin faoliyatida oilani qadrlash tuyg‘usini, oilani ma’naviy-ruhiy va milliy uyg‘otishni shakllantirish qo‘yilgan vazifalarini biz maxsus tashkil etilgan, ota-onalar va tarbiyalanuvchilar uchun mo‘ljallangan oilaviy mavzudagi aksiologik boyitilgan slayd-ma’ruzalar va video-ma’ruzalar va quyidagi bahs-munozalar yordamida hal etdik:

“Oilaning pedagogik xususiyatlari”, “Milliy oilaviy tarbiya ildizlari”, “Ota-ona uyi iliqlik bilan qarshi oladi”, “MTT va oila ruhiy-axloqiy rivojlanish yo‘lida”; guruh soatlari, etik suhbatlar, festivallar, muayyan oilashunoslik mavzusiga oid taqdimotlar o‘tkazish: “Mustahkam oila – mustahkam qo‘rg‘on”, “Oilaviy tarbiyada ijodkorlik”, “Oilada tabiatga munosabatni shakllantirish”, tarixiy va etnografik muzeylarga oilaviy ekskursiyalar, oilaviy ijod ko‘rgazmalarini borib ko‘rish;“Bir piyola choy ustida” butun oila bo‘lib o‘tirish kabilarni joriy qilish muhimdir.

Pedagogik savodxonlikni rivojlantirish deganda yagona ijtimoiy-axloqiy va ma’naviy qiymatli makonda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari axloqiy, ijtimoiy, intellektual jabhalari rivoji xususiyatlari va bolaning tarbiyaviy muhiti bilan o‘zaro aloqa va hayotiy faoliyat kontekstida tarbiyalanuvchilar bilan ishlash metodlari haqidagi bilimlarni ularning ota-onalariga yetkazib berish jarayonini tushunamiz.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilani qadrlash tuyg‘usini shakllantirish masalasi bilan shug‘ullanuvchi pedagoglar faoliyatida familistik kompetentlik pedagogning o‘zining mahoratini takomillashtirishda professional-pedagogik kompetentlikning muhim qimmatli aspekti sifatida sezilarli ahamiyat kasb etadi. Familistik kompetentlik quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

– kognitiv komponent;
– operatsion-faoliyatga doir komponent;
– qiymatli-ma’noviy komponent;
– ijodiy faoliyatga doir komponent.

Familistik kompetentlikni shakllantirishni biz bo‘lg‘usi pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonida turli shakl, metod va texnologiyalarni qo‘llab amalga oshirishimiz mumkin. Pedagoglarda familistik kompetentlikni shakllantirishdan asosiy maqsad quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirish sharoitida kasbiy faoliyat tizimini loyihalash va tatbiq etishda MTT tarbiyachi-pedagogini metodologik qo‘llab-quvvatlashdan iborat:

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilani qadrlash tuyg‘usini va qadriyatli munosabatlarni shakllantirish asoslab berilayotgan hamda ishlab chiqilgan shart-sharoitlar keltirilgan model samaradorligini ta’minlaydi.

Tarbiyalanuvchiga qadriyatli munosabatlarni shakllantirish, tarbiyalash haqida qanday o‘rinli gaplar aytish mumkin?

Tarbiyalanuvchilarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirish, tarbiyalash yuzasidan ota-onalar bilan hamkorlikda guruh tarbiyachisi qanday axloqiy prinsiplarga amal qilishi lozim?

Tarbiyalanuvchida qadriyatli munosabatlarni shakllantirish, tarbiyalashda guruh tarbiyachisini nimalar tashvishga soladi?

Tarbiyalanuvchilarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirish, tarbiyalashda fikrimizcha salbiy holatlarning sabablari nima?

Tarbiyalanuvchilarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirish, tarbiyalash uchun guruh tarbiyachisi va ota-onalar tomonidan qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur?

Tarbiyalanuvchilarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirish, tarbiyalash uchun guruh tarbiyachisi va ota-onalar hamkorligining muhim ahamiyat kasb etadigan jihati – ota-onalarning psixologik-pedagogik nuqtai nazardan bilim va ma'lumotga ega bo'lishidir.

Oilaga qadriyatli munosabatini shakllantirish muammosi bo'yicha tarbiyachi-pedagoglarning turli xil ilmiy pozitsiyalarini tahlil qilib, MTT tarbiyalanuvchilarida oilaga qadriyatli munosabatni shakllantirishning quyidagi o'zaro bog'liq bosqichlarini ajratib ko'rsatamiz.

1. Rag'batlantiruvchi (motivatsion)-yo'naltirilgan.
2. Qadriyatli-izlanishli.
3. Faoliyatli-samarali.

Motivatsiyaga yo'naltirilgan bosqichning maqsadi ma'naviy-axloqiy hissiyotlar sinteziga asoslangan anglanmagan darajada axloqiy imperativ sifatida oilaga qadriyatli munosabatni shakllantirish. Bosqichning o'ziga xos xususiyati – MTT tarbiyalanuvchilarida mavjud oilaviy munosabatlarni faollashtirish orqali qadriyatlarni shakllantirishdir. Bosqichning mazmuni MTT tarbiyalanuvchilari oilaga tegishli belgilarni tahlil qila olish va aniqlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishini o'z ichiga oladi. Ushbu bosqich emotsional qayg'urishlar va mavjud oilaviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. Mazkur bosqich butun hayotiy tajribani, uning barcha tajribalar yig'indisini, yaqin insonlari bilan o'zaro munosabat natijasida hosil bo'lgan qadriyatli munosabatlar tizimida mujassamlashtiradi. Ushbu bosqichda mashg'ulotlardan tashqarida oilaga qadriyatlarga asoslangan munosabatni shakllantirish uchun, avvalo, yaxshilik, kattalarga va bolalarga bo'lgan hurmatga e'tibor berishga imkon beradigan muayyan oilaviy axloqiy tuyg'ularni, his-tuyg'ularni uyg'otish kerak.

Axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq kechinmalar sintetik tavsifga ega bo'lib, xatti-harakatlarni tartibga solish uchun muhimdir. Kechinmalar – tarbiyalanuvchilar uchun ma'naviy tajribani shakllantirish, yaqinlariga g'amxo'rlik qilish, ularga asosan kelajakda oilaviy qadriyatlarni o'zlashtirish amalga oshadi. Ushbu bosqich MTT tarbiyalanuvchilari va ota-onalarning faoliyatini qamrab oladi hamda MTTdan tashqari mashg'ulotlarda turli usullar, shakllarni tashkil etish orqali ota-ona, aka-uka, opa-singillar, bobo-buvilar, boshqa qarindoshlar bilan yaxshi his-tuyg'ular, munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, tarbiyalanuvchilarni oilaga bo'lgan qadriyatli munosabatini shakllantirishga qaratilgandir.

Qadriyatli-izlanishli bosqich refleksiv-semantik darajada oilaga qadriyatli munosabatini shakllantirishga mo'ljallangan. MTT tarbiyalanuvchilarida dastlab mazmunli-qadriyatli, emotsional idrokni izlash amalga oshadi, undan keyingina "oila" munosabatlarining o'zlari uchun shaxsiy ma'nosini "kashf etadilar". Bosqich mazmuni – oilaning axloqiy qadriyatli va oilaning o'zini o'zi qadrlash borasidagi o'z nuqtai nazarini asoslash ko'nikmasini qamrab oladi. Ushbu bosqichda nima sodir bo'ladi – yangi g'oyalar, qarashlar, fazilatlar ilgari olingan narsalar bilan bog'liqdir. Baholash jarayoni "madaniyat timsollari" – oilaviy urf-odatlar, an'analar, tadbirlar va me'yorlarda belgilangan umumbashariy insoniy me'yorlarga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. Mavzu, jarayonlar, hodisalarni o'zlashtirishdagi – dalil, bu tarbiyalanuvchining o'z-o'ziga berilgan "Nima uchun? Nega?

savollariga javobidir.

Ikkinchi bosqichda, L.P.Razbegayevaning fikricha, bilim o‘zlashtiriladi (kognitiv jihat) va yangi ma’no paydo bo‘ladi (shaxs aspektida). qadriyatlarga asoslangan o‘z-o‘zini takomillashtirish, shaxslararo muloqot sharoitida oilaga ularning qadriyatli munosabatini shakllantirishda tarbiyalanuvchilarni maktabdan tashqari mashg‘ulotlarga muammoli-qadriyatli muloqot aloqalariga jalb qilish.

Faoliyatli-samarali bosqich MTT tarbiyalanuvchilarining oiladan tashqari mashg‘ulotlarda oilaga bo‘lgan qadriyatli munosabatini amaliyotga yo‘naltirilgan darajadagi axloqiy imperativ sifatida shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, u shaxsning axloqiy faoliyatida o‘zini namoyon qiladi: o‘quvchi “oilaviy qadriyatlar”ning tashuvchisi va faol o‘tkazuvchisiga aylanadi hamda o‘z axloqiy xulq-atvoriga hamda o‘zini takomillashtirish istagiga ega, o‘z axloqiy pozitsiyasini qandaydir ma’noda namoyish etadi.

Ta’kidlash joizki, MTTdan tashqari mashg‘ulotlarda tarbiyalanuvchilar orasida oilaga nisbatan qadriyatli munosabatning o‘zlashtirilishi ko‘p jihatdan jamoatchilik fikri, shuningdek, pedagogik va ota-onalar jamoasining shaxsga qo‘yadigan talablari bilan belgilanadi. Dissertatsion tadqiqot ishimiz davomida aniqlagan mashg‘ulotlardan tashqarida tarbiyalanuvchilarda oilaga qadriyatli munosabatni shakllantirish bosqichlari o‘zaro shartlangan va o‘zaro bog‘liqdir.

Asosiy vazifa – inson uchun prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan oilaga qadriyatli munosabat masalalarini hal qilishda oila va MTTni birlashtiradigan qo‘shma tarbiya platformasini shakllantirishdir. Ta’lim-tarbiya davomida ta’kidlangan MTT tarbiyalanuvchilarini oilaga bo‘lgan qadriyatli munosabatlarini shakllantirish bosqichlari pedagog-tarbiyachi, tarbiyalanuvchi va ota-onalarning o‘zaro bog‘liq faoliyatida amalga oshiriladigan “Ilk qadam” dasturida amalga oshiriladi.

MTT pedagog-tarbiyachilarining vazifasi tarbiyalanuvchilar o‘zlarini ma’lum bir madaniyat bilan moslashtirishlari uchun qadriyatli munosabatni shakllantirish jarayonini yo‘naltirishlari, uni umuminsoniy qadriyatlarga moslashtirishlari, oilaviy qadriyatlarni jamiyat hayotining eng muhim qoidalari sifatida qabul qilingan qadriyatlar bilan o‘zaro bog‘lashlari lozim bo‘ladi.

Shunday qilib, MTT tarbiyalanuvchilari tomonidan oila bilan qadriyatlarga asoslangan munosabatlar shakllanishining o‘zaro bog‘liq bosqichlari bir vaqtning o‘zida kognitiv, emotsional va irodaviy faoliyatni o‘z ichiga oladi, shaxsiy harakat bir yo‘nalishda, uning semantik sohasiga yo‘naltirilgan vaziyatda rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.Hasanboyeva “Oila pedagogikasi” Darslik “Aloqachi” nashriyoti T.: 2007-yil 384-bet. (149-152).

2. G‘. B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sogunov, F. A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetovalar “Oila psixologiyasi” o‘quv qo‘llanma “Sharq”, T.: 2008-yil. 296-bet. (53-68).

3. O‘. M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonovlar “Pedagogika” darslik “Talqin” nashriyoti T.: 2008. 288-bet. (232-235).

4. Matluba Ahmedova “Falsafa” darslik “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti 2006-yil. 496-bet (432-440).

Dilafruz MANSUROVA,
tadqiqotchi

MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYALANUVCHILARNING IJODKORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada ijodiy shaxsni rivojlantirish federal davlat ta'lim standarti nuqtai nazaridan pedagogik nazariya va amaliyotning muhim vazifalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va rivojlantirishning asosiy usullari amaliy, vizual, og'zaki va o'yin usullari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar. Metod, maktabgacha ta'lim tashkiloti, iqtidor, ijodkorlik, muloqot, bola.

В статье рассматриваются важные задачи педагогической теории и практики с точки зрения федерального государственного образовательного стандарта развития творческой личности. Также раскрыты основные методы обучения и развития детей дошкольного возраста: практические, наглядные, словесные и игровые методы.

Ключевые слова. Метод, дошкольная образовательная организация, талант, творчество, общение, ребенок.

The article discusses the important tasks of pedagogical theory and practice in terms of the federal state educational standard for the development of a creative personality. Also, the main methods of teaching and developing preschool children are revealed: practical, visual, oral, and game methods.

Key words. Method, preschool educational organization, talent, creativity, communication, child.

Kuzatish – bu atrofdagi dunyo hodisalariga diqqat bilan qarash, ulardagi muhim, asosiy narsalarni ajratib ko'rsatish, sodir bo'layotgan o'zgarishlarni payqash, ularning sabablarini aniqlash va xulosalar chiqarish hodisasidir. Kuzatish bolani yoshligidanoq uning kuzatish qobiliyatini, diqqatini kuzatilayotgan narsaga jamlay olish, asosiy narsani payqash, ko'rgan narsa haqida fikr yurita olish qobiliyatini rivojlantirgan holda o'rgatish kerak. Kuzatish jarayonida bola turli xil aqliy faoliyatni amalga oshiradi: qo'yilgan savollarga javob izlash, taqqoslash, qo'shib qo'yish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda kuzatish ikki yo'nalishda rivojlanadi. Avvalo, kuzatilgan obyektlar doirasi asta-sekin kengaytiriladi: guruh xonasida, keyin boshqa xonada, bolalar bog'chasi hududida kuzatishlar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda turli xil kuzatishlar qo'llaniladi: qisqa muddatli va uzoq muddatli, takroriy va qiyosiy kuzatishlar. Uzoq muddatli kuzatuvlar bolalarning rivojlanish jarayoni va muayyan obyekt holatidagi o'zgarishlar bilan tanishtirishga imkon beradi. Qiyosiy kuzatishlar bolalar tafakkurini rivojlantirish uchun alohida ahamiyatga ega. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar kuzatilgan obyektni hozirgi vaqtda bevosita idrok etilmagan boshqasi bilan solishtirishlari mumkin (vakolat bilan taqqoslash): avtobus va tramvay, daryo va hovuz. Kuzatishga yetarlicha asoslanmagan ta'lim bolaning mustahkam asosga ega bo'lmagan rasmiy bilimlarga ega bo'lishiga olib keladi. Rasmlar, reproduktsiyalar, slaydlar, taqdimotlar va boshqa ko'rgazmali qurollarni tekshirish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muhim o'qitish usuli bo'lib, ularga bir qator didaktik muammolarni

hal qilish imkonini beradi. Vizual o‘qitish usullari bolalarning tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar haqida aniq tasavvurlarini shakllantirishga, fikrlash va bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan. Amaliy usullar – bu o‘qituvchining bolalarning bilim faolligiga, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga amaliy xarakter beradigan usullari. Bu shuni anglatadiki, faoliyat narsalarning haqiqiy o‘zgarishiga qaratilgan bo‘lib, uning davomida bola ularning xususiyatlari va bevosita idrok etish mumkin bo‘lmagan aloqalari haqida bilib oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning yetakchi usullaridan biri bu o‘yin usullari. O‘yin esa eng erta yoshdan boshlab maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishining yetakchi usuli hisoblanadi. O‘yin usullarining afzalligi shundaki, ular bolalarda ortib borayotgan qiziqish va ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadi va ularga diqqatni tashqaridan yuklanmagan, balki shaxsiy maqsad bo‘lib qoladigan vazifalarga jamlashga yordam beradi.

Vizual, o‘yin va amaliy usullar og‘zaki usullar bilan birlashtirilib, birinchisini yanada samaraliroq qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda faqat og‘zaki usullardan foydalanganda samaradorlik past bo‘ladi. Maktabgacha yoshda ular atrofidagi dunyo haqidagi g‘oyalar shakllanadi, faqat o‘qish va hikoya qilish yetarli emas bolalarga aniq misollar keltirish kerak. Eng muhim og‘zaki usullardan biri o‘qituvchining hikoyasi bo‘lib, u bolalarga ular uchun qulay shaklda rivojlanish imkonini beradi. Hikoyada mazmun majoziy shaklda berilgan. Hikoya berish barcha og‘zaki usullarning eng hissiyotidir. Aksariyat hollarda bu bolalarga kuchli ta’sir qiladi, chunki o‘qituvchi o‘zi gapirayotgan voqealarga o‘z munosabatini bildiradi. Hikoya bolalarni mazmuni haqida taassurot almashishga undaydi, ijodiy fikrlashni, ya’ni obrazli fikrlashni rivojlantiradi, tasavvurni rivojlantiradi. Zamonaviy dunyoda Italyan gumanist o‘qituvchisi Mariya Montessori usuli keng tarqaldi. M.Montessori pedagogikasi bepul ta’lim g‘oyalarini amaliy amaliyotda samarali amalga oshirish namunasidir. M. Montessori usulining an’anaviy bolalar bog‘chalaridan asosiy farqi – bolaga o‘ziga xos, takrorlanmaydigan shaxs sifatida, o‘z rivojlanish rejasi, o‘z yo‘llari va atrofidagi dunyoni o‘zlashtirish vaqti bilan munosabatda bo‘lishdir. M. Montessori usulining asosiy g‘oyasi bolani aniq qurilish mantig‘iga ega bo‘lgan va bolaning psixologik ehtiyojlariga mos keladigan tayyorlangan muhitga joylashtirish orqali uni o‘z-o‘zini rivojlantirishga undashdir. Pedagog yoki o‘qituvchining vazifasi bolaga ushbu muhitda o‘z faoliyatini tashkil etishga, o‘ziga xos yo‘ldan borishga, ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga yordam berishdir. Ta’limni shaxsning ma’naviy salohiyatining takror ishlab chiqarilishi deb qaraydigan pedagogika fani bolalarga turli xil tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. San’at sohasi shaxsning ijtimoiy-estetik faolligini shakllantirishga yordam beradigan makon sifatida qaraladi. Bolalar ijodiyotini rivojlantirishning navbatdagi shakli teatr faoliyatidir. Faoliyatning bu turi bolalardan talab qiladi: diqqat, aql, tezkor reaksiya, tashkilotchilik, harakat qilish qobiliyati, ma’lum bir tasvirga bo‘ysunish, unga o‘zgartirish, hayot kechirish. Shu sababli, og‘zaki ijod bilan bir qatorda, dramatizatsiya yoki teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishi bolalar ijodiyotining eng keng tarqalgan va keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Buni bolaning o‘zi bajaradigan harakatga asoslangan drama badiiy ijodni shaxsiy tajriba bilan eng chambarchas bog‘lashi bilan izohlash mumkin. Dramatizatsiya bolalar ijodiyotining asosi bo‘lgan o‘yin bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun dramatizatsiya turli xil ijodkorlik elementlarini o‘z ichiga oladi. Teatr faoliyati bolalarning his-tuyg‘ulari, tajribalari va kashfiyotlarini rivojlantirish manbai hisoblanadi. Bu aniq, ko‘rinadigan natijadir. Teatr faoliyati bolalarning hissiy sohasini rivojlantiradi va ularni o‘ynalayotgan voqealarga hamdard bo‘lishga undaydi. “Ushbu empatiya jarayonida, – B. M. Teplov ta’kidlaganidek, “ba’zi

munosabatlar va axloqiy baholar yaratiladi, ular oddiygina aytilgan va o‘zlashtirilgan baholarga qaraganda beqiyos ko‘proq majburlash kuchiga ega”. Teatr faoliyatining eng katta ahamiyati shundaki, ular bolalar ijodiyotining boshqa turlarini namoyon qilish imkoniyatini beradi. Ushbu turdagi faoliyatda bolalarning o‘zlari bolalikdan tanish bo‘lgan ertak va hikoyalarni yaratish, improvizatsiya qilish yoki sahnalashtirish imkoniyatiga ega. Bu ularning og‘zaki ijodi, bu zarur va bolalarning o‘zlari uchun tushunarli. Va rekvizitlar, bezaklar va kostyumlar ishlab chiqarish bolalarga o‘zlarining vizual va texnik ijodini namoyish etish imkoniyatini beradi. A. V. Zaporojetsning ta’kidlashicha, “bolalar ijodi mavjud, u uning namoyon bo‘lish xususiyatlarini boshqarishni o‘rganish, bolalar ijodini rag‘batlantirish va rivojlantirish usullarini ishlab chiqish zarurligiga e’tibor qaratadi. U badiiy faoliyatga, shuningdek, bolalarning atrofdagi hayotda va san’at asarlarida go‘zallikni idrok etishni rivojlantirishga qaratilgan barcha ta’lim ishlariga katta ahamiyat berdi, bu bolaning ijodiy rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. A. V. Zaporojets, shuningdek, vizual faoliyat, o‘yin kabi, bolani qiziqtiradigan mavzularni chuqurroq tushunishga imkon beradi, deb hisoblaydi. Biroq, eng muhimi, u tasviriy san’atni o‘zlashtirar ekan, u erta bolalikda mavjud bo‘lmagan ichki ideal rejani yaratadi. Maktabgacha yoshda faoliyat rejasi hali to‘liq shakllanmagan, u moddiy yordamga muhtoj va rasm chizish bu yordamlardan biridir. Bolaning rasmini tushunish uchun nafaqat rasmning natijasini, balki rasmning o‘zini yaratish jarayonini ham o‘rganish kerak. N. M. Rybnikov bola uchun vizual faoliyat mahsuli ikkinchi darajali rol o‘ynashini ta’kidladi. Uning uchun chizma yaratish jarayonining o‘zi birinchi o‘ringa chiqadi. Shuning uchun bolalar katta ishtiyoq bilan rasm chizishadi. Bolaning chizgan rasmini ko‘rib chiqsak, u aniq bir obyektni emas, balki bu obyekt haqida nimani bilishini, obyekt haqida nimani his qilayotganini ko‘ramiz. Shuning uchun ko‘pincha bolalar rasmlari kattalar uchun har doim ham tushunarli bo‘lavermaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тюфанова И. В. Мастерская юных художников. Развитие изобразительных способностей старших дошкольников [Текст] / Санкт– Петербург, изд–во “Детство–Пресс”, 2004. – 80 с. 46.

2. Урунтаева, Г.А. Дошкольная психология [Текст] : Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений. – 5–е изд., стереотип. / Г. А. Урунтаева. – М. : Издательский центр “Академия”, 2001. – 336 с.

3. Федеральный государственный образовательный стандарт дошкольного образования (приказ Министерства образования и науки Российской федерации № 1155 от 17.10.2013г.).

4. Шадриков, В. Д. Психология деятельности и способности человека [Текст] : Генетика. В 2 ч. Часть 1 2–е изд. испр. и доп. Учебное пособие для СПО / В. Д. Шадриков. – М, : Издательская корпорация “Логос”, 1996. – 320 с: ил.

Abduxamit QO'SHBAQOV
Associate professor of the Department of "digital economy and Information Technology"
Samarkand branch of Tashkent State University of Economics

ANALYSIS OF COMPUTER SIMULATION MODELS IN EDUCATION ON LEGAL APPROACH TO LEARNING PROCESS

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish bo'yicha xorijiy, mustaqil do'stlar hamdo'stligi mamlakatlari va O'zbekistonning ilmiy-tadqiqot ishlari, shuningdek, o'quv jarayonida kompyuter modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi tahlili keltirilgan.

Tayanch so'zlar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari, inklyuziv ta'lim, kompyuter texnologiyalari, modellashtirish texnologiyalari.

В данной статье представлен анализ исследовательских работ зарубежных стран, стран СНГ и Узбекистана, посвященных использованию информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в образовании, а также эффективности использования технологий компьютерного моделирования в образовательном процессе.

Ключевые слова. Информационно-коммуникационные технологии, средства массовой информации, инклюзивное образование, компьютерные технологии, технологии моделирования.

This article presents an analysis of research works of foreign and CIS countries and Uzbekistan on the use of information and communication technologies (ICT) in education, as well as the effectiveness of the use of computer modeling technology in the educational process.

Key words. Information and communication technologies, mass media, inclusive education, computer technologies, modeling technologies.

Today, in the public education system, there are 86 specialized schools and 21 boarding schools for students with disabilities in physical or mental development, where more than 20,610 students receive education. In addition, more than 13,437 students with physical or mental disabilities and need long-term treatment are receiving education at home.

Education of children and adolescents in need of special assistance in our republic, taking into account their types of disabilities and their degrees, in the following 8 areas of special education:

– blind children;
– visually impaired;
– children with hearing impairment;
– hearing impaired children;
– children with intellectual disabilities;
– children with damage to the supporting organs;
– children with speech defects;

– activities are being conducted on children with severe behavior.

At this point, the decision PQ-5218 of the President of the Republic of Uzbekistan dated August 9, 2021 "On measures to introduce a fundamentally updated system of raising orphans and children deprived of parental care" also shows that young people with limited opportunities are highly valued in our country. According to the President's decision, "Mehribonlik" houses, Children's towns, family orphanages and Children's houses (educational institutions) of the Ministry of Health system were attached to the National Guard.

In the conducted scientific research, the condition of education of children with damage to the 8 categories of basic movement organs and children with hearing impairment was studied. As the first basis for the education of youth with disabilities in Uzbekistan, the Republican Education Center developed the "Measure-Measure Plan for the Development of the Open Education System for Children with Special Needs in the Republic of Uzbekistan". In this plan, the following organizational principles of inclusion of children with special needs in the special system are highlighted in the program:

– preparing public consciousness for inclusive education through public information;

– creation of an information bank about children in need of special assistance in the republic;

– issues of development and provision of various educational methodical literatures, didactic tools for children with all types of disabilities, specially and individually in families.

In the concept of development of the system of public education of the Republic of Uzbekistan until 2030, priority tasks such as "creating information and communication technologies for modern textbooks, educational manuals, and multimedia applications" have been defined.

Information communication technologies are methods of information processing with various technical and software devices. It is primarily computers with the necessary software and telecommunications equipment on which data is stored.

The introduction of information and communication technologies in the education of young people with disabilities leads to a more effective learning of students.

It would not be a mistake to say that the introduction of computer technologies not only into the field of production, but also into the education system has brought significant achievements in science. The introduction of software tools of computer technologies into the education of young people with disabilities creates an opportunity to learn from existing subjects.

According to studies, the diseases of children who need individual education at home are listed below and they are:

– Rheumatism (active phase).

– Pancorditis and endomyocarditis.

– Congenital heart disease (level of subcompensation and decompensation).

